

Zabur 1

Solihning halovati, fosiqning halokati

1 Saodatli odamdir u, Fosiqlar maslahatiga yurmas, Gunohkorlar yo`liga kirmas, Buzuqilar yig`inida o`tirmas. **2** Illo Xudovandning Qonunidir uning zavqu orzusi, Tunu kun Tangri Qonuni ila banddir fikri-zikri. **3** Oqar suvlar kanoriga o`tqazilgan, Mevasini mavsumida tugadigan, Barglari esa so`lmaydigan daraxt kabidir u kishi. U neki qilsa, tole unga yordir. **4** Fosiqlar esa-chi bunday emaslar, Balki shamolda to`zg`ib ketgusi to`pondirlar. **5** Shu bois fosiqlar hukm qilinganda bosh ko`tarmas, Gunohkorlar esa solihlar majlisida tura olmas. **6** Xudovand solihlar yo`lini asrar, Fosiqlar esa o`z yo`lida halok bo`lar.

Zabur 2

Xudo tayinlagan abadiy Hukmron

1 Nega isyon ko`taryapti millatlar? Nechun puch rejalarni tuzyapti elatlar? **2** Birgalashib isyon qilib dunyo podshohlari, Xudovand va Uning Masihiga qarshi kengashdilar: **3** «Qani, buzib tashlaylik ularning kishanlarin, Xalos bo`laylik ularning bo`yinturug`idin!» **4** Samoda o`ltirgan Egam kular, Rabbim ularni masxara qilar. **5** Vaqti kelib, U qahri bilan so`zlar, G`azab ila ularning ko`ksiga g`ulu solar. **6** «Men O`z Podshohimni tayinladim, Muqaddas tog`im bo`lmish Sionda o`rnatdim», - deyar. **7** Men Xudovand farmonini e lon etgayman, U Menga aytdi-kim: «Sen Mening O`g`limsan, Seni bugun tavallud ettirdim. **8** Mendan talab qilgin, toki Elu xalqlarni nasibang qilay, Butun yer yuzini mulkingga beray. **9** Temir hassa ila boshqarasan ularni, Sopol ko`za misoli parchalab tashlarsan». **10** Endi, ey podshohlar, aqlli bo`ling! Ibrat oling, ey dunyo hokimlari! **11** Qo`rquv ila Xudovandga xizmat qiling, Qaltirab Undan masrur bo`ling! **12** Uning O`g`lini e zozlang, Toki qahri kelmasin. Uning g`azabi o`t olsa tezda, Unda nobud bo`lasiz o`z yo`lingizda. Iqbollidir barcha Undan panoh topganlar!

Zabur 3

O`G`LI ABUSALOMDAN QOCHAYOTGAN PAYTDA DOVUDNING AYTGAN SANOSI.

2 Ey Xudovand, Yovlarim qanchalik ko`payib ketgan! Son-sanoqsizdir menga qarshi chiqayotganlar! **3** Ko`plar mening jonimga qasd ila: Xudodan unga najot yo`q ekan, demoqdalar. SALOT **4** Biroq Sen, ey Xudovand, Mening qalqonim, mening izzatimsan, Boshimni baland ko`taradigansan. **5** Xudovandga faryod qilganimda, U meni tinglar O`zining muqaddas tog`idan. SALOT **6** Men tinchgina uxlab, xotirjam uyg`onaman, Zero Xudovand menga madadkor bo`lur. **7** Qo`rqinch solmas menga har yoqdan qurshab, Minglab yopirilgan olomon. **8** Ey Xudovand, o`rningdan turgin, Qutqargin meni, ey Xudoyim! Sen barcha dushmanlarim jag`iga urib, Fosiqlar tishini sindirib tashlaysan! **9** Najot - Xudovanddandir; Sening barakatingdan xalqing bahramand bo`lg`ay! SALOT

Zabur 4

IJROCHILAR RAHBARIGA. SOZ UCHUN. DOVUD SANOSI.

2 Iltijo qilganimda, menga javob aylagin, Ey mening odil Xudoyim! Tang qolganimda O`zing najot bergansan; Yana menga mehribonlik ko`rsatgin, Ibodatimga quloq bergil! **3** Ey inson o`g`illari, Qachongacha izzatimni tuproqqa qorasizlar? Qachongacha puch niyatlarga ruju qo`yasizlar? Qachongacha yolg`on-yashiqqa havaslanasizlar? SALOT **4** Biroq bilingiz-kim, Xudovand O`z azizini ajratib olgan. Xudovand mening iltijomni eshitar. **5** G`azablanib, gunoh qilmang! Yotganingizda qalbingiz ila hamsuhbat bo`lib, tinchlaning. SALOT **6** Halol qurbonliklar keltiring, Xudovandga umid bog`lang! **7** Ko`plar so`ramoqdalar: Kim bizga baxt-saodat keltirar ekan? Jamoling nurini ustimizga solgin, ey Xudovand! **8** Ularning bug`doyi va sharobi ko`paygan, biroq Sen mening dilimga shodlik berding ko`proq. **9** Osoyishta yotaman ham uyg`onaman; Chunki, ey Xudovand, Xotirjamligimga yolg`iz Sen posbon.

Zabur 5

IJROCHILAR RAHBARIGA. NAYCHILAR UCHUN. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, So`zlarimni tinglagin, Ogoh bo`lgil niyatimdan! **3** Nolayu faryodimga quloq solgin, Ey Podshohim ham Xudoyim! Men Senga ibodat qilmoqdaman. **4** Tong chog`i ovozimni eshitasan, ey Xudovand, Tong chog`i Sening oldingda hozir bo`laman, Intizorlik-la ko`z tutaman Sen tomon. **5** Sen yovuzlikni xush ko`rmaydigan Tangrisan, Nopok odam joy topmas Sening huzuringda, **6** Takabbur esa qad ko`tarmas qarshingda. Nafrat etasan jami badkirdorlardan, **7** Yolg`on so`zlovchini O`zing mahv etasan. Ha, Xudovand qonxo`ru makkordan jirkanur. **8** Men esam, rahming ko`pligi tufayli Sening uyingga kiraman. Muqaddas ma`bading tomon bosh egib, Senga xos qo`rqinch ila sajda qilaman. **9** Yovlarim-chun meni haqiqat yo`lingga boshla, O`z yo`lingni ravon qilgin oldimda, Ey Xudovand! **10** Ularning og`zida to`g`rilik yo`qdir, Kasofatdir ularning botini. Bo`g`izlari - ochiq qabr, So`zlari - faqat tilyog`lama. **11** Ey Xudoyim, ularni gunohkor bil! Yomon niyatlari o`zlariga ursin! Gunohlari ko`pligi bois ularni daf qil! Chunki ular Senga qarshi isyon qildilar. **12** Sendan panoh topgan hamma sevingay, Doimo quvonib tarannum etishgay. Ularni O`zing himoya qilursan, Nomingni sevguchilar Sen-la shod bo`lgay. **13** Ey Xudovand, Solihga O`zing baraka berursan, Lutfu karamingni qalqonday qilib, Uning ila solihni o`rab olursan.

Zabur 6

IJROCHILAR RAHBARIGA. SAKKIZ TORLI SOZDA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, Qahring kelib, ta`zirimni bermagin, G`azabing ila meni jazolamagin! **3** Menga mehribonlik qilgin, yo Rabbim, Chunki men bemajolman. Menga shifo bergin, ey Xudovandim, Chunki ustuxonlarimni titroq bosdi. **4** Jon-tanimni vahima qamramoqda. Sen-chi, ey Xudovand, qachongacha..? **5** Qaytgin, ey Tangrim, jonimni qutqar, Lutfing sharafi uchun xalos qil meni! **6** O`lim diyorida Seni yodlamaslar, Tamug`da kim

shukrona aytar Senga? **7** Men oh-zor qilaverib g`oyatda charchadim. Har kecha ko`rpam nam bo`ladi, Ko`z yoshim-la ho`llayman to`shagim. **8** Ko`zim nuri qayg`udan ado bo`ldi, Yovu ag`yor madorimni tamom qildi. **9** Ey sizlar, hamma badkirdorlar, Yo`qolinglar mening ko`z oldimdan! Xudovand eshitdi mening ohu nolamni, **10** Xudovand eshitdi munojotimni. Ha, ibodatimni Xudovand qabul etadi. **11** Barcha dushmanlarim sharmanda bo`lsin, Qattiq sarosimaga tushsinlar! Bir lahzada qaytib, shuvut bo`lsinlar!

Zabur 7

BENYAMINLAR O`G`LI KUSHNING QILMISHLARI HAQIDA DOVUDNING XUDOVANDGA O`QIGAN GIRASI.

2 Sendan men panoh topdim, ey Xudovandi karimim, Hamma qasdinga tushganlardan qutqar, xalos et! **3** Aks holda sherdayin jonimni tishlab parchalar, Chilparchin bo`larman, xaloskorim qolmasdan. **4** Ey Xudovandi karimim, Agar gunoh ish qilgan bo`lsam, Qo`limni nohaqlikka bulg`agan bo`lsam, **5** Pok niyatliga yomonlik qaytargan bo`lsam, Sababsiz g`animni g`orat qilgan bo`lsam, **6** Unda dushman jonim payiga tushib, quvib yetsin, Hayotimni yerda toptab, nomusimni tuproqqa qorsin. SALOT **7** Ey Xudovand, g`azabing ila tur! Yovlarim zo`g`imiga qarshi ko`taril! Voqif bo`lib, meni odil hukm qil! **8** Xalqlar jamoati Seni o`rasin; Ular ustidan yuksak o`rningni olgin! **9** Ey Xudovand, qavmlarni hukm etuvchi! Men solihman, ko`nglim pok, Yuzimni yorug` qilgin, ey Xudovand! **10** Fosiqlar yovuzligi barham topsin, Solihni-ku Sen asrarsan, ey odil Xudo, Yuraklaru ko`ngillarni sinovdan o`tkazuvchi! **11** Mening qalqonim Xudo bo`lur; Pokdillarga U najot berur. **12** Xudo odil hukm chiqarur, Har kun tegishlicha chora ko`rur. **13** Fosiq bo`lsa, gunoh yo`ldan qaytmas. U shamshirin charxlab, shay qilgan kamonin. **14** Tirlarini yonadigan qilib, O`ziga o`zi ajal sipohisi bo`lgan. **15** U noto`g`rilik tuxumini bosib, Kasofat jo`jalarini ochib chiqar, Oqibatda o`zini o`zi aldar. **16** O`zgaga choh qazigan kishi Qazigan chohiga o`zi qular. **17** O`zgaga falokat tilaganning falokati O`z oyog`i ostida bo`lar. Mushtumzo`rning mushti

o`ziga qaytar. **18** Men Xudovandning adolatini kuylab shukrlar deyman, Tangri Taoloning nomini tarannum etgayman.

Zabur 8

IJROCHILAR RAHBARIGA. «GAT» SOZIDA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, bizning Rabbimiz, Yer yuzi bo`ylab Sening noming naqadar ulug`vor! Osmondan ham yuksakdir ulug`vorliging! **3** Sen go`dagu chaqaloqlar og`zida madh yaratding, Toki Senga qarshi xusumat saqlab yurgan Dushmanu intiqomchi og`zini to`sib qo`ygin. **4** Sen bunyod etgan ko`kka ko`zim tikilsa, O`zing o`rnatgan oyu yulduzlarga boqsam, **5** Inson qadri nedirki, Sen uni yodlagaysan? Odam o`g`li nedirki, Sen uni ardoqlaysan? **6** Sen uni Xudodan andak past qilding, Izzatu jamol tojini unga kiydirding. **7** O`z yaratganlaring ustidan unga saltanat berding, Bor mavjudotni uning oyoqlari tagiga qo`yding: **8** Qo`ylaru sigirlar barisin, Hamda dala-dasht hayvonlarin, **9** Ko`k parrandasiyu dengiz baliqlarin, Rohi bahrdan o`tuvchi suv maxluqotlarin. **10** Ey Xudovand, bizning Rabbimiz, Yer yuzi bo`ylab Sening noming naqadar ulug`vor!

Zabur 9

IJROCHILAR RAHBARIGA. «O`G`ILNING O`LIMI» KUYIGA. DOVUD SANOSI.

2 Chin yurakdan Xudovandga shukrlar deyman, Sening mo`jizalaringni, ey Taolo, Bir-bir hikoya qilaman. **3** Sendan shodlanib tantana qilaman, Ismi sharifingni doim tarannum etaman. **4** Mening dushmanlarim orqaga qaytdi, Qarshingda qoqilib, yo`qolib ketdi. **5** Sen meni hukm etib, yuzimni yorug` qilding, Adolatli hakam bo`lib taxtga o`tirding. **6** Sen ellarga ta`zir berding, Betavfiqlarni mahv qilding, Nomlarini dorilbaqodan o`chirding. **7** Dushmanlar bitdi, kul bo`ldi yarog`i, Shaharlarini Sen xarob qilding, Ulardan xotira ham qolmadi. **8** Xudovand abadiy O`z taxtida o`tirar, Hukm uchun U taxtini qurgandir. **9** Dunyoni adolat bilan boshqarib, Xalqlar uchun to`g`ri hukm chiqarur. **10** Mazlum uchun Xudovand panohdir, Qayg`uli zamonlarida panogohdir. **11** Nomingni bilganlar Senga

umid bog`lar, O`zingga iltijo qiluvchilarni tark etmaysan, ey Xudovand!

12 Sionda davr surgan Xudovandni kuylang! Xalqlar ichra ajoyibotlarini xabarlang! **13** Xudovand xun oluvchidir, U jafokashni yodda tutadi, Unutmaydi mazlumlar faryodini. **14** Menga mehribonlik ko`rsatgin, ey Xudovand, G`animlarimdan tortgan kulfatimni ko`rgin! O`lim darvozasidan O`zing qaytargansan meni, **15** Toki Sion qizing darvozalarida Sening barcha hamdlaringni xabar qilay, Sening najoting bilan quvonay! **16** Xalqlar o`z qazigan chohlariga quladi, O`z qo`ygan domlariga oyoqlari ilindi. **17** Xudovand O`z hukmini yuritganidan tanildi, Betavfiq esa o`z qilmishlari bilan tutildi. OHANGLI SALOT **18** Betavfiq Xudoni unutgan barcha ellar O`liklar diyoriga tushib qoladilar. **19** Biroq bechorahol umrbod unutilmas, Kambag`alning umidi abadiy tugamas. **20** Turgin, ey Xudovand, Banda manmanlik qilmasin! Xalqlar Sening huzuringda muhokama bo`lsin! **21** Ey Xudovand, xalqlarga dahshat solgin! Ular bilsinki, oddiy insondirlar. SALOT **22** Ey Xudovand, nega mendan uzoqdasan? Nega og`ir zamonlarda ko`rinmaysan? **23** Mana, betavfiq mag`rurlanmoqda, Bechoraholning esa joni yonmoqda. Ular to`qigan ig`volari o`z boshiga qaytsin! **24** Betavfiq-ku g`arazgo`yni duo qiladi, O`zining nafs bandasi bo`lishi bilan maqtanib. **25** Xudovandni esa mensimaydi betavfiq, «Xudo o`ch olmas-ku», deydi gerdayib; Xudoga hech joy yo`q uning xayolida. **26** Yo`llari har doim o`ng`ay bo`lur, Sening hukmlaring esa balandda, Uzoqda turur uning xayolidan. Dushmanlariga esa u bir puflab, Hammasini nazarga ilmay qo`yar. **27** Yuragida u aytadir: Men hech qachon pand yemayman, Falokatga ham uchramayman, to abad! **28** Tili ostida la`natu hiyla-nayrang yotadir, Uqubatu kasofat uning izmidadir. **29** U qo`ra ortida pisib yotib, Pinhona gunohsizni o`ldirar, Ko`zlari faqirni yashirincha qidirar. **30** O`z inida berkingan arslon singari Bechorani tutmoq-chun pistirmaga berkinar, Bechorani bosib olib, o`z domiga tortar. **31** Bechora-ku ezilib, ikki bukilib, Yirtqich panjalaridan nobud bo`lar. **32** Betavfiq o`z dilida aytar: Tangri unutibdi, yuz-ko`zini berkitibdi, Qilmishimni U abadiy ko`rmas! **33** Turgin, ey Xudovand, Cho`z qo`lingni, ey Tangrim! Unutma bechorayu mazlumni! **34** Nechun betavfiq Xudoni mensimay: «Sen o`ch olmaysan», deb ko`nglida aytar? **35** Sen ko`rib turibsan-ku, O`z qo`ling bilan uning chorasini berasan. Sen

jafoni, azob-uqubatni ko`rsan! Bechorahol umidini Senga bog`laydi, Yesir-yetimlarga O`zing g`amxo`rsan. **36** Fosiqlaru jinoyatchilar qo`lini qirqib tashla, Toki yovuzligining izi bitsin! **37** Xudovand abadulabad Podshohdir, Yot xalqlar Uning diyorida yo`q bo`lur. **38** Mo`minlar tilagini Sen eshitasan, ey Xudovand, Yuraklariga dalda berib, ularga quloq solasan. **39** Yetimu mazlumlarni O`zing himoya qilasan; Yerdagi odamzod boshqa vahm olmasin.

Zabur 10

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

1 Xudovanddan men panohtopdim. Sizlar qanday qilib jonimga deysiz: «Qush kabi tog`laringga uchib ket!» **2** Qarang, fosiqlar kamonini tortib, Pokdilni zulmatda otmoq uchun O`qlarini ipga qadab qo`yibdilar! **3** «Poydevor vayron bo`lgandan so`ng, Solih ne qila bilar-» - deya. **4** Xudovand O`zining muqaddas ma`badidadir, Taxti osmondadir Xudovandning. Xudovandning ko`zlari ko`rar, Nigohi tekshirar inson o`g`illarini. **5** U solihlaru fosiqlarni sinab ko`rar, Zo`ravonlar esa Uning nafratiga yo`liqar. **6** Fosiqlar boshiga U yomg`irday qo`ru cho`g` Hamda yonayotgan oltingugurt yog`dirar, Garmsel ularning taqdiru qismati bo`lar. **7** Zeroki Xudovand barhaqdir, U haqqoniy ishlarni sevar, To`g`ri kishiga esa yuzini qaratar.

Zabur 11

IJROCHILAR RAHBARIGA. SAKKIZ TORLI SOZDA. DOVUD SANOSI.

2 Najot bergin, ey Xudovand! Chunki xudojo`y hech qolmadi, Banibashar ichra mo`min yo`q bo`ldi. **3** Har kim o`z yaqiniga yolg`on so`zlaydir, Tili boshqa, dili boshqa tilyog`lamachilardir. **4** Xudovand qirib tashlagay bunday buzuq og`izni, Qirqib tashlagay katta gapiruvchi har bir tilni! **5** «Biz tilimiz-la zo`r chiqamiz, Lab-dahan o`zimizniki, - demoqda ular? Kim ham bizga xo`jayin bo`lolar ekan-» **6** «Bechorahollar xonavayron bo`lganini, Faqirlarning xo`rsinganini Men eshitib, Endi harakatga

kelaman, - deydi Xudovand, ? Ular ko`z tegizgan odamni huzurga erishtiraman». **7** Xudovand kalomlari - pok kalomlardir, Tuproqdan olinib o`choqda yetti gal eritilgan Musaffo kumushday kalomlardir. **8** Ey Xudovand, Sen ularni muhofaza qilasan, Bizni ham bu nasldan abadiy asraysan. **9** Betavfiqlar endi bermalol aylanib yurishibdi, Banibashar ichra tubanlik avjga chiqqan.

Zabur 12

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, qachongacha meni unutasan? Qachongacha mendan yuz o`girasan? **3** Qachongacha qiynar ekanman jonimni, Tunu kun talvasada to`lg`anib qalbim? To qaygacha dushman mendan g`olib chiqar ekan? **4** Yo Xudoyo Xudovando, Menga qarab, quloq solgin, O`lim uyqusiga botib qolmayin! **5** Dushmanim: Uni yengdim, demasin, Yiqilib qolsam, yov tantana qilmasin. **6** Men Sening lutfingga umid bog`ladim, Sendan najot topib, ko`nglim quvonur. U menga xayrixohlik ko`rsatdi deb, Xudovandni tarannum etarman.

Zabur 13

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

1 Ahmoq o`z ko`nglida: «Xudo yo`q», - deydi. Bundaylar buzilib, razolat botqog`iga botar. Yaxshilik qiladigan hech kimsa yo`qdir. **2** Xudovand inson o`g`illariga osmondan boqar, Xudoni qidiruvchi biror idrokli kishi bormikan deya. **3** Biroq hammasi yanglishib, Barchasi murdor bo`lgan. Yaxshilik qiluvchi hech kimsa yo`q, Hatto biror kishi ham yo`qdir! **4** Xalqimni bir luqma kabi yeb yuboradigan, Xudovandni esa hech chaqirmaydigan O`sha badkirdorlar to`dasining aqli yetmaydimi? **5** Mana, qo`qqisdan ularni vahma bosdi! Chunki Xudo solihlar nasli orasidadir. **6** Faqirni ko`ngil armonidan ayirdingiz, Illo Xudovand uning panohidir. **7** Koshki Siondan Isroilga najot kelsa! Xudovand O`z xalqini asoratdan qaytargach, Bani-Yoqub shod bo`lgay, Isroil sevingay!

Zabur 14

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, Sening chodiringga kim qo`nar? Kim maskan topar muqaddas tog`ingda? **2** Kimki pokdil bo`lib, halol ishlasa, Chin qalbdan haqiqatni so`zlasa, **3** Kimki tiliga bo`hton olmasa, Birodariga yomonlik qilmasa, Xesh-aqrabosini sharmanda qilmasa, **4** Kimki manfur kishidan nafrat etsa, Xudovanddan qo`rqqanlarni hurmat qilsa, O`z zarariga bo`lsa ham so`zidan qaytmasa, **5** Pulini qarzga berib sudxo`rlik qilmasa, Begunohni qoralash uchun pora yemasa ? Kimda-kim bularga e`tibor bersa, U to abad tebranmas.

Zabur 15

DOVUD SHE RI.

1 Ey Tangrim, meni O`zing asragin, Chunki Sendan panoh topganman. **2** Men Xudovandga dedim: Sen mening Rabbimsan, Sendan boshqa men uchun xayr yo`q. **3** Mamlakatdagi asil, aziz kishilardadir Mening butun zavqu murodlarim. **4** Soxta xudoga sajda qilganlarning dard-g`ami oshsin! Ular qon to`kib xudoyi qiladilar. Men qo`limni bulg`amayman bunday ishlarga, Ularning nomini ham og`zimga olmayman. **5** Ey Xudovand, Sen mening nasibamsan, Kosam oqi - O`zingdirsan, Taqdirim qur`asi - Sening qo`lingda. **6** Ko`ngilli yerlarga tushdi marzalarim, Huzur-halovatdir mening merosim. **7** Menga mashvarat bergan Xudovandni olqishlayman, Kechalari o`z botinlarim menga o`git qilar. **8** Xudovandni doim ko`z oldimda ko`raman, U o`ng tomonimda bo`lguncha tebranmasman. **9** Shul bois mening dilim quvonur, Tilimdan shod-xurramlik to`kilur, Tanim ham umidvoru bexatar bo`lur. **10** Sen o`liklar diyoriga tashlab ketmaysan jonimni, O`z azizingga chuqurlik yuzini ko`rsatmaysan. **11** Sen hayot yo`lini menga bildirasan, Baxt-quvonchlar to`kindir huzuringda, Boqiy halovatdir Sening o`ng qo`lingda.

Zabur 16

DOVUD IBODATI.

1 Ey Xudovand, salohga e tibor bergin, Dod-faryodimga quloq solgin, Makrsiz irindan ungan ibodatimni tinglagin! **2** Yuzimni O`zing yorug` qilgin, Ko`zlaring to`g`rilikka yetaklansin! **3** Dilimni sinab, kechalari meni yo`qlading, Imtihon qilding, biror yomon niyatni topmading. Chunon tilim ila dilim birdir mening. **4** Odamlar ish-amaliga kelganda deyman: Men Sening kalomingga rioya qildimu, G`addor yo`llaridan o`zimni tiydim. **5** Qadamlarimni O`z rohingda sobit qilgin, Toki oyoqlarim zinhor tebranmasin. **6** Senga nola qilaman, ey Tangrim, Chunki Sen menga javob berarsan. Qulog`ingni menga tutgin, tingla so`zimni! **7** Ajoyib mehrinoyatingni ko`rsatgin, Ey, iltijo qiluvchilarning Xaloskori! Sening qo`ling himoyasida Osiylardan panohtopsa bo`ladi. **8** Ko`z qorachig`iday asragin meni, O`z qanotlaring soyasida yashirgin meni **9** Zarba bergan betavfiqlardan, Har yoqdan o`rab olgan jon dushmanidan! **10** Ularning yuragini-ku yog` bosgan, Og`izlari maqtanishdan gupurmoqda. **11** Har qadamda bizni ta`qib etib, Har tomonlama o`rab olmoqdalar, Yerga urmoq uchun pusib yotibdilar. **12** Ular ovga zoriqqan arslonga, Pistirmada poylab yotgan qoplonga o`xshar. **13** Ey Xudovand, turgin! Ularning oldini olib, qulatgin! O`z qiliching-la jonimni fosiqlar qo`lidan tortib olgin! **14** Ey Xudovand, shunday odamlardan, Ha, shu jahonning odamlaridan O`z qo`ling bilan meni xalos qilgin! Ular nasibalarini bu hayotdayoq olmoqdalar. Sen ularga ravo ko`rgan oziq bilan qornini to`q qil! O`g`illari qornini ham to`q qil! Hatto kelajak avlodga ham ortib qolsin! **15** Men esa saloh ila Sening siymongni ko`rgayman, Uyg`onganim zamon Sening diydoringga to`yarman.

Zabur 17

IJROCHILAR RAHBARIGA. XUDOVAND O`Z QULI DOVUDNI BARCHA DUSHMANLARI VA SHOUL QO`LIDAN OZOD ETGAN KUNDA, DOVUD USHBU QO`SHIQ BILAN XUDOVANDNI TARANNUM ETIB, DEDI:

2 Ey Xudovand, mening quvvatim, Senga men mehr bog`ladim. **3** Xudovand - suyanchig`im mening, Qo`rg`onimu Xaloskorim mening! Tangrim - boshpana topgan qoyam, Qalqonim, qahramonim, istehkomim mening! **4** Tahsinlarimga loyiqdir Xudovand, Uni chaqirgan chog`im yovlarimdan xalos etur. **5** O`lim zanjirlari meni qurshab oldi, Balo-qazo sellari dahshatga chulg`adi. **6** Tamug` iplariga ilinib qoldim, O`lim to`rlariga o`ralib qoldim. **7** Tang ahvolimda Xudovandni chaqirdim, Xudoyimga faryod etib yolvordim. O`z ma`badidan Ul eshitdi ovozim, Fig`onim Uning dargohiyu qulog`iga yetdi. **8** Onchoq dunyo larzaga kelib qaltiradi, Tog`lar poydevori titrab junbushga keldi. Chunki Tangri Taolo g`azabga mindi. **9** Uning burnidan tutun chiqdi, Og`zidan halokatli otash sochildi, Yonayotgan cho`g`lar yog`ildi Undan. **10** U ko`klar bag`rini tilib tushdi, Tim zulmat oyoqlari ostida edi. **11** U malakka minib uchib, Yel qanotlari uzra parvoz etdi. **12** Tun pardasini O`ziga yopinchiq qilib, Tubsiz, sim-siyoh suvlarga berkinib, Quyuq falak bulutlariga burkandi. **13** Uning huzuri nurafshanligidan bulutlar qochdi, Do`l va yonayotgan cho`g`lar yog`ildi. **14** Xudovand ko`klarni gulduratdi, Xudoyi Taolo tovushini eshittirdi, Do`l va yonayotgan cho`g`lar yog`dirdi. **15** U o`qlarini otib yovlarini tarqatdi, Chaqmog`ini chaqnatib ularni to`zitib yubordi. **16** Ey Xudovand, Sening qahrli tovushingdan, Ruhingning g`azabnok sadosidan Suv chashmalari ochilib qoldi, Dunyoning poydevori yaqqol ko`rindi. **17** U ko`kdan enkayib qo`limdan ushlab qoldi, Azim suvlar ichidan meni chiqarib oldi. **18** U meni baquvvat dushmanlarimdan, Mendan kuchli g`animlarimdan xalos etdi. **19** Ofatli kunimda ular qarshimga chiqdi, Lekin Xudovand mening tayanchim bo`ldi. **20** U meni kenglikka chiqarib qo`ydi, Mendan rozi bo`lib, erkinlikka chiqardi. **21** Xudovand salohimga yarasha meni siylar, Qo`llarim pokligi bo`yicha meni taqdirlar. **22** Chunki men Xudovand yo`llarini tutdim, Xudoyim yo`lidan chiqib yomonlik qilmadim. **23** Uning butun hukmlari ko`z o`ngimdadir, Uning qonunlaridan chekinmadim aslo. **24** Uning oldida sidqi dil bilan yurib, Gunohlardan o`zimni saqladim. **25** Xudovand meni solih deb taqdirladi, Halol ish qilib, Unga maqbul bo`ldim. **26** Sodiq kishiga Sen sadoqat ko`rsatasan, Samimiy odamga samimiy bo`lasan. **27** Pok kishiga poklik ato qilasan; Biroq egri odam bilan ters yo`l tutasan. **28**

Ezilgan xalqni O`zing qutqarib, Manmanlarni esa qaqshatasan. **29** Yo Rabbim, Sen mening shamimni yoqasan, Zulmatimni Xudoyim O`zi yorug` aylar. **30** Sening madading ila men qo`shinga ham zarba beraman, Xudoyim nomi bilan to`siq oshib ketaman. **31** Tangrining yo`li komildir, Xudovandning kalomi sofdir. Undan panoh so`ragan hammaga U bir qalqondir. **32** Xudovanddan boshqa tangri kim ekan? Xudoyimizdan bo`lak panoh qoyasi bormikan? **33** Tangri belimga quvvat kamarin bog`lar, Yo`limni O`zi kamolga yetkazar. **34** U oyoqlarimni bug`u oyoqlariday qilib, Meni baland yerlar ustiga turg`izar. **35** Qo`llarimni U jangga o`rgatar, Mis yoyni otish ham qo`limdan kelar. **36** Sen menga najot qalqoningni bergansan. Sening qo`ling - tayanchim mening, Iltifoting meni yuksaltirur. **37** Oyog`imni O`zing sobitqadam qilursan, Qimir etmas hech tovonim. **38** Dushmanlarimni quvib ularga yetaman, Ularni tor-mor qilmaguncha qaytmayman. **39** Ularga zarba qilsam, qad ko`tarmaslar, Oyoqlarim ostiga yiqilib qolarlar. **40** Jang qilmog`im uchun belimga quvvat kiritarsan, Menga qarshi chiqqan yovni oyog`im ostiga cho`ktirarsan. **41** Dushmanlarimning orqa tomonini menga burding, Mendan nafrat etganlarni qirib bitiraman. **42** Ular faryod etsa-da, qutqaruvchi bo`lmas, Xudovandni chaqirsalar-da, U eshitmas. **43** Yel to`zonni ko`kka sovurganday, Men ularning kulini ko`kka sovuraman, Yo`l ustidagi loy kabi toptab tashlayman ularni. **44** Sen harbu zarbdan meni xalos etding, Yot xalqlarga meni sardor qilding, Men bilmaydigan el menga qaram bo`ldi. **45** Ular ovozimni eshitiboq itoat etadilar, Ajnabiylar menga shirinzabonlik etadilar. **46** Qal`alaridan tir-tir titrab chiqadilar, Holdan ketib, ajnabiy o`g`illari. **47** Xudovand barhayotdir, mening qoyamdir, Unga hamdu sanolar bo`lsin! Najotkor Xudoyim yuksalsin! **48** Tangrim mening o`chimni oladi, Xalqlarni menga tobe qiladi. **49** Dushmanlarimdan O`zing qutqarasan, G`animlarimdan ko`ra meni yuksaltirasan, Zo`ravonlar panjasidan xalos qilasan. **50** Shul sababdan, ey Xudovand, Millatlar ichra Seni madh qilaman, Ismingni tarannum etaman Sening. **51** Sen podshohingga ulug` najotlar ato qilarsan, O`z tanlaganing - Dovud va uning zurriyotiga Mangu inoyatlar baxsh etarsan.

Zabur 18

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Osmon Tangri ulug`vorligini e lon etar, Falak Uning yaratganlarini bayon etar. **3** Kun kunga suxan qilar, Tun tunga bilim qo`shar. **4** Na so`zlar bor, na biron kalom, Eshitilmas ularning tovushi. **5** Lek butun dunyoga yoyildi daragi, Yerning to`rt tarafiga yetdi xabari. Mana, quyosh uchun ham makon qurilgan! **6** U quyoshdirki, go`shangadan chiqqan kuyovday, Botirday quvonib, o`z yo`lida yelib ketar. **7** Uning chiqishi osmonning bir chetidandir, Davrasi esa ko`k yuzi chegarasiga qadardir. Hech na berkina bilmas uning taftidan. **8** Xudovand Qonuni mukammaldir, U jonga jon kiritadi. Xudovand vahiysi barqarordir, U sodda odamga donish beradi. **9** Xudovand farmoni rostdir, U ko`ngilni quvontiradi. Xudovand amri yorug`dir, ko`zni yoritadi. **10** Xudovanddan qo`rqmoqlik pok va boqiydir, Xudovandning bari hukmi haq va to`g`ridir. **11** Oltindan, musaffo zardan ham ko`ngilliroqdir, Asaldan, mumli bol tomchisidan ham shirinroqdir. **12** Mana, Sening quling ham ulardan ibrat olur, Ularga rioya etgan kishi buyuk mukofot topur. **13** Adashmaslikka kimning fahmi yetar? Yashirin xatolardan meni poklagin! **14** Qasdan qiladigan gunohlardan ham saqla bandangni, Ular menga hokim bo`lmasin! Shunda men beayb bo`lurman, Og`ir gunohdan ham xoli bo`lurman. **15** Ey Xudovand, og`zimdan chiqadigan so`zlar, Qalbimdan kechadigan andishalar Sening oldingda maqbul bo`lsin, Ey, mening suyanchim va Xaloskorim!

Zabur 19

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Og`ir kunda Xudovand seni eshitsin! Yoqub Xudosining ismi qo`rg`oning bo`lsin! **3** Muqaddas makonidan senga yordam yuborsin! Siondan senga madad yo`llasin! **4** Barcha xayr-ehsonlaringni qabul etsin! Kuydirgan qurbonlaringni yodda tutsin! SALOT **5** Senga ko`ngling tilaganicha bersin! Butun armonlaringni ro`yobga chiqarsin! **6** Biz sening g`alabalaringni kuylaymiz, Xudoyimiz nomi ila tug`larimizni ko`taramiz.

Xudovand barcha murodlaringni bajo keltirgay! **7** Endi aniq bildimki, Xudovand tanlagan podshohini qutqarar, O`zining muzaffar qo`lini uzatar, Najot yuborib osmoni shariflaridan. **8** Ba`zilar jang arobalari bilan maqtanar, Boshqalar otu otliq bilan gerdayar. Bizlar esa Rabbimiz nomi bilan, Xudovand ismi bilan faxrlanamiz. **9** Ular yiqilib tushdilar, Bizlar esa ko`tarilib tik turibmiz. **10** Ey Xudovand, podshohga zafar bergin! Seni chaqirgan kunimizda javob bergin!

Zabur 20

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, Sening qudrating ila podshoh sevinur, Yuborgan najoting-la u behad masrur bo`lur. **3** Ko`ngil armonini unga berding, U neki tilasa, rad etmading. SALOT **4** Sen ne`matu barakatlar bilan uni kuzatding, Boshiga sof oltindan toj kiygizding. **5** Sendan u hayot so`radi - unga berding, Uzoq umr hamda baqo bag`ishlading. **6** Sen baxsh etgan najot tufayli uning dong`i oshdi, Sharaf-shon va dabdabalarga sazovor qilding uni. **7** Ha, Sen uni abadiy muborak aylading, O`z huzuringdagi baxt-saodatga muyassar etding. **8** Podshoh Xudovandga umid bog`lagan, Haq Taoloning inoyati ila u tebranmas. **9** Sening o`ng qo`ling barcha yovlaringni topib oladi, Senga g`araz qiluvchilarni topib oladi qo`ling. **10** Ey Xudovand, Sen zuhur etdiging zamon, Ularni qizigan tandirga aylantirasan. Sen qahringni sochib barham berasan, Olov kuydirib ado etadi ularni. **11** Sen ularning naslini yer yuzidan supurib, Zurriyotini bani-inson orasidan quritasan. **12** Senga qarshi yomonlikni o`ylaganlar Qora niyatlariga erisha olmaslar. **13** Sen o`q-yoyingni shay qilib, Yuzlariga qarab o`q uzasan, Toki maqsadlari puchga ketsin. **14** Ey Xudovand, qudrating ila yuksalaver! Biz Sening botirligingni kuylaymiz, Senga hamdu sanolar o`qiymiz.

Zabur 21

IROCHILAR RAHBARIGA. «TONGDA CHIQQAN KIYIK»
KUYIGA. DOVUD SANOSI.

2 Tangrim! Tangrim! Nega meni tashlab qo`yding? Men nolayu fig`on chekyapman, Sen esa yiroqdasan, qutqarmayapsan. **3** Ey Xudoyim, Kunduzlari arz-dodimni qilyapman, Ammo Sen quloq solmayapsan; Kechalari ham menda tinim yo`q. **4** Biroq Sen - muqaddassan, Isroilning sanolari uzra saltanatlisan. **5** Ota-bobolarimiz Sendan umid qilardilar, Umid qilardilar-u, Sen ularni xalos etarding. **6** Senga faryod etardilar-u, qochib qutulardilar, Senga ishonib, sharmanda bo`lmasdilar. **7** Lekin men - inson emas, qurtman, Sharmandayi olamman, el aro yuzim qora. **8** Meni ko`rgan barcha mazax qiladi, Burnini jiyirib, bosh irg`atib deydilar: **9** «Xudovandga e`tiqod qildi, U xalos etsin! Xudovand undan rozi ekan, O`zi qutqarsin!» **10** Sensan-ku meni onam qornidan yorug` yuzaga chiqargan, Volidam ko`kragida tinch yotqizgansan meni. **11** Mavludimdan oq Senga nazr qilinganman, Onam qornidan chiqqanimdan buyon Sen mening Tangrimsan. **12** Endi mendan uzoqlashma, Qayg`u yaqin, madadkorim qolmadi. **13** Bir gala buqalar meni qurshab oldi, Zo`r Bashan buqalari menga yopirildi. **14** Ov qo`msab o`kirayotgan arslon kabi Ular menga og`izlarini katta ochdi. **15** Mening ichlarim sel bo`lib oqyapti, Butun suyaklarim bo`g`ini bo`shashguday bo`ldi, Yuragim tanimda mum kabi erib bitdi. **16** Darmonim sopol parchasidek qurib qaqshadi, Tilim tanglayimga yopishib qoldi. Sen meni o`lim xokiga topshirding-ku! **17** Mana, itlar meni qurshab oldi, Yovuzlar to`dasi meni o`rab oldi, Ular qo`llarim va oyoqlarimga ham sanchdi. **18** Suyaklarimni birma-bir sanay olaman, Ular menga tikilib baqraymoqdalar. **19** Kiyimlarimni o`zaro bo`lishib olib, Libosim uchun qur`a tashladilar. **20** Ey Xudovand, mendan uzoqlashma, Sensan majolim mening, yordamga shoshil! **21** Hayotimni dami tig`dan saqlagin, Itlar panjasidan qutqar jonimni! **22** Sher komidan meni tortib chiqargin, Yakkashox muguzlaridan asragin meni! **23** Sening ismingni birodarlarimga e`lon etgayman, Jamoat ichra Senga hamdu sanolar ayturman. **24** Ey siz, Xudovanddan qo`rqanlar, Unga hamdu sanolar o`qinglar! Uni siylanglar, ey Yoqubning barcha zurriyoti! Tavof

qilingiz, Isroilning jami avlodlari! **25** U ezilganning dardini kamsitmadi, Xor qilmadi, yuzini burmadi undan, Uning faryodiga quloq soldi. **26** Sengadir hamdu sanoyim ulug` jamoat ichra, Nazr-niyozimni bajo keltirgum xudotarslar ichra. **27** Bechorahollar bo`lsa, ular yeb to`yadilar, Xudovandni qidiruvchilar Unga sanolar o`qisin, Dilingizga jon kirsin, to abad! **28** Dunyoning to`rt burchida yashovchi insonlar Xudovandni yod etib, Unga qaytib kelajaklar, Bor elu elatlar Xudovandga sajda qilajaklar. **29** Xudovand - hokimi mutlaqdir, El-xalq ustidan U hukmfarmodir. **30** Bu dunyoda yeb-ichib to`ygan, O`ziga to`q bo`lgan barcha Unga sajda qilajak. O`z hayotini saqlayolmay, go`rga borgan barcha Uning oldida tiz cho`kajak. **31** Hozirgi zurriyot Unga xizmat qilajak, Keyingi naslga Rabbim haqida darak yetajak. **32** Tug`ilajak avlodga ham e lon qilib, Rabbimning ajoyibotini xabar qilajaklar.

Zabur 22

DOVUD SANOSI.

1 Xudovand - Cho`ponim mening, Men muhtojlik ko`rmayman aslo. **2** U meni yam-yashil yaylovlarda yotqizar, Orombaxsh suvlar bo`ylab yetaklab borar. **3** Jonimga U tetiklik kiritar, O`z nomi uchun meni to`g`ri yo`lga boshlar. **4** O`lim vodiysi zulmatida yursam ham, Dahshatlardan men qo`rqmayman. Chunki Sen menga hamrohdirsan, O`z hassangu xiviching menga tasalli berar. **5** Yovning ko`z o`ngida menga dasturxon tuzagansan, Xushbo`y moy ila moylagansan boshimni, Lim-lim to`ldirgansan kosamni. **6** Umrin bo`yi xayru inoyat izimdan yurar, Bor kunlarim Xudovandning uyida o`tar.

Zabur 23

DOVUD SANOSI.

1 Xudovandnikidir butun dunyoyu Uni to`ldirgan borliq, Yer yuziyu barcha unda yashovchilar. **2** U dengizlar uzra yerni bunyod etgan, Ummonlar uzra uni mahkam o`rnatgan. **3** Xudovandning tog`iga kim chiqib boradi? Uning muqaddas makonida kim tura oladi? **4** Kimki qo`li

halol, ko`ngli pok, Yolg`on-yashiq gapga ko`ngil bog`lamas, Makkorona qasamyod qilmas ekan, **5** U Xudovanddan barakat topar, Xaloskor Xudosidan najot topar. **6** Mana budir Xudovandni qidiruvchilar nasli; Ey, Yoqubning Xudosi, ana shundaydir Sening huzuringga intiluvchilar nasli! SALOT **7** Ey darvozalar, kengroq ochiling, Balandroq ko`tariling, mangu qopqalar; Toki ulug`vor Podshoh kirib kelsin. **8** Kimdir bu ulug`vor Podshoh? Qudratli va muzaffar Xudovanddir, Jangda zafar quchg`usi Xudovanddir U. **9** Ey darvozalar, kengroq ochiling, Balandroq ko`tariling, mangu qopqalar; Toki ulug`vor Podshoh kirib kelsin. **10** Kimdir bu ulug`vor Podshoh? Mana, Xudovand, Sarvari koinot, Udir ulug`vor Podshoh! SALOT

Zabur 24

DOVUD SANOSI.

1 Senga, ey Xudovand, dilimni yo`llayman. **2** Senga tavakkal qilaman, ey Xudoyim! Men sharmanda bo`lmayin, Dushmanlarim tantana qilmasin ustimdan! **3** Senga umid bog`lagan hech kim sharmanda bo`lmas; Sababsiz xoinlik qilganlar esa sharmandayu sharmisor bo`lsin. **4** Ey Xudovand, menga O`z yo`lingni ko`rsatgin, O`z yo`riqlaringni o`rgatgin menga. **5** Meni haqiqating yo`lidan boshlab, o`rgatgin, Chunki Najotkor Xudoyim O`zingsan, Kundan-kun umidim Senda. **6** Ey Xudovand, O`z marhamatingni, Azaliy inoyatlaringni eslab tur! **7** Yoshlik chog`ida qilgan gunohlarim Va jinoyatlarimni esga solma. O`z rahmingu muruvvatingni yodlab, Menga rahm aylagin, ey Xudovand! **8** Xudovand muruvvatli va adolatlidir, U gunohkorlarga yo`l-yo`riq ko`rsatur. **9** Bo`ysunganlarni to`g`ri yo`lga boshlar, Beozorlarga O`zi rahnamo bo`lar. **10** O`zining ahdu nizomin tutganlar uchun Xudovandning barcha yo`llari inoyat va haqiqatdir. **11** Ey Xudovand, O`z noming xotiri uchun gunohimdan o`tgil, Chunki ko`pdir mening gunohim. **12** Xudovanddan qo`rqqan odam kim? Tanlaydigan yo`lini unga O`zi ko`rsatar. **13** Jon-tani farog`atga erishar, Zurriyoti esa yerga ega bo`lar. **14** Xudovand O`z sirini xudotarslarga ochar, Undan qo`rqqanlarga ilohiy ahd nasib etar. **15** Ko`zlarim doim Xudovanddadir, Oyog`imni O`zi to`rdan tortib olar. **16** Menga nazar solib,

mehribonlik qilgin, Chunki men yolg`iz va tushkunman. **17** Yuragimda dard to`lib-toshgan, Balolarimdan meni qutqargin! **18** Tushkunligim va ezilganligimni ko`rgil, Barcha gunohlarimdan kechgil! **19** Dushmanlarimni ko`rgin, qanchalik ko`paygan ular! Ashaddiy nafrat sochib menga qasd qilmoqdalar. **20** Jonimni O`zing saqla, xalos qilgin meni! Sendan panoh topdim deb sharmanda bo`lmayin. **21** Soflik va to`g`rilik saqlasin meni, Chunki Senga umid bog`laganman. **22** Ey Xudo, Isroilni barcha dardlaridan qutqargin!

Zabur 25

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, yuzimni yorug` qilgin, Chunki men pokdil bo`lib yurdim; Xudovandga tayanib ikkilanmadim. **2** Ey Xudovand, Meni imtihon qil, sinab ko`rgin, Ko`nglim va yuragimni sinovdan o`tkazgin! **3** Sening inoyating ko`zim oldidadir, Men Sening haqiqating ila yurdim. **4** Yolg`onchi odamlar aro o`tirmasman, Yurmasman ham hiylagarlar birlan. **5** Badkirdorlar jamiyatidan nafratlanaman, Betavfiqlarga bo`lmasman hamsuhbat. **6** Halol qo`llarimni chaydim, ey Xudovand, Sening qurbongohingni aylanib chiqaman. **7** Senga shukronalar aytaman, Mo`jizalaringni bir-bir hikoya etib. **8** Ey Xudovand, Sening maskaningni, Jaloling o`rin olgan makonni sevaman. **9** Jonimni gunohkorlar joni bilan, Tanimni qonxo`rlar tani bilan bir sanab, barham bermagin! **10** Ularning-ku so`l qo`li fojirlik, O`ng qo`li poraga to`lib-toshgan. **11** Men bo`lsam, pokdil bo`lib yuraman; Xalos qilgin meni, ayamagil mehring! **12** Tekis maydonda turibdi oyog`im mening, Yig`inlarda Xudovandni olqishlagayman.

Zabur 26

DOVUD SANOSI.

1 Nurim va najotkorim Xudovanddir, Kimdan men qo`rqaman? Hayotim qo`rg`oni Xudovanddir, Kimdan xavotirlanaman? **2** Yovuzlar etimni g`ajimoq-chun hujum qilganda, O`zlari qoqilib qulaydi, o`sha ashaddiy

yovlarim. **3** Yuraginga dahshat tushmaydi, garchi Qarshimga jangga tizilsalar ham. Hatto hamla qilsalar ham, Komildir mening ishonchim. **4** Xudovanddan bir tilagim bor, Faqat o`shani izlayman: Xudovand uyida umrbod turayin, Xudovand jamolini tamosho qilayin, Uning ma`badini ziyorat qilib. **5** Og`ir kunda U meni himoyasiga olar, O`z makoni soyasida meni yashirar, Qoya ustiga meni yuksaltirib qo`yar. **6** Endi men bosh ko`tarib yuraman, Qurshab olgan yovlar ustidan g`alaba qilaman. Xudovand makoniga tantana ila kirib, Xursandlik ila qurbonlik keltiraman. Xudovandni kuylab vasf qilaman. **7** Ey Xudovand, Chaqirgan paytim ovozimni eshitgin, Mehribonlik qilib, menga javob bergin! **8** «Huzurimni qidiring» degan so`zingni Men dilimga tugib qo`ydim. Sening huzuringni qidiraman, ey Xudovand! **9** Mendan yuz o`girmagin, G`azab ila siltab tashlama qulingni! Sen mening panohim bo`lgansan-ku, Mendan voz kechma, tashlab ketma, Ey, mening najotkorim Xudovand! **10** Ota-onam meni tashlab ketsa-da, Xudovand meni qabul qilar. **11** Ey Xudovand, O`z yo`l-yo`rig`ingni menga o`rgatgin, Yovlarim sababli meni to`g`ri yo`lga boshla! **12** Ag`yorim ixtiyoriga topshirmagin meni! Mana, yolg`onchi shohidlar, Qahr-zo`g`im sochib turgan zo`ravonlar Menga qarshi hujum boshladi! **13** Menga qolsa, ishonchim komilki, Men tiriklar diyorida qolaman, Xudovandning barakatlarini ko`raman. **14** Xudovandga umid bog`la! Baquvvat bo`l, dadil bo`l, Xudovandga umid bog`la!

Zabur 27

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, mening suyangan qoyam! Seni chaqiraman, meni eshitmay qolmagin! Sen menga javob bermasang gar, Yer bag`riga tushganlarga o`xshab qolarman. **2** Men Senga yolvorib fig`on qilsam, Muqaddas makoning tomon qo`llarim cho`zsam, Munojotimga quloq solgin! **3** O`z qo`shnilari bilan do`stona gapirib, Dilida esa qora niyat saqlayotgan betavfiq, Yomon odamlar birla meni qirib tashlama! **4** Sen ularning qilmishiga yarasha, Kirdikorlari yomonligiga yarasha, Qo`llari bulg`angan qabihliklariga yarasha jazo ber! **5** Ular-ku Xudovandning faoliyatiga, Uning bajargan ajoyib ishlariga beparvo qaraydi. Xudovand

ularni xonavayron qiladiyu, Tag`in hech barpo etmas. **6** Xudovand hamdu sanoga munosibdir, U mening tavallolarimni eshitdi. **7** Xudovand mening qudratim va qalqonimdir. Men chin yurakdan Unga umid bog`ladim, U menga yordam berganda, dilim quvonchga to`ldi; Qo`shig`im bilan Unga shukrlar deyman. **8** Xudovand O`z xalqining qudratidir, Tanlagan podshohiga najotkoru qo`rg`ondir. **9** O`z xalqingga O`zing najot bergin, O`z mulkingni muborak aylagin! Ularni abadiy yuksaltirib borgan!

Zabur 28

DOVUD SANOSI.

1 Ey Tangri o`g`illari, Xudovandga tan bering! Xudovandning shavkati va qudratiga tan bering! **2** Xudovandning ismi sharafiga tan bering! Muqaddas ko`rkda Xudovandga sajda qiling! **3** Xudovandning ovozi suvlar uzradir, Ulug`vor Tangri gulduros tovush chiqarur, Azim suvlar ustidadir Xudovand. **4** Xudovandning ovozi kuchlidir, Xudovandning ovozi mahobatlidir. **5** Xudovandning ovozi kedr daraxtini qulatar, Lubnon kedrlarini yorib tashlar Xudovand. **6** U ularni buzoqdayin o`ynatar, Lubnon va Sirio`n tog`ini buqadek choptirar. **7** Xudovandning ovozi o`t alangasini yorib yuborar. **8** Xudovandning ovozi cho`lni titratar, Qadesh cho`lni larzaga solar Xudovand. **9** Xudovandning ovozi bug`ularni tug`dirar, O`rmonlarni yalang`ochlab yuborar. Ma badida esa hammasi Uning ulug`vorligini kuylar. **10** To`fon bo`lganda Xudovand taxtida o`tirar edi, Xudovand mangu Podshoh bo`lib taxtiga o`tirgan. **11** Xudovand O`z xalqiga kuch-qudrat ato etar, Xudovand O`z xalqiga barakayu osoyish baxsh etar.

Zabur 29

DOVUDNING UYMUBORAK MADHIYASI.

2 Seni ulug`layman, ey Xudovand, Sen meni chuqurlikdan chiqarib olding, Yovlarimning tantana qilishiga yo`l qo`ymading. **3** Ey Xudoyim, Senga faryod qildim, Ey Xudovandim, menga shifo berding. **4** Jonimni o`liklar diyoridan qaytarding, yo Rab, Qabrga kirmasligim uchun menga

hayot bag`ishlading. **5** Xudovandni tarannum eting, ey, Uning muxlislari! Uning muqaddasligi sharafiga shukrlar qiling! **6** Chunki Uning g`azabi - bir lahzalik, Lutfu karami esa umrboddir. Oqshomda yig`i hukm sursa, Saharda shodiyona kelur. **7** Men esam o`zimga amin bo`lib, To abad tebranmasman, degan edim. **8** Ey Xudovand, muruvvat etgan chog`ingda Meni qudratli toqqa aylantirding; Biroq mendan yuz o`girganingda, Men sarosimaga tushdim. **9** Senga, ey Xudovand, iltijo qildim, Men o`z Rabbimga yalinib-yolvordim: **10** Men o`lib go`rga kirsam, Hayotimdan ne foyda? Tuproq Senga shukrona aytarmikan, Haqiqatingni yuqori ko`tararmikan? **11** Quloq bergin, ey Xudovand, Menga mehribonlik qilgin! Yo Rab, O`zing menga madadkor bo`lgin! **12** Sen motamimni raqsga aylantirding, Qora kiyimimdan forig` qilding, Baxt-sevinch libosini kiygizding. **13** Yo Xudoyo Xudovando! Senga tinimsiz sanolar o`qisa arziydi, Men Senga abadiy shukrlar aytaman.

Zabur 30

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, Seni panohim deb bilaman, Abadiy sharmanda bo`lmayin! O`z adolating haqi meni qutqargin! **3** Menga quloq sol, tezroq xalos qilgin! Men uchun suyanadigan tog`, Najot topadigan qal`a bo`lgin! **4** Mening qoyam va qo`rg`onim Sen ekansan, O`z isming sha`ni uchun meni yetaklab, Menga rahnamo bo`lgil! **5** Men uchun yashirishgan to`rdan chiqarib qo`y, Chunon Seni panohim deb bildim. **6** Ruhim Sening qo`lingda omonatdir. Sen menga erkinlik berasan, Ey Xudovand, ey Haq Taolo! **7** Bema`ni butga sig`inuvchilardan nafratlanib, Men faqat Xudovandga umid bog`layman. **8** Sening inoyating uchun men shod-xurramman, Sen bechorahol bo`lganimni ko`rding, Jonim azob-uqubatda qolganini bilding. **9** Dushman qo`liga meni topshirmading, Oyoqlarimni keng yerlarga qo`yding. **10** Ey Xudovand, menga rahm-shafqat ko`rsat, Yuragimga qil sig`may bo`lib qoldi. Qayg`udan ko`zim xiralashdi, Botinim, jon-tanim ado bo`ldi. **11** Mana, hayotim g`am-g`ussada, Umrin oh-zor bilan o`tib ketdi. Gunohlarim uchun iligim qurib, suyaklarim qaqshadi. **12** Barcha raqiblarim nazarida uyatga qoldim, Qo`ni-qo`shni va

tanishlarimga olabo`ji bo`ldim. Ko`chada ko`rgan barcha mendan qochyaptilar. **13** O`lik kabi esdan chiqarildim, unutildim, Parchalangan sopolga o`xshab qoldim. **14** Ko`plarning haqoratini eshityapman, Mana, hamma yoqda vahimalar! Menga qarshi til biriktiryaptilar, Jonimni olmoqchun suiqasd qilmoqdalar. **15** Men-chi Senga e`tiqod qilaman, ey Xudovand, Sensan mening Xudoyim, deyman. **16** Har bir kunim Sening qo`lingdadir. Dushmanlarim va ezuvchilarim qo`lidan Meni xalos qilgin! **17** Munavvar yuzingni qulingdan darig` tutma, Inoyating bilan meni xalos etgin! **18** Ey Xudovand, Senga tavakkal qildim deb uyatga qolmayin. Betavfiqlar esa sharmanda-sharmisor bo`lsin, O`liklar diyoriga tushib jimjit bo`lib qolsin. **19** Yolg`onchilar tili lol bo`lsin! Ular uyalmasdan solihni haqorat qilib, Katta gapirib gerdayib yuribdilar. **20** Sen O`zingdan qo`rqqanlar uchun yashirgan, El ko`zida Seni panoh bilganlar uchun yaratgan Ehsonlar xazinasi qanchalik ajoyibdir! **21** O`z huzuringda panoh topganlarni Sen inson fitnasidan saqlarsan, O`z soyangda yashirarsan yolg`on chaqiqlardan. **22** Xudovandga shon-sharaflar bo`lsin! U mustahkam shaharda menga ajoyib inoyatini ko`rsatdi. **23** Ko`zingdan judo bo`ldim, dedim men esankirab. Illo Senga faryod qilib o`tinganimda, Sen munojotimga quloq berding. **24** Xudovandni sevingiz, Uning barcha azizlari! Xudovand sodiqlarni O`z panohida asraydi, Takabburlardan esa darig` tutmaydi tegishli chorasini. **25** Ey, barcha Xudovandga tavakkal qiluvchilar, Baquvvat va dadil bo`lingiz!

Zabur 31

DOVUD QASIDASI.

1 Qanday baxtli gunohi o`tilgan, Qonunsiz ishlari afv bo`lgan odam! **2** Qanday saodatli unday kishi-kim, Xudovand inobatga olmas aybin, Ko`nglida esa biron makr yo`q. **3** Men gunohimni sir saqlaganim sayin, Suyaklarimgacha hurkirab, nolib o`tirdim. **4** Kechayu kunduz Sening qo`ling ustimda og`irlashdi, Yozning saratonidagi mevadek qurib qoldim, Tinka-madorim butunlay ado bo`ldi. SALOT **5** Sening oldingda gunohimga iqror bo`ldim, Yashirmadim hech bir aybimni. Yoziqlarimni bo`ynimga olaman, - dedim Senga, ey Xudovand. Sen esa gunohu aybimni

kechirding. SALOT **6** Shul sababdan har bir xudojo`y Ijobat chog`ida Senga sig`insin, Toki azim suvlar toshqini unga yetmasin. **7** Sensan mening panogohim, Tangligimdan O`zing xalos etarsan, Ozodlik kuylarila meni ko`mib tashlarsan. SALOT **8** «Men senga aql o`rgatarman, Yurar yo`lingni ko`rsatarman. Ko`zim sening ustingda bo`lib, Senga rahnamolik qilarman. **9** Ongsiz ot yoki xachir kabi bo`lmanglar! Ularni tutib yurish uchun yugan va suvluq taqmasang, Ular senga sira bo`ysunmas». **10** Fosiqning dardlari ko`p bo`lur. Vale Xudovandga umid bog`laganga Ilohiy lutf-karam doim yor bo`lur. **11** Xudovanddan quvoning, ey solihlar, Xurram bo`ling, tarannum eting, Ey barcha ko`ngli to`g`rilar!

Zabur 32

Yaratgan, Asraganga hamdu sanolar

1 Ey solihlar, Xudovandni kuylangiz! Dili to`g`rilarga hamdu sano yarashar. **2** G`ijjak chalib, Xudovandga shukr qiling, O`n torli chang bilan Uni tarannum eting! **3** Unga yangi bir qo`shiq kuylang, Go`zal ohang chalib, xitob qiling! **4** Zero Xudovandning kalomi - haqiqatdir, Uning barcha ishlari vafodorligidan dalolatdir. **5** Solihlik va adolatni Xudovand sevar, Uning inoyati ila dunyo to`lgandir. **6** Ko`k Xudovand kalomi bilan bunyod bo`lgan, Barcha osmon lashkari Uning amri ila yaralgan. **7** Dengiz suvlarini uyumday uyib qo`ygan, Ummonni O`z omboriga joylab saqlagan. **8** Xudovanddan butun yer yuzi qo`rqsin, Barcha ahli jahon Undan qaltirasin. **9** Zero U so`zladi, xuddi aytganiday bo`ldi; U amr berdi, amri vojib bo`ldi. **10** Xudovand majusiylar niyatini buzadi, Xalqlar murod-maqsadini puchga chiqaradi. **11** Xudovandning niyati esa boqiy turadi, Nasldan-naslga joriy bo`ladi Uning dil murodi. **12** Xudovandni Tangrimiz deb bilgan xalq baxtli! Xudovand O`z mulkim deb saylagan el iqbolli! **13** Xudovand osmondan boqar, Barcha inson o`g`illarini ko`rib turar. **14** Taxti makonidan kuzatib turib, Butun jahonni tekshirib ko`rar. **15** U jami insonning yuragini yaratgan, Inson qilmishlariga ham anglab yetar. **16** Askarlari ko`pligi bilan podshoh qutulmas, Quvvati ko`pligi uchun jangchi zafar topmas. **17** Ot jangchining boshini omon saqlayolishi yolg`ondir, Katta kuchi bilan ham uni qutqara bilmas. **18** Mana,

Xudovandning ko`zi Undan qo`rqqanlarda, Uning inoyatiga umid qilganlardadir. **19** U ularning jonini o`limdan qutqazar, Ochlik paytida ularning diliga quvvat kiritar. **20** Jonimiz Xudovandga muntazir, Yordamchimiz, qalqonimiz O`zidir. **21** Qalbimiz U bilan shod bo`lur, Uning muqaddas nomi bizning tayanchimizdir. **22** Ey Xudovand, biz Senga umid bog`laganmiz, Yana inoyating bizga yor bo`lsin!

Zabur 33

ABUMALIK OLDIDA O`ZINI AQLSIZLIKKA SOLIB, UNING HUZURIDAN QUVILIB QOCHGAN PAYTDA DOVUDNING AYTGAN QO`SHIG`I.

2 Har lahzada Xudovandni olqishlayman, Uning sanosi tushmas hech tilimdan. **3** Jonim Xudovand bilan faxrlanur, Beozorlar buni eshitib sevinur. **4** Men bilan birga Xudovandni ulug`lang, Keling, birga Uning ismini sharaflaylik! **5** Xudovandga murojaat qilganimda, U menga quloq soldi-yu, Barcha dahshatlarimdan qutqardi. **6** Unga boqqanlar ziyo oldilar, Ularning aslo yuzi shuvut bo`lmas. **7** Bu faqir chaqirganda, Xudovand eshitdi, Barcha dardlaridan uni xalos qildi. **8** Xudovandning farishtasi mo`minlar atrofida qarorgoh qurgan, Undan qo`rqqanlarni O`zi xalos etar. **9** Xudovanddan lazzat olib ko`ring-chi, U qanchalik muruvvatli ekan! Baxtli Undan panohtopgan odam! **10** Xudovanddan qo`rqing, ey Uning azizlari! Undan qo`rqqan kishi muhtojlik ko`rmas. **11** Arslonlar och va muhtoj bo`lur, Xudojo`ylar rizq-nasibasi esa but bo`lur. **12** Ey o`g`illarim, keling, meni tinglang! Xudovanddan qo`rqishni sizlarga o`rgatay. **13** Hayot yaxshi, umrim uzoq bo`lsin, Yaxshi kunlar ko`ray, degan odam kim? **14** U tilini yomon so`zdan tiysin, Og`zini egri gapdan saqlasin. **15** Yomonlikdan qochib yaxshilik qilgin, Tinchlikni qidirib uning payidan bo`lgin. **16** Xudovandning ko`zlari solihlardadir, Solihlar fig`oniga U quloq solar. **17** Badkirdorlardan esa U yuz o`girar, Yer yuzidan yo`q qilar ularning xotirasin. **18** Solihlar faryod etgach, Xudovand eshitar, Barcha dardlaridan ularni xalos etar. **19** Xudovand dili vayronlarga yaqindir, Ruhi tushkunlarni O`zi qutqarar. **20** Solihning dardlari ko`p bo`lar, Biroq Xudovand uni barchasidan xalos etar. **21** Suyaklarining hech biri sinmasin

deya, Ularning barchasini o`z o`rnida tutar. **22** Yovuz odam yovuzlarcha o`lib ketar, Solihga dushmanlik qiluvchilar aybdor bo`lar. **23** Qullarining jon to`lovini Xudovand berar, Undan panoh so`ragan hech kim aybdor bo`lmas.

Zabur 34

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, Men bilan talashayotganlar bilan O`zing talashgin! Men bilan jang qilayotganlar-la O`zing jang qilgin! **2** Sovut va qalqonni olib, menga yordamga kelgin! **3** Nayzangni yalang`ochlab chiqqin, Meni quvayotganlarning yo`lini to`sgin! Jonimga: «Sening najoting Menman!» - degin. **4** Jonimga qasd qilganlar sharmandayu sharmisor bo`lsin, Menga yomonlikni o`ylayotganlar orqaga qaytsin, Yuzlari shuvut bo`lsin. **5** Shamolda uchib ketgan to`zon kabi, Xudovandning farishtasi ularni supurib tashlasin. **6** Ularning yo`li qorong`i va toyg`anchoq bo`lsin, Xudovandning farishtasi ularni haydab yuborsin. **7** Ular-ku men uchun sababsiz dom tayyorlashdi, Sababsiz jonimga qasd qilib, choh qazishdi. **8** Tasodifan ularning boshiga halokat tushsin, Yashirgan to`rlariga o`zlari tushib mahv bo`lsin! **9** Mening jonim Xudovanddan masrur bo`lur, U bergan najotdan ko`nglim quvonur. **10** Hatto suyaklarim ham tilga kirur: Ey Xudovand, ezilganni quvvatlidan, Bechora-faqirni talonchidan qutqaruvchi Sendan bo`lak kim ham bor ekan? **11** Qora niyatli shohidlar bosh ko`tarib, Bilmaydiganlarim haqida so`roq qiladilar. **12** Yaxshilik evaziga yomonlik ko`rsatib, Jonimni hijronda qoldirmoqdalar. **13** Men bo`lsam, ular og`riganda jon kuydirar, Juldurga burkanib ro`za tutar edim, Ammo mening duom o`z bag`ringa qaytar edi. **14** Xuddi u mening do`stim, Qardoshim bo`lganday munosabatda bo`lar edim, Onasi uchun aza tutgandek mungli yurar, G`am-g`ussa bilan yig`lar edim. **15** Lek men qoqilganimda ular sevinib to`plandi, Urushqoq odamlar boshimga to`planib, To`xtovsiz menga azob berishar edi, Negadir - men bilmayman. **16** Yuzlarini burishtirib uyalmay masxara qilar, Menga tishlarini qayrar edilar. **17** Yo Rabbii, qachongacha qarab turasan? Jonimga ular berayotgan uqubatdan qutqar, Hayotimni shu yirtqichlardan xalos qil! **18**

Ulug` jamoat ichra Senga shukrlar deyman, Behisob el aro Senga hamd lar aytaman. **19** Nohaq menga xusumat etganlar tantana qilmasin, Sababsiz nafrat etganlar bir-biriga ko`z o`ynatmasin. **20** Ular tinchlikni og`ziga ham olmaydilar, Mamlakatda tinch yashayotganlarga qarshi fitna uyushtiradilar. **21** Menga og`izlarini katta ochib: «Eha, ehe, ko`zimiz bilan ko`rdik!» - deyaptilar. **22** Ey Xudovand, Sen buni ko`rding-ku, Indamay o`tirmagin! Yo Rabbiy, mendan uzoqlashib ketma! **23** Harakatga kel, g`ayratga kel, Mening da`vomni inobatga olgin, Yuzimni yorug` qilgin, yo Rabbim, yo Xudoyim! **24** Ey mening Rabbim va Tangrim, Menga adolatli hukm chiqargin, Ular ustimdan tantana qilmasin! **25** «Eha, tilagimiz bajo bo`ldi!» - deb Ko`ngillaridan kechirmasinlar, «Uni yutib yubordik!» - demasinlar. **26** Baxtsizligimdan sevinganlar bari uyalsin, Ularning yuzi qora bo`lsin! Menga qarshi bosh ko`targanlar qora kiysin, Sharmandayu sharmisor bo`lishsin! **27** Meni oqlovchilar esa sevinib tarannum etsin, Ular doimo: «Xudovand yuksalaversin! U O`z quliga xotirjamlik tilagan», - desinlar. **28** Men esa Sening adolatingni tildan qo`ymay, Kun bo`yi Seni maqtab hikoya qilarman.

Zabur 35

IJROCHILAR RAHBARIGA. XUDOVAND QULI DOVUDNING SANOSI.

2 Qonunsizning fisq-fasodi dilimga g`ulu soladi, Uning ko`z o`ngida Xudodan qo`rqish degan narsa yo`q. **3** U maqtanib yurib, o`zini o`zi aldaydi, Yomonligi fosh bo`lganda esa nadomat qilmaydi. **4** Og`zidan chiqqan so`zlar egriligu makkorlikdir, Fahm-farosatdan, xayrli ishdan u bosh tortgan. **5** Yotganida ham yovuzlikni xayol qilib, Fisq-fasod so`qmog`iga qadam tashlab, Nopok niyatidan yuz o`girmaydi. **6** Ey Xudovand, Sening inoyating ko`klargacha, Sodiqliging bulutlarga qadardir. **7** Adolating Tangri tog`lariday yuksakdir, Hukmlaring esa - tubsiz ummon. Insonu hayvonni O`zing qutqarasan, ey Xudovand! **8** Yo Xudo, inoyating qanchalik bebaho! Qanotlaring soyasida odam o`g`illari osoyish topar. **9** Ular uying noz-ne`matlaridan to`yadilar, Lazzat daryolaringdan qondirarsan ularni. **10** Zotan, hayot manbayi Sendadir,

Sening nuringdan biz ziyo olamiz. **11** Seni bilganlardan inoyatingni ayamagil, Rahmatingni darig` tutma yuragi soflardan! **12** Takaburning oyog`i menga yetmasin, Fosiqning qo`li meni ovora qilmasin. **13** Mana, badkirdorlar bexosdan ag`darilib, yiqilib tushdi, Ular tag`in qad ko`tara bilmas.

Zabur 36

DOVUD SANOSI.

1 Yomon odamlarga g`ashlik qilma, Badkirdorlarga havas qilma! **2** Chunki ular o`t kabi tezda qurib, Yashil sabzaday so`lib ketadilar. **3** Xudovandga umidvor bo`lib yaxshilik qilgin, Yer yuzida yashab, e`tiqodni saqlagin. **4** Xudovanddan lazzat olgin, U seni ko`ngil armonlaringga yetkazadi. **5** Yo`llaringni Xudovandga topshir, Undan umid qil, U bajo keltiradi. **6** U sening haqligingni nurday porlatar, Kun yorug`ligiday yorug` qilar yuzingni. **7** Xudovand huzurida tinch tur, Unga umidvoru muntazir bo`lgil. Yo`li ochilgan firibgarga g`ashlik qilma. **8** Qahrdan chekinib, g`azabdan o`zingni tutgil, Hayajonlanib yovuzlik qilishga moyil bo`lma. **9** Yomonlik qiluvchilar bari qirib tashlanur, Xudovandga umidvorlar esa yer yuziga ega bo`lur. **10** Yana birozdan keyin fosiq yo`q bo`lur, Uning joyini ko`rasan-u, Ammo o`zi yo`qolib ketgan bo`lur. **11** Bezorlar esa yer yuziga ega bo`lajak, Ular tinch-osoyishtalikda huzur qilajak. **12** Fosiq solihga yomonlik tilab, Unga qarshi tishlarini qayraydi. **13** Fosiqning kuni bitay deb turibdi-ku, Egam buni ko`rib, unga mazax qiladi. **14** Bechora va faqirni yerga urmoq, To`g`ri yo`ldan yuruvchilarni bo`g`izlamoq-chun Fosiqlar qilich charxlab, yoylarini tortadilar. **15** Ularning tig`i qaytib, o`z yuragiga sanchilgay, Yoylari esa sinib chilparchin bo`lgay. **16** Solihning qo`lidagi oz narsasi Barcha fosiqlar mo`lchiligidan afzaldir. **17** Fosiqning-ku qo`llari sinib ketgusi, Solihlarga esa Xudovand madad bergusi. **18** Xudovand sofdillar kunlarini belgilab, Ularning nasibasini mangulikka beradi. **19** Ofat zamonida ham ular sharmanda bo`lmas, Qahatchilik kunlarida ham yeb to`yadilar. **20** Ammo fosiqlar esa-chi, halok bo`lajaklar, Xudovand dushmanlari qo`ylar podasidek to`zib ketajak, Tutunga aylanib yo`qolib ketajaklar. **21** Fosiq

qarz olib uni to`lamaydi, Solih esa muruvvatu saxovat ko`rsatadi. **22** Xudovand olqaganlar yer yuzini egallab olur, U qarg`aganlar esa barham topurlar. **23** Kishi qadamlarini Xudovand to`g`rilar, U rozi bo`lgan kishining yo`lini ochar. **24** U kishi munkiganda ham yuz tuban yiqilmas, Chunki uning qo`lidan Xudovand ushlab turar. **25** Men yosh ham edim, qarib ham qoldim, Ammo solihning tashlab ketilganini, Yoki uning zurriyoti nonga zor bo`lganini ko`rmadim. **26** Kundan-kun u muruvvat ko`rsatib, Mardunga qarz berar, Zurriyoti esa muborak bo`lar. **27** Yomonlikdan bosh tortib, yaxshilik qilgin, Shunda mangu yashaysan. **28** Chunki Xudovand adolatni sevar, O`z azizlarini tashlab ketmas. Ular abadiy saqlanar, Fosiqlar tomiri esa qurib qolar. **29** Solihlar yer yuziga ega bo`lib, Unda mangu yashaydilar. **30** Solihning irni hikmatni so`zlar, Tili esa to`g`rilikni bayon etar. **31** Xudosi Qonuni diliga bo`lgan jo, Adashmas uning qadami aslo. **32** Fosiq kishilar solihni kuzatib, Uni o`ldirmoq uchun poylaydilar. **33** Xudovand ular qo`liga solihni topshirmas, Hukm paytida uni ayblashga yo`l qo`ymas. **34** Xudovandga ko`z tutib, U ko`rsatgan yo`lda yur, Yer yuziga ega bo`lishing uchun seni U yuksaltirur. Fosiqlar nobud bo`lganda sen buni ko`rursan. **35** Yovuz va zolim bir odamning ildiz otib, Yashil daraxt kabi unib yashnaganini ko`rdim. **36** Biroq u o`tdi, bitdi, yo`q bo`ldi, Uni qidirsam ham, topa olmadim. **37** Sofdilga nigoh tashla, to`g`ri odamni kuzat! Bunday kishining istiqboli osoyishtalikdir. **38** Ammo qonunsizlar bari nobud bo`lur, Fosiqlar nasli oqibatda qirib tashlanur. **39** Solihlar omonligi Xudovanddan kelur, Kulfat chog`ida O`zi ularga qal á bo`lur. **40** Xudovand ularga madadu najot yuborur, Fosiqlar qo`lidan ularni xalos etur, Mendan panoh so`radi, deb ularni qutqarur.

Zabur 37

DOVUDNING ESDALIGI.

2 Ey Xudovand, G`azabing ila ta`zirimni berma, Qahring kelib menga jazo berma! **3** Sening o`qlaring menga sanchildi, Qo`ling ustimga og`ir bosib tushdi. **4** G`azabingdan badanimda sog` joy qolmadi, Gunohim tufayli ustuxonimda rohat yo`q. **5** Mening yomonliklarim boshimdan oshdi, Og`ir yuk kabi ustimga bosdi, Endi ko`tara olmayman. **6** O`zimning aqlsizligim

tufayli Yaralarim yiringlab sasimoqda. **7** G`oyat bukchayib, cho`kib qoldim, Kun bo`yi g`amgin yuraman. **8** Ha, belim o`tday yonmoqda, Badanimda sog` joy qolmadi. **9** Majolim qolmadi, g`oyat ezildim, Yuragim alamidan dodlab yuraman. **10** Yo Rabbiy! Butun tilagim Senga ravshandir, Nolayu fig`onim Sendan pinhon emas. **11** Yuragim bezovta, quvvatim ado bo`ldi, Ko`zlarim nuridan ham mahrum bo`ldim. **12** Meni sevadigan do`stlaru mahbublarim Jarohatimdan jirkanib uzoqlashib ketdi, Xesh-aqrabo uzoqdan ko`z olaytirmoqdalar. **13** Jonimga qasd qilganlar tuzoq qo`ymoqda, Yovuzlik payidan bo`lganlar menga balo-qazodan so`zlab, Kun bo`yi hiylayu nayrang to`qimoqdalar. **14** Men esa eshitmaydigan kar kabiman, Og`zini ocha olmaydigan soqovga o`xshayman. **15** Ha, og`zidan gap chiqmaydigan, Eshitmaydigan odam bo`lib qoldim. **16** Ey Xudovand, umidim Sendandir, Yo Rabbim, ey Tangrim, Sen tinglaysan-ku! **17** Dushmanlarim tantana qilmasin, deyman, Oyog`im qoqilsa, dimog`i ko`tarilmasin. **18** Mana, men yiqilish arafasidaman, G`am-alam menga doim hamroh. **19** Men gunohimni bo`ynimga oldim, O`z aybim uchun qayg`urmoqdaman. **20** Lekin dushmanlarim bardam va kuchlidir, Mendan nohaq nafratlanganlar ko`payib ketgan. **21** Yaxshilikka javoban menga yomonlik qiladilar, Ezgu niyatim evaziga adovat saqlaydilar. **22** Ey Xudovand, meni tashlab qo`ymagin, Ey Xudoyim, mendan uzoqlashmagin! **23** Menga madad bermoq uchun shoshilgin, Yo Rabbiy, ey mening Xaloskorim!

Zabur 38

IROCHILAR RAHBARIGA. YEDUTUNGA BAG`ISHLANGAN DOVUD SANOSI.

2 Men yurar yo`limga ehtiyot bo`layin, Aytar so`zim ila gunoh qilib qo`ymayin, Fosiq qarshimda ekan, og`iz ochmayin, dedim. **3** Tilimni tiyib, sukut etdim, Har qanday yaxshi gapni ham og`zimga olmay, jim bo`ldim. Shunda dardim ortib bordi, **4** Vujudimda yuragim haroratlandi, Xayolimdan ko`nglim o`rtandi, Nihoyat men tilga keldim: **5** Aytgil, Xudovand, umrim qazosin, Kunlarim sanog`i necha erkan, Nechog`lik foniyy ekanman, bilayin! **6** Ha, Sen kunlarimni qarichlab bergansan,

Umrim Sening oldingda hech narsaday, Har qanday badastir inson umri ham faqat ovoragarchilikdir. SALOT **7** Har bir odam yuradigan ko`lankaga o`xshaydi, Inson g`avg`olarining hammasi - ovoragarchilik. Mol to`playdi, biroq kimga qolishini bilmaydi. **8** Endi, yo Rabbim, men nimani kutay? Sendandir mening barcha umidim! **9** Butun qonunsizligimdan o`tib forig` qilgin, Razillar razolatiga duchor etmagin meni! **10** Indamadim, og`zimni ochmadim, Chunki Sening ishingdir bu. **11** Zarblaringni mendan chetlatgin, Qo`ling balosidan men tamom bo`ldim. **12** Sen insonni jinoyati uchun fosh etib, Jazosini beradigan bo`lsang gar, Uning bor husni, kuya yemirgandek, kukunga aylanar. Ha, har bir inson umri ovoragarchilikdir. SALOT **13** Ibodatimni eshitgin, ey Xudovand, Quloq solgin dod-faryodimga! Ko`z yoshlarimni nazarga ilmay qo`yma! Mana, Sening oldingda men bir g`aribman, Barcha bobolarim kabi bir musofirman. **14** G`azabingni mendan qaytargin, Olamdan o`tib yo`qolishimdan oldin Men bir taskin topayin!

Zabur 39

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Men Xudovandga qattiq umid bog`ladim, U menga egilib, faryodimni eshitdi. **3** U meni dahshatli zovurdan, Loyli botqoqdan chiqarib oldi. Oyoqlarimni qoyaga bostirib, Qadamlarimni mustahkamlab qo`ydi. **4** U og`zimga yangi bir qo`shiq, Xudoyimiz uchun tasanno soldi. Ko`plar buni ko`rib va qo`rqib, Xudovandga umid bog`laydilar. **5** Xudovandga umid bog`laydigan, Mag`rurlarga esa yalinmaydigan, Kazzoblar bilan yurmaydigan odam baxtli! **6** Yo Rabbim, Xudoyo Xudovando, Sen ko`p ajoyibotlar ko`rsatding, Mo`jizakor maqsadlaring biz uchundir; Bunda Sening tenging yo`q. Ajoyibotlaringni bayon etib og`iz ochsam, Ularning son-sanog`i yo`q. **7** Qurbonlik va bag`ishlovdan Sen rozi bo`lmading, - Quloqlarimni ochib yubording ? Gunoh uchun yoqiladigan qurbonlikni, Baxshidani talab qilmading. **8** O`shanda men dedim: Sening huzuringga keldim, O`rog`liq bitikda men haqda bitilgan. **9** Xohishingni bajarmoq istayman, ey Xudoyim, Sening Qonuning yuragimda mening. **10** Ulug` jamoat ichra haqqoniyatni e`lon etdim, Aslo iringa qatag`on qilmadim;

Ey Xudovand, Sen bilasan! **11** Sening haqligingni yuragimda yashirmadim, Sadoqat va najotkorligingni bayon etdim, Inoyatu haqiqatingni esa sir saqlamadim ulug` jamoatdan. **12** Ey Xudovand, Darig` tutma mendan himmatlaring, Inoyatu haqiqating meni doim saqlasin! **13** Men sanoqsiz ofatlarga duchor bo`ldim, O`z gunohlarim meni quvib, boshimga yetdi, Qarashga ham botinolmayman. Ular boshimdagi sochlardan ham ko`p, Yuragim meni tark etdi. **14** Ey Xudovand, meni ozod etmoqqa rozi bo`lgin, Menga yordam berishga shoshilgin, ey Xudovand! **15** Jonim payiga tushganlarning hammasi Sharmanda bo`lsin, yuzi shuvut bo`lsin! Menga yomon niyatlarni istaganlar Orqaga qaytib kalaka bo`lsinlar! **16** Menga: «Ehe, Eha!» - deganlar Sharmisorlikdan esankirab qolsinlar! **17** Barcha Seni qidiruvchilar esa Sendan shod bo`lib sevinsinlar. Sening najotlaringni sevganlar: «Xudovand ulug`!» - desinlar mudom. **18** Men bo`lsam - bechorayu faqirman, Vale Rabbim yeydi mening g`amimni, Udir madadkoru xaloskorim mening. Kechikmagin, ey Xudoyim!

Zabur 40

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Bechoraga joni kuygan kishi baxtlidir, Ofat kunida Xudovand uni qutqarar. **3** Xudovand uni asrab, hayot bag`ishlar, O`zi mamlakatda baxtli bo`lar. Sen uni dushman ixtiyoriga topshirmaysan, ey Xudovand. **4** U og`rib yotganida uni mustahkamlaysan, Xastalik to`shagini O`zing ag`darib yuborasan! **5** Men Xudovandga dedim: Menga mehribonlik qilgin, Dardimga davo bergin; Men Senga qarshi gunoh qildim. **6** Dushmanlarim meni g`iybat qiladilar, «Qachon o`lib, uning nomi yo`q bo`larkan-» - deydilar. **7** Ular meni ko`rmoqqa kelsa gar, Yolg`on so`zlab, ko`nglida yomonlik to`qiydilar, Tashqariga chiqar-chiqmas, lof uradilar. **8** Mendan nafratlanuvchilar o`zaro pichirlashib, Menga qarshi yomon niyat qiladilar. **9** «Balo-qazo yopishibdi unga, - deydilar, ? Bir yotgandan keyin joyidan turmas!» **10** Hatto mening non-tuzimni totgan, Men suyangan, men bilan totuv bo`lgan do`stim Menga qarshi tovonini ko`tardi! **11** Ammo Sen, ey Xudovand, Menga mehribonlik qilib, oyoqqa turg`az, Toki

ulardan qasos olayin! **12** Mendan rozi ekaningni shundan bilaman: Dushmanim mendan aslo ustun chiqa olmaydi. **13** Sofdilligim tufayli menga madadkorsan, Yuzing o`ngida abadiy turg`azib saqlaysan. **14** Isroilning Tangrisi - Xudovandga Abadulabad shon-sharaflar bo`lsin! Omin! Omin!

Zabur 41

IJROCHILAR RAHBARIGA. QO`RAH O`G`ILLARI QASIDASI.

2 Kiyik oqar anhor suvlarini tusaganday, Ko`nglim Seni shunday tusamoqda, ey Xudo! **3** Xudoga, kuchli, barhayot Tangriga jonim tashna. Qachon kelib Xudoning huzuriga ko`rinar ekanman? **4** «Sening Xudoying qayerda-» deb Mendan kun bo`yi so`rashmoqda, Kecha-kunduz ko`z yoshim menga oziq bo`lmoqda. **5** Shularni eslaganimda ko`nglim sel bo`lyapti: Men jamoat bilan sayr etar edim, Bayram tusli, tantanavor olomon ichra, Baland ovozli kuylaru hamd lar ichra Xudoning ma badiga borib kirar edim. **6** Ey jonim, nega bunday tushkunsan? Nechun ichimda g`ashlik qilasan? Xudoga umid bog`la! Ha, men yana Xudoga shukr aytaman, Undan kelar menga najot. **7** Jonim ichimda qiynalib ketmoqda, Shuning uchun O`rdun diyorida, Hermon va Mis`or tog`laridan turib, Seni xotirlamoqdaman, ey Xudoyim! **8** Sening sharsharang ovozlari ila Girdob girdobni chorlamoqda, Sening barcha suv to`lqinlaring Ustimdan o`tib ketmoqdalar. **9** Kunduzi Xudovand inoyatini yo`llar, Kechasi esa Ungadir mening xonishim, Hayotim Tangrisigadir ibodatim. **10** Men suyangan qoyam - Xudoga deyman: Nechun Sen meni unutding? Nega yov zulmi ostida g`amgin yurar ekanman? **11** «Sening Xudoying qayerda-» deb Kun bo`yi so`rashmoqda dushmanlarim. Ularning haqorati iligimga singdi, Suyaklarim zirqirab ketdi. **12** Ey jonim, nega bunday tushkunsan? Nechun ichimda g`ashlik qilasan? Xudoga umid bog`la! Ha, men yana Xudoga shukr aytaman, Undan kelar menga najot.

Zabur 42

Ilohiy yordam uchun munojot

1 Yo Xudoyo, yuzimni yorug` qilgin! Shakkok xaloyiqqa haqligimni ko`rsat! Yolg`onchidan, hiylagardan meni himoya qil! **2** Mening Xudoyim va qo`rg`onim Sensan-ku, Nechun meni rad qilding? Nega yov zulmi ostida g`amgin yurar ekanman? **3** O`z nuring va haqiqatingni yuborgil, Ular menga yo`l ko`rsatsin, Sening muqaddas tog`ingga, Ulug` maskanlaringga meni eltsin; **4** Toki men Xudoning qurbongohiga boray, Meni quvontirgan Tangrimga shukrlar dey. Seni g`ijjak chalib kuylayman, Ey, meni shod qilgan Xudoyim! **5** Ey jonim, nega bunday tushkunsan, Nechun ichimda g`ashlik qilasan? Xudoga umid bog`la! Ha, men yana Xudoga shukr aytaman, Undan kelar menga najot.

Zabur 43

IJROCHILAR RAHBARIGA. QO`RAH O`G`ILLARI QASIDASI.

2 Yo Xudoyo! Biz o`z qulog`imiz bilan eshitganmiz, O`tgan kunlarda, qadimiy zamonlarda Sen yaratgan ajoyib ishlaring haqida Bizga otalarimiz hikoya qilib keldilar. **3** Sen O`z qo`ling-la xalqlarni quvib tashlagansan, Elu elatlarni to`ntarib, surib tashlagansan, Ota-bobolarimizning esa aziz diyorda tomir yoyishiga yo`l bergansan. **4** Ular diyorni o`z qilichi bilan olgani yo`q, Qo`l kuchlari yordamida g`alabaga erishgani yo`q. Faqat Sening qo`ling, Sening kuching, Yuzing nuri va lutfing tufayli g`alabaga erishganlar. **5** Ey Xudoyim va Podshohim, Sen O`shasan, Bani-Yoqubga O`zing najotlar yo`llagaysan. **6** Sening quvvating-la yovni suzib yuborarmiz, Ismi sharifing-la ezib tashlarmiz g`animni. **7** Men o`z kamonimga suyanmayman, Shamshirim esa meni qutqarmas. **8** Dushmanlarimizdan bizni Sen qutqarursan, Bizdan nafratlanganlarni sharmanda qilursan. **9** Kundan-kun Sen bizning iftixorimizsan, ey Xudo, Sening ismingni abadiy sharaflaymiz. SALOT **10** Biroq hozir Sen bizni tashlab, sharmanda qilding, Qo`shinlarimiz bilan jangga chiqmayapsan endi. **11** Yov oldidan bizni qochirding, Ag`yorlar bizni talon-taroj qilmoqdalar. **12** Bizni qo`ylar kabi yemish uchun topshirding, Xalqlar

orasiga bizni tarqatib yubording. **13** O`z xalqingni esa tekinga sotding, Uning bahosi haqida savdolashmading. **14** Qo`shnilarimiz oldida yuzimizni qora qilding, Atrofimizdagilarga kulgi va masxara bo`ldik. **15** Ellar aro bizni kinoyaga qoldirding, Yot qavmlar bizga qarab, bosh chayqab qo`ydilar. **16** Har kuni sharmandalik ko`zim o`ngida, Yuzim qora, berkitib yuraman. **17** Tuhmatchi va tahqirchining so`kuvidan, Dushman va qasoskorning boqishidan uyalaman. **18** Bularning hammasi boshimizga tushdi, Biroq biz Seni unutmadik, Ahdingga ham xoinlik qilmadik. **19** Ko`nglimiz qaytmadi Sendan, Tovonimiz og`ib ketmadi rohingdan. **20** Illo Sen bizni ajdarho inida poymol qilding, O`lim soyasi bilan boshimizni chulg`ading. **21** Agar biz Xudoyimiz nomini unutib, Begona bir tangriga sig`inganimizda, **22** Xudovand buning hisobini so`ramasmidi? U yurak sirlarini biladi-ku! **23** Sen tufayli bizni har kun o`ldirmoqdalar, Qurbonlik qo`ylar deb hisoblaydilar. **24** Yo Rabbiy, uyg`ongin, nega uyqudasan? Turgin, bizni abadiy tashlab qo`yma! **25** Nega Sen yuzingni yashirasan, Faqir va mazlumlarimizni unutasan? **26** Jonimiz tuproqda poymol bo`ldi, Bag`rimiz yerga yopishib qoldi. **27** Sen turib, bizga yordamga shoshil, Inoyating bilan bizga najot yuborgil!

Zabur 44

IJROCHILAR RAHBARIGA. «LOLAGUL» KUYIGA. QO`RAH O`G`ILLARI QASIDASI. SEVGI QO`SHIG`I.

2 Dilimdan ezgu kalomlar to`kilaveradi, Tilim - mohir yozuvchining qalami. Yaratgan she`rimni podshohga taqdim etgayman: **3** Sen inson o`g`illarining eng go`zalisan, Lablaringdan latofatli so`zlar quyilar. Shul bois Xudo seni mangu muborak aylagan. **4** Ey botir, jamolu salobating ila Belingdagi shamshirni shaylab qo`y! **5** Shu salobating ila jangga tushgil, Haqiqatgo`ylik, olijanoblik, odillik yo`lida kurashgil! Sening qo`lingdan ajoyib ishlar kelgay. **6** Kamoning o`qlari o`tkir bo`lgay, Podshoh dushmanlarining yuragiga sanchilgay, Sening poyingga xalqlar yiqilgay! **7** Ey Xudo, Sening taxting doimiy va abadiydir, Podshohliging hassasi - haqqoniyat hassasi. **8** Sen adolatni sevib, Yovuzlikdan nafratlanasan, Shuning uchun Xudo, Sening Xudoying Tengdoshlaringdan ko`ra ko`proq

Sening boshingga xurramlik moyi surtgan. **9** Butun ust-boshingdan mirra, Sabur va dolchin hidi sochilar; Fil suyagidan qilingan saroylardan kelgan O`yin-kulgi sadolari seni shod qilar. **10** Hurmatli bonularing ichra shoh qizlari bor, Malika esa O`fir oltiniga bezanib, Sening o`ng tomoningda turibdi. **11** Tingla, ey qiz, quloq solib qaragin, Qavming va otang uyini unutgin! **12** Podshoh sening go`zalligingni orzu etmoqda, Sening janobingdir u, unga sajda qil! **13** Tir qizi senga tavajjuh qilsin, Elning boylari senga yalinib-yolvorsin. **14** Haramdagi podshoh qizi juda chiroyli, Oltindan tikilgandir uning libosi. **15** Naqshinkor libosda uni shohga keltiradilar, Dugonalari uning ortidan borib, Senga uni eltadilar. **16** Ular shodligu xurramlik-la kuzatilib, Podshoh saroyiga kiradilar. **17** Bobolaring joyini o`g`illaring olgaylar, Sen butun jahonda ularni sarvar etgaysan. **18** Men nasldan-naslga Sening nomingni maqtayman, Xalqlar esa ilalabad Senga shukronalar aytgay.

Zabur 45

IJROCHILAR RAHBARIGA. «QIZLAR» KUYIGA. QO`RAH O`G`ILLARINING QO`SHIG`I.

2 Xudo bizning panohimiz va quvvatimizdir, Tang ahvollarimizda hamisha tayyor turgan yordamchimizdir. **3** Shuning uchun biz qo`rqmaymiz; Hatto yer ostin-ustin bo`lib ketsa ham, Dengizlar bag`riga tog`lar qulab tushsa ham, **4** To`lqinlar mavj urib, ko`pirib ketsa ham, Po`rtanalardan tog`u tepa silkinib ketsa ham, Biz qo`rqmaymiz! SALOT **5** Bir daryo borki, Uning oqimlari Xudoning shahriga, Taoloning muqaddas maskaniga sevinch keltirur. **6** Xudo uning o`rtasida, u tebranmas aslo. Tong otganda Xudo unga yor bo`lur. **7** Xalqlar shovqin soldi, o`lkalar tebrandi, Tangri ovoz berdi, dunyo erib ketdi. **8** Sarvari koinot bizlar bilan, Yoqub Xudosi qo`rg`onimiz bizning! SALOT **9** Keling, Xudovand qilmishlarini ko`ring, U yer yuziga qanday dahshatlar soldi! **10** Yer chetlariga qadar U janglarni to`xtatadi, Kamonni sindirib, nayzani parchalaydi, Jang arobalarini yoqib kulga aylantiradi. **11** «To`xtang, bilingki, Men - Xudoman, Xalqlar ichra nomim baland bo`lgay, Yer yuzi

bo`ylab nomim baland bo`lgay». **12** Sarvari koinot bizlar bilan, Yoqub Xudosi qo`rg`onimiz bizning! SALOT

Zabur 46

IJROCHILAR RAHBARIGA. QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI.

2 Ey barcha xalqlar, Xudo sha`niga qarsak chalinglar, Quvonchli sadolar-la xitob qilinglar! **3** Xudoyi Taolodan qo`rqmoq lozim, Butun yer yuzida U buyuk Podshohdir! **4** U bizga xalqlarni tobe qildi, Elatlarni oyog`imiz tagiga qo`ydi. **5** Suygan quli Yoqubning faxrli qismatin Bizning qismatimiz qilib belgiladi. SALOT **6** Xudo zafar shodiyonasi ila yuksaldi, Surnay ovozi-la taxtga chiqdi Xudovand. **7** Tarannum eting, Xudoga tarannum eting! Tarannum eting, Podshohimizga tarannum eting! **8** Xudo butun yer yuzining Podshohidir; Buni fahmlab, tarannum aylang! **9** Xudo xalqlar ustidan saltanatlidir, Xudo muqaddas taxtida o`ltiribdir. **10** Xalqlar asilzodalari to`plandilar, Ibrohim Xudosining qavmiga to`plandilar, Xudoga qaramdir yer yuzi sarkardalari; U g`oyat baland martabalidir.

Zabur 47

QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI. QO`SHIQ.

2 Xudovand buzrukvordir! O`z shahrida, O`zining muqaddas tog`ida Xudoyimizni qanchalar ulug`lasa ozdir. **3** Sion tog`i go`zal tepalikdir, Butun yer yuzining sevinchidir. Shimol tog`lariday ulug`dir u, Buyuk Podshohning shahridir u. **4** Xudo uning saroylarida hozirdir, Mudofaa qal`asi O`zi ekanini ko`rsatur. **5** Shuning uchun podshohlar to`planib, Uning huzuriga saf-saf bo`lib o`tdilar. **6** Uni ko`rganlarida taajjubda qolib, Vahmu dahshat olib qochib ketdilar. **7** Tug`ayotgan xotinning to`lg`og`i kabi, U yerda ularni titroq va azob qopladi. **8** Sen sharq shamolini estirib, Tarshish kemalarini parchalab tashlading. **9** Biz Xudoyimizning shahrida, Sarvari koinotning kentida eshitgan edik, Endi xuddi o`shani ko`rdik: Xudo shaharni to`abad mustahkamlaydi. SALOT **10** Ey Xudovand, Sening ma`bading o`rtasida Biz inoyatingni ko`z oldiga keltirib, mahliyo bo`ldik. **11** Ey Xudo, Sening noming qanchalik ulug`! Shuhrating yerning

chetlarigacha yoyilgan, O`ng qo`ling adolatli ishlarga to`lib-toshgan. **12** Sening haqqoniy hukmlaring tufayli Sion tog`i sevinsin, Yahudo qizlari shod bo`lsin! **13** Sion chegarasini kezib, Atrofni aylanib chiqingiz, Minoralarini sanab chiqingiz. **14** Istehkomlariga yaxshi e`tibor bering, Saroylarida sayr qilinglar, Kelajak naslga ham hikoya etinglar: **15** Ana, bu - Xudodir! Abadulabad bizning Xudoyimizdir, O`limdan nariga boshlovchi Dohiyimizdir.

Zabur 48

IJROCHILAR RAHBARIGA. QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI.

2 Bunga quloq soling, ey hamma xalqlar! Ey ahli dorilfano, barchangiz tinglang! **3** Avomlaru bekszoda ham, boylaru fuqaro ham Birgalikda quloq solinglar! **4** Tilim hikmatni bayon etar, Dilimdan dono mulohazalar o`tar. **5** O`zim ham masalga quloq solib, Sirimni g`ijjak bilan anglatarman. **6** Ofatli kunlarda nechun qo`rqar ekanman? Mana, ta`qib qiluvchilarning yovuzligi Har yoqdan meni siqib qo`ymoqda! **7** Ular o`z davlatmandligiga tayanib, Boyliklari ko`pligidan gerdayib ketganlar. **8** Vale to`lov bilan qutqara olmas Biron-bir inson o`z birodarin, Xudoga pul bera bilmas Joniga najot topmoq uchun. **9** Jonlar bahosi-ku - bebahodir, Bunga kishi aslo erisha olmas. **10** Yo`qsa kishi boqiy yashar, Qabr yuzini ham ko`rmas edi. **11** Ma lumki, hatto donolar o`lar, Ahmoq va nodon birday yo`q bo`lar, Boyliklari esa boshqalarga qolar. **12** Ular ich-ichidan xayol surib: Bizning uy-joyimiz boqiydir, deyдилar, Maskanimiz nasldan-naslga o`taveradi, deb, Yer-suviga o`z nomlarini beradilar. **13** Biroq odam izzatli bo`lsa-da mangu qo`nmas, U hayvonga o`xshab yo`q bo`lib ketar. **14** Ularning bu yo`li telbalikdir, Ularni ma`qullaganlar esa ularga ergashadilar. SALOT **15** Ular qo`ylardek tamug`ga haydaladilar, O`lim esa ularning cho`poni bo`lib qolar. Subhda solihlar ular ustidan hukm surar. Ularning tani tamug`da nurab ketar, O`liklar diyori ularning qasri bo`lar. **16** Biroq mening jonimni Xudo O`lim panjasidan qutqarib qolar, O`zi meni qabul qilar. SALOT **17** Birovning davlatmand bo`lganidan, Yoki xonadoni izzati oshganidan qo`rqma. **18** U o`lganida o`zi bilan hech narsa olib ketmas, Uning izzati ham orqasidan ketmas. **19** Garchi

tirikligida uni duo etishgan bo`lsa ham, Garchi u insonga yaxshilik qilib, Maqtovgaga sazovor bo`lgan bo`lsa ham, **20** U o`z otalari nasliga yetar, Ularday to abad yorug`likni ko`rmas. **21** Shuni anglamaydigan inson izzatli bo`lsa-da, Hayvonga o`xshab yo`q bo`lib ketar.

Zabur 49

ASAF SANOSI.

1 Xudovand, Tangri Taolo so`zladi, Quyoshning chiqar yeridan botar yerigacha U yer yuziga xitob qilmoqda. **2** Kamoli chiroyli Siondan Xudo zuhur etadi. **3** Xudoyimiz keladiyu, indamay turmas. Uning oldida yeb bitiradigan otash, Atrofida esa - shiddatli bo`ron. **4** O`z xalqiga hukm chiqarmoq uchun, U yuqoridan yeru osmonni chaqiradi: **5** «Men bilan qurbonlikka ahd qilgan Azizlarimni Menga to`plab beringlar!» **6** Osmon Uning adolatini e`lon qiladi, Xudoning O`zi - Hukmlovchidir. SALOT **7** «Ey xalqim, tinglagin, Men so`zlayman, Ey Isroil, seni qattiq ogohlantiraman, Men Xudoman, Sening Xudoyingman. **8** Qurbonliklaring uchun ta`na qilmayman, Kuydirgan bag`ishlovlaring qarshimda doim. **9** Men na hovlingdagi buqani, Na og`ilingdagi takani istayman. **10** Menikidir o`rmonning hamma hayvonlari, Tog`da yashovchi minglab jonivorlar. **11** Barcha tog` qushlarini Men bilaman, Butun dasht jonivorlari qo`lim ostida. **12** Och qolsam-da, sendan so`ramayman, Menikidir dunyo va uni to`ldirgan borliq. **13** Men buqa go`shtini yermikanman, Yoki takalar qonini icharmikanman-» **14** «Xudoga shukrona bilan qurbonlik keltir, Haq Taologa nazrlaringni bajo keltir. **15** Og`ir kunlarda Meni chaqirgin, Men senga najot beraman, Sen esa Meni ulug`laysan». **16** Biroq gunohkorga Xudo bunday deydi: «Nega sen Mening amrlarimni talqin qilib, Ahd-paymonimni og`zingga olasan? **17** Sen Mening yo`l-yo`rig`imdan nafratlanib, Kalomlarimni xor qilib tashlaysan-ku! **18** O`g`rini ko`rganda u bilan topishib olasan, Zinogar ila bir jon, bir tan bo`lasan. **19** Og`zingda yomonlikka erk berib, Tilingda hiylani to`qiysan. **20** O`tirsang, birodaringni g`iybat qilasan, O`z onang o`g`liga tuhmat qilasan. **21** Sen shu ishlarni qilding, Men esa indamadim; Shunda Meni o`zingga o`xshash deb o`ylading. Endi Men adabingni berib qo`yaman,

Gunohingni ko`z o`ngingda fosh qilaman. **22** Endi shuni anglab oling, Ey sizlar, Xudoni unutganlar! Yo`qsa sizlarni parchalab tashlarman Va najotkoringiz qolmas». **23** «Shukrona bilan qurbonlik keltirgan Meni ulug`laydi, Shu yo`lda to`g`ri yurganlarga Men ilohiy najot yo`llayman».

Zabur 50

IROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI. DOVUD BINT-SHABONI OLGANDAN SO`NG, NATAN PAYG`AMBAR UNING OLDIGA KELGANDA USHBUNI O`QIGAN.

3 Ey Xudo, menga inoyat qilib, Mehribonlik ko`rsatgin! Cheksiz rahmshafqating tufayli Qonunsiz ishimdan kechib yuborgin! **4** Aybimni tamoman yuvib tashla, Gunohimdan meni tozalagin! **5** Qilmishimni qonunsizlik deb tan olaman, Qilgan gunohim ko`z o`ngimdadir mudom. **6** Men Senga, faqat Senga qarshi gunoh qildim, Sening ko`z oldingda yomonlik qildim. Sen esa so`zingda doim barhaqsan, Hukm qilganingda faqat odilsan. **7** Men gunohkor bo`lib dunyoga kelganman, Onam meni gunoh ichida tuqqan ekan. **8** Sen ko`ngillardan haqiqatni qidirasan, Yashirin qalbinga hikmatni o`rgatasan. **9** Meni issop bilan tozala, pok bo`lay, Meni yuvgin, qordan ham oq bo`lay! **10** Menga shodligu xursandlik mujdasin keltir, Sen ezgan suyaklarimga yana jonu quvonch kirsin! **11** Gunohlarimdan yuzingni o`girgin, Barcha yomonliklarimdan kechib yuborgin! **12** Ey Xudo, menda pok yurakni yaratgin, Ichimda yangi, sobit ruhni bunyod etgin. **13** Meni O`zingdan uzoqlashtirib tashlama, O`z Muqaddas Ruhingni mendan olma. **14** Najoting ila meni qayta quvontirgin, Irodali ruh ila meni mustahkamlagin. **15** Qonunbuzarlarga Sening yo`llaringni o`rgataman, Gunohkorlar Senga qaytib kelsinlar. **16** Qonimdan o`tavergin, ey Xudoyim, Najotkorim, Sening adolatingni tarannum etsin tilim. **17** Qulfi dilimni O`zing ochib yuborgin, yo Rabbiy, Tilimdan tushmasin endi Sening sanolaring! **18** Sen qurbonlikni xohlamassan, Aks holda uni so`yib keltirar edim; Kuydirilgan bag`ishlovdan ham rozi bo`lmassan. **19** Xudoga ma`qul bo`ladigan qurbonlik - buzilgan ko`ngildir. Buzilgan, ezilgan ko`ngilni Sen xorlamassan, ey Xudo. **20** Sionga lufu karam aylagin, Quddus devorlarini

obod qilgin! **21** O`shanda halol qurbonliklar keltirilajak, O`shanda yoqiladigan qurbonliklar tutuni Sening rizoligingni topajak, Qurbongohingda novvoslar qurbon qilinajak.

Zabur 51

IROCHILAR RAHBARIGA. EDO`MLIK DO`EG SHOUL OLDIGA BORIB: «DOVUD AXIMALIKNING UYIGA KIRIBDI», - DEB BILDIRGAN PAYTDA DOVUDNING AYTGAN QASIDASI.

3 Ey zo`ravon, nechun yovuzliging bilan maqtanib, «Tangri inoyati menga doim yor», deb yurasan? **4** Hoy hiylagar, niyati buzuq, Keskir ustaradekdir tiling! **5** Sen yaxshilikdan ko`ra yomonlikni, Haqiqatdan ko`ra yolg`onni ortiq sevasan. SALOT **6** Ey sen, makrli til, Qing`ir maqsadlarni ortiq sevasan! **7** Tangri O`zi seni abadiy halok qiladi, Seni chodiringdan quvib chiqaradi, Tiriklar diyoridan ildizingni quritib tashlaydi. SALOT **8** Solihlar buni ko`rib, qo`rqadilar, Uning ustidan kulib, deydilar: **9** «Qarang, Xudoni tayanchim deb bilmagan, Davlati ko`pligiga e`tiqod qo`yib, Boyligiga ishongan odamning oqibati shu!» **10** Men esa Xudo uyida yashnab turgan zaytun daraxti kabiman, Ilalabad Xudo inoyatiga suyanib, umid qilaman. **11** Senga mangu shukrlar deyman, yo Rab, Chunki buni Sen bajarding. Sening ismingga umid qilaman, Zero azizlaring nazdida ezgudir isming.

Zabur 52

IROCHILAR RAHBARIGA. «QAYG`U-ALAM» KUYIGA. DOVUD QASIDASI.

2 Ahmoq o`z ko`nglida: «Xudo yo`q!» - deydi. Bundaylar buzilib borgan sari rasvo bo`ladilar. Yaxshilik qiladigan hech kimsa yo`q. **3** Xudo inson o`g`illariga osmondan boqadi, Meni qidiruvchi biror idrokli kishi bormikan, deya. **4** Illo hamma yo`ldan ozib gumroh bo`lgan, Barcha chirib, yaroqsiz bo`lgan. Ezgulik qiladigan yo`q, Hatto biror kishi ham yo`q! **5** Xalqimni bir luqma kabi yutib yuboradigan, Xudoni esa chaqirmaydigan badkirdorlarning aqli yetmasmikin? **6** Qarang, ular

qo`rquvdan cho`chidilar, Ammo hech qo`rqinch yo`q edi. Xudo seni qamal qilganlarning suyaklarini sochib tashladi. Sen ularning sharmandasini chiqarding, Ha, Xudoning O`zi ularni rad etdi. **7** Koshki Siondan Isroilga najot kelsa! Xudo O`z xalqini asirlikdan qaytargach, Bani-Yoqub shod bo`lgay, Isroil sevingay.

Zabur 53

IJROCHILAR RAHBARIGA. SOZ UCHUN. ZIFLIKLAR SHOULNING OLDIGA BORIB: «DOVUD BIZNING ORAMIZDA YASHIRINMOQDA-KU», - DEGANLARIDA DOVUDNING AYTGAN QASIDASI.

3 Ey Xudo, Isming haqi uchun meni qutqargin, Qudrating ila huquqimni himoya qilgin! **4** Ibodatimni tinglagin, ey Xudo, So`zlarimga quloq bergin! **5** Ajnabiylar menga qarshi oyoq ko`tardi, Zolimlar jonimga qasd qildilar; Ular Xudoni pisand qilmaydilar. SALOT **6** Mana qarang, Xudo menga yordamchidir, Rabbimning O`zi jonimni asraydi. **7** U ofatni mendan qaytarib, Yovlarimning o`z boshiga soladi. Haqiqating haqi ularni mahv qil, ey Xudovand! **8** Senga chin ko`ngildan qurbonlik keltirib, Ismingga shukrlar deyman, yo Rabbim, Chunki ezgudir Sening isming. **9** Sen meni har qanday kulfatdan qutqarding, Yovlarimning sharmandaligini menga ko`rsatding.

Zabur 54

IJROCHILAR RAHBARIGA. SOZ UCHUN. DOVUD QASIDASI.

2 Ey Xudo, Ibodatimga quloq solgin, Yuz o`girma munojotimdan! **3** Meni yaxshi tinglab, javob bergin! Men qayg`uga botib, fig`on chekyapman. **4** Dushman do`q-po`pisa qilayotir, Fosiq jabr-sitam aylamoqda; Ular menga kulfat keltirmoqchi, Qahr-zo`g`im va xusumat yog`dirmoqdalar. **5** Bag`rimda yuragim o`ynayapti, Ustimga o`lim dahshatlari tushdi. **6** Menga qo`rquv va titroq keldi, Vahima bosib oldi yuragimni. **7** Koshki kabutarining qanoti menda bo`lsa edi, Uchar va rohat ham topar edim, dedim. **8** Ha, uzoqlarga uchib ketib, Cho`l-biyobonda qo`nolg`a topar

edim. SALOT **9** Qiron va bo`rondan tez qochib, Bekinar joy qidirib topar edim. **10** Yo Rabbii, Sen ularni yakson qil, Tillaridan ayirib tashla! Shaharda faqat zo`ravonlik va g`avg`oni ko`ryapman. **11** Kechayu kunduz shahar devorlari ustida yuribdilar, Shahar gunoh va kulfat bilan to`lib-toshgan. **12** Uning o`rtasida buzuqchilik hokim, Hiylayu firib maydonlaridan chiqmay qoldi. **13** Meni haqorat qilayotgan dushman emas, Aks holda chidar edim. Menga ag`yorlik qilayotgan yov emas, Yo`qsa undan qochar edim. **14** Ammo sen o`zingsan, mening tengqurim, O`rtog`im, mening jon do`stim! **15** Biz qanday birga shirin suhbatlar qilib, Olomon bilan Xudo uyiga kirib chiqar edik... **16** O`lim ularning boshiga kelsin, Tamug`ga tirikligicha ketsinlar! Ularning uylaridayu ichlarida - faqat yovuzlik. **17** Men bo`lsam, Xudoni chaqiryapman, Xudovand menga najot berar. **18** Oqshom, subh va qiyomda faryod etib, Tashvishmandlar nolasini qilyapman. Xudovand mening tovushimni eshitar. **19** Qarshimda ko`pchilik saf tortgan bo`lsa-da, Jangdan jonimni O`zi qutqarar, Meni sog`-salomat saqlab qolar. **20** Azaldan Tangri O`z taxtida o`ltiribdi, U eshitadi va ularni jilovlaydi. SALOT Ular tavba-tazarruga yondashmaydi, Xudodan ham qo`rqmaydilar. **21** Tinch aholiga qo`l uzatib, Ahd-paymonni buzib yuribdilar. **22** Ularning tili yoG`day bo`lsa ham, Lekin yuraklarida harbu zarb bor. So`zlari halimdek bo`lsa-da, Lekin o`zlari - yalang`och qilichdir. **23** Tashvishingni Xudovandga tashlab ket, Uning O`zi senga tayanchiq bo`lur. Solihning yiqilishiga U abadiy yo`l bermas. **24** Qonxo`r va hiylagar odamlarni esa O`zing halokat chohiga tashlaysan, ey Xudo, Ular umrining yarmini ham yashamaydilar. Mening esa Senga ishonchim komil.

Zabur 55

IJROCHILAR RAHBARIGA. «G`URBATDAGI LOL KABUTAR» KUYIGA. FILISTIYLAR TOMONIDAN GAT SHAHRIDA TUTILGANDA DOVUDNING YARATGAN SHE RI.

2 Ey Xudo, menga mehribonlik ko`rsatgin! Chunki inson meni yutmoqni istamoqda, Kun bo`yi zarba berib, iskanjaga olmoqdalar. **3** Kundan-kun dushmanlarim meni yutmoq payida, Juda ko`pchilik menga qarshi

chiqqan, yo Taolo! **4** Qo`rqan kunimda umidim Senda, yo Rab! **5** Men Xudo kalomini tarannum etaman, Xudoga umid bog`lab, qo`rqmayman; Bashar menga ne qila bilar? **6** Har kun so`zlarimni buzib ko`rsatadilar, Menga qarshi butun niyatlari - yovuzlik. **7** Ular meni yashirincha kuzatib turadilar, Jonimga qasd qilib, izimdan quvadilar. **8** Ularni aslo qo`ldan chiqarma, ey Xudo, G`azabing ila xalqlarni to`ntarib yubor! **9** G`urbatimni Sen hisobga olgansan; Ko`z yoshlarimni shishangga solib ko`rgin, Ular Sening kitobingda yozilgan-ku! **10** Men Seni chaqirgan kunimda, Dushmanlarim orqaga qaytadilar; Shundan bilamanki, Xudo men tomonda. **11** Men Xudo so`zini tarannum etaman, Xudovand kalomini kuylayman; **12** Xudoga umid bog`lab, qo`rqmayman; Inson menga ne qila bilar? **13** Ey Xudo, atagan nazrlarim menga farzdir, Senga shukronalarimni bajo keltiraman. **14** Sen jonimni o`limdan asrading, Oyoqlarimni to`siqlardan saqlading. Men endi hayot yorug`ida, Xudo huzurida yuraman.

Zabur 56

IROCHILAR RAHBARIGA. «XAROB ETMA» KUYIGA. SHOUL OLDIDAN G`ORGA QOCHIB KETGANDA DOVUDNING YARATGAN SHE RI.

2 Menga shafqat qilgin, ey Xudo, Menga shafqat qilgin! O`zingsan-ku jonimga pano! Balolar qaytmaguniga qadar, Qanotlaring soyasida pano! **3** Men uchun ezgulik yaratuvchi Tangrimga, Xudoyi Taologa iltijo qilaman. **4** U ko`kdan menga najot yuborgay, Meni tishlayotganlarni sharmanda qilgay. SALOT Xudo O`zining inoyatu haqiqatini yuborgay. **5** Men arslonlar o`rtasida qoldim, Yirtqichlar ichra yotibman-ku! Odamzod tishi - bamisoli nayzayu o`q, Ularning zaboni - keskir qilich! **6** Ey Xudo, falakdan ham baland yuksalgin, Ulug`vorliging ro`yi zamin uzra porlasin! **7** Ular qadamlarimga to`r tayyorlashdi, Jonim ma`yuslikka tushdi. Borar yo`limda chuqur qazishdi, Chuqurga o`zlari qulab tushdi. SALOT **8** Yuragim shay, ey Xudo, yuragim shaydir. Men Seni kuylayman, tarannum etaman. **9** Uyg`ongin, ey ruhim! Uyg`oning, ey chang ila g`ijjak! Men saharni uyg`otib yuboraman. **10** Xalqlar ichra Senga shukr deyman, yo

Rabbiy, Ellar aro Seni tarannum etgayman. **11** Sening inoyating ko`klardan ham baland, Haqiqating esa bulutlardan ham yuksakdir. **12** Ey Xudo, falakdan ham yuqoriga yuksalgin, Ulug`vorliging ro`yi zamin uzra porlasin!

Zabur 57

IJROCHILAR RAHBARIGA. «XAROB ETMA» KUYIGA. DOVUD SHE RI.

2 Ey qozilar, nahotki siz adolatni so`zlayapsizlar? Nahotki to`g`ri hukm chiqaryapsiz, ey bekdodalar? **3** Aksincha, ko`nglingizda nohaqlikni to`qiysizlar, Qo`lingizdan mamlakat bo`ylab zo`ravonlik keladi. **4** Fosiqlar ona qornidan chiqiboq yanglishar, Yolg`onchilar tug`ilishidan boshlab adashar. **5** Ularning zahari - bamisli ilon og`usi, Ular kar ilonga o`xshab qulog`ini berkitar. **6** U ilonki, eshitmas afsungar tovushin, Tuymas ham uning mohirona sehr-jodusin. **7** Yo Xudoyo Xudovando, Ularning og`zidagi tishlarni sindirib tashla, Arslonlar jag`larini ezib tashla! **8** Oqar suvday sochilib yo`q bo`lsinlar, Yoyni tortganda o`qlari sinib tushsin. **9** Shilliq qurt singari erib ketsinlar, Onasi qornidan chala tug`ilgan, Quyosh ko`rmagan go`dakday bo`lsinlar. **10** Qozonlaringiz tikan o`tini sezishidan oldin, Go`sht xommi, pishiqmi deb o`tirmasdan, Ularni uyurma supurib tashlagay! **11** Solih qarimtasini ko`rib sevingay, Fosiqning qoni ila oyoqlarini yuvgay. **12** O`shanda insonlar aytadurlar: Hali ham solihga mukofot bor ekan, Hanuz yer yuzida hukm qiluvchi Xudo bor ekan!

Zabur 58

IJROCHILAR RAHBARIGA. «XAROB ETMA» KUYIGA. SHOUL DOVUDNI O`LDIRISH UCHUN UNING HOVLISINI POYLASHGA KISHI YUBORGANDA DOVUD USHBU SHE RNI YARATGAN.

2 Meni dushmanlarimdan ozod etgin, ey Xudoyim, Menga isyon qilganlardan himoya qilgin. **3** Badkirdorlardan meni xalos qilgin, Qonxo`r odamlardan meni qutqargin. **4** Mana ular pisib yotib, jonimga qasd qilmoqdalar, Zo`ravonlar menga hujum boshlayaptilar. Jinoyat yoxud

gunohim tufayli emas, ey Xudovand, **5** Men begunoh bo`la turib, hujumga saf tortyaptilar. Menga yordam bermoq uchun turgin va qaragin! **6** Sen, ey Xudovand, Sarvari koinot, Isroilning Tangrisi, Barcha xalqlarga chora bermoq uchun qo`zg`algin, Sotqinu xoinlarning hech birini ayamagin! SALOT **7** Shomda ular qaytib, itlarday uvlab, Shahar atrofini aylanib chiqadilar. **8** Ularning og`zi tinmay ig`vo to`qiydi, Lablari esa bamisoli dudama qilich! Ular: Kim eshitar ekan? - deydi. **9** Sen esang, ey Xudovand, Bundaylar ustidan kulasan, Elu elatlarni masxara qilasan. **10** Ey qudratim, Senga ko`z tikaman; Mening minoram Sensan-ku, ey Xudoyim! **11** Xudoyim O`z inoyati ila meni qarshilaydi, Dushmanlarim ustidan zafar bag`ishlaydi. **12** Ularni o`ldirma, toki xalqim unutmasin, Ularni qudrating-la yiqit, darbadar qil, Yo Rabbiy, bizning qalqonimiz! **13** Og`izlaridan chiqqan gunohli so`zlar, Ular o`qigan la`nat va yolg`onlar uchun O`z g`ururlari bilan ushlab qolinsinlar. **14** Nest-nobud qilgin ularni! G`azabing bilan qirib tashla ularni! Ular yo`q bo`lsin va hamma bilsin: Yoqub elida va ro`yi zamin uzra Xudo hokimi mutlaqdir. SALOT **15** Shomda ular qaytib, itlarday uvlab, Shahar atrofini aylanib chiqadilar. **16** O`lja topmoq-chun daydib yurib, Ochlikdan irillab tunaydilar. **17** Men esam, Sening qudratingni kuylayman, Erta tongdan inoyatingni tarannum etaman. Chunki Sen menga minora bo`lgansan, Xavfli kunimda panohim bo`lgansan. **18** Ey qudratim, Seni tarannum etaman. Xudodir mening mustahkam qal`am, U mendan mehr-inoyatini ayamaydi.

Zabur 59

IJROCHILAR RAHBARIGA. «LOLAGUL SHAHODATI» KUYIGA. TA LIM UCHUN. DOVUD ARAM-NAHARAYIM VA ARAM-SO`BO MARDUMI BILAN JANG QILGANDAN KEYIN YO`OB QAYTIB, O`N IKKI MING EDO`MLIKNI TUZ DENGIZI VODIYSIDA URGANI HAQIDA DOVUDNING YARATGAN SHE RI.

3 Ey Xudo, Sen bizlarni tashlab qo`yding, Saflarimizni yorib bosding, Bizlardan g`azablanding. Koshki bizlarga yana yuz tutsang! **4** Sen mamlakatni larzon aylading, Yerni darz-darz qilib yubording. Yer yuzi yakson-talqon bo`ldi, Yoriqlarini tiklamoq-chun davo topgin! **5** Xalqingga

og`ir kulfatlar keltirding, Bizga zaqqumli sharobni ichirding. **6** O`zingdan qo`rqqanlarga tug` berginki, Uni haqiqat yo`lida baland ko`tarsinlar! SALOT **7** O`z sevganlaring xalos bo`lsinlar, Kuchli qo`ling bilan qutqargin bizni, Quloq solgin bizga! **8** Xudo O`zining muqaddas makonida so`zladi: «Men Shakamni tantana ila taqsimlayman, Sukkot vodiysini esa o`lchab olaman. **9** Gil ád Meniki, Manashe ham Meniki. Efraim - boshimdagi dubulg`a, Yahudo - saltanatim hassasi. **10** Mo`ov - yuvinadigan tosimdir. Edo`m ustiga etigimni bosaman, Filistiya uzra g`alaba e lon qilaman». **11** Mustahkam shaharga meni kim eltadi? Edo`mga meni kim kuzatib boradi? **12** Ey Xudo, O`zing bizni tashlab qo`ymadingmi? Qo`shinlarimiz bilan chiqmayapsan-ku, ey Xudo! **13** Yovga qarshi kurashda bizga yordam bergin, Chunki bashariyat najoti bema`nilikdir! **14** Biz Xudo nomi bilan botirlik qilamiz, Dushmanlarimizni U tor-mor etadi.

Zabur 60

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUDNING CHOLG`ULI SANOSI.

2 Ey Xudo, dod-faryodimni eshitgin, Toat-ibodatimga quloq solgin! **3** Mening dilim qon bo`ldi-ku, Yerning olis burchidan Seni chaqiraman. O`zimdan baland qoyaga meni olib chiqqin! **4** O`zing menga panoh bo`lgansan-ku, Yovga qarshi mustahkam minora bo`lgansan. **5** Sening chodiringda boqiy qolarman, Qanotlaring soyasida osoyish toparman. SALOT **6** Ey Xudo, Mening nazr-niyozimni O`zing eshitding, Xudojo`ylar nasibasiga meni noil etding. **7** Podshoh kunlariga kunlar qo`shgin, Uning umri ayyomi davrlarcha davom etsin! **8** U Sening huzuringda abadiy tursin, Ey Xudo, amr bergin-kim, Inoyat va haqiqat unga yor bo`lsin doim! **9** Men Sening ismingni mangu kuylayman, Atagan nazrlarimni kundan-kun bajo etaman.

Zabur 61

IJROCHILAR RAHBARIGA. YEDUTUNGA BAG`ISHLANGAN DOVUD SANOSI.

2 Xudo oldida mening qalbim tinch, Faqat Undan kelar menga najot. **3** O`zidir suyanchig`im, najotkorim, Mustahkam qal`am mening; Men tebranmasman mutlaqo. **4** Qachongacha hammangiz erga yopirilasizlar? Go`yo egilgan paxsa, qiyshaygan g`ov bo`lganday, Unga qaqshatqich zarba berasizlar. **5** Uning nomiga dog` tushirishni ko`zlab, Yolg`on-yashiq gapga ruju qo`yasizlar. Ularning og`zidan-ku xayr duo to`kilur, Lekin yuraklarida zahru la`nat to`qilur. SALOT **6** Xudo oldida tinchlan, qalbim mening, Faqat Undandir mening umidim. **7** O`zidir suyanchig`im, najotkorim, Mustahkam qal`am mening; Men tebranmasman hech qachon. **8** Najotim va izzatim Xudodan kelur, Xudodir qudratli qoyam, panohim mening. **9** Har dam Unga umid bog`lang, ey mardum, Uning oldida yuraklaringizni oching; Xudodir bizning panohimiz. SALOT **10** Odamzod-ku - bir nafasgina, Bekzoda-chi - bir yolg`ondir. Ular ikkovi tarozida tortilsa, Nafasdan ham yengil bo`lib chiqarlar. **11** Talonchilikka umid bog`lamang, O`g`irliq-la behuda maqtanmang, Davlat oshib ketsa, unga ko`ngil qo`ymang! **12** Xudo bir daf`a so`zladi, Men ikki karra eshitdim: Qudrat Xudodan kelur, deya. **13** Inoyat ham Sendan kelur, yo Rabbii, Sen har kishini qilmishiga yarasha taqdirlaysan.

Zabur 62

YAHUDO CHO`LIDA BO`LGANDA DOVUDNING O`QIGAN SANOSI.

2 Ey Xudo, Sen mening Tangrimsan, Erta sahardan Seni izlayman, Senga tashnadir jon-dilim. Qurib, charchab, suvsiz qolgan tuproqday Vujudim Seni qo`msab qiynalmoqda. **3** Muqaddas makoningda Senga intizor bo`lib, Qudrating va jamolingni ko`ray deb turibman. **4** Sening inoyating hayotdan ham afzaldir, Sening madhingni tildan qo`ymayman. **5** Umrим bo`yi Senga sanolar o`qib, Sening noming-la ko`kka cho`zaman qo`llarim. **6** Ilik va charvidan to`ygandek jonim to`yar, Lab-dahanim esa Seni tarannum etar. **7** Yotganimda Seni xotirlayman, Kechalari Seni chuqur o`ylayman. **8** Qanotlaring soyasida tarannum etaman, Chunki Sen menga yordam berib kelding. **9** Jon-dilim ila Senga bog`langanman, Sening o`ng qo`ling meni qattiq ushlar. **10** Biroq jonimga qasd qilganlar esa Yerning

qa ríga tushib ketgaylar. **11** Ular qilich tig`idan halok bo`lg`ay, Chiyabo`riga o`lja bo`lg`aylar. **12** Podshoh bo`lsa Xudodan shod bo`lg`ay. Xudo nomi ila ont ichgan barcha Shu ko`yi iftixor topar; Illo yolg`onchilar og`zi kuyar.

Zabur 63

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudo, hasratli ovozimni eshitgin, Dushman dahshatidan meni omon saqlagin! **3** Yomon odamlarning fitna-fasodidan, Badkirdorlar g`avg`osidan meni himoya qilgin! **4** Ular tillarini shamshirday qayrab, O`q uzganday zaharini sochadilar. **5** Sofdil odamni pistirmadan poylab, Hech qo`rqmasdan, nogahon uni otadilar. **6** Ular yovuz niyatlarida qattiq turadilar, Domlarini yashirish uchun til biriktirib: «Ishimizni kim ham ko`radi-» - deydilar. **7** Ular yovuzlik rejalarini tuzib: «Rosa boplabmiz-da shu ishni!» - deydilar, Odamning yurak-bag`rini chuqur kovlaydilar. **8** Biroq Xudo ularga o`q otib, Nogahon ularni yaralaydi. **9** O`zlarining tillari orqali Xudo ularni yo`ldan qoqintiradi; Ularni ko`rgan barcha ulardan qochadi. **10** Butun odamzod vahm olib: Buni Xudo qilgan, deb tan oladilar, Xudoning faoliyatini fahmlab oladilar. **11** Solihlar Xudovanddan shodligu panohtopur, Barcha yuragi poklar esa U bilan iftixor etur.

Zabur 64

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI. QO`SHIQ.

2 Ey Xudo, Sen Sion maqtovlariga munosibsan, Senga atalgan nazr-niyozlar bajo bo`lg`usi. **3** Sen ibodatni eshitguchisan, Senga keladi barcha banibashar. **4** Gunohli ishlar meni yengmoqda, Qonunsizlik aybimizni Sen o`chirgaysan. **5** Saodatlidir unday kishi-kim, Sen uni ma bading hovlisiga kiritib, O`z huzuringga sazovor bilasan! Biz Sening uying farovonligidan, Muqaddas ma bading barakasidan qoniqaylik. **6** Ey Sen, bizning najotkor Xudoyimiz! Sen bizga mahobatu adolat ila javob berasan, Ey Sen, yerning to`rt burchi-yu, Olisdagi dengizlarning umidi! **7** O`z qudrating-la tog`larni o`rnatgansan, Sening libosing - haybat. **8** Sen dengizlar shov-shuvini,

To`lqinlar gumburlashini, Xalqlar shovqin-suronini tinchitasan. **9** Yer yuzi burchaklarida yashovchilar Sening g`aroyibotlaringni ko`rib qo`rqadilar. Sen kunchiqar va kunbotar yerlarini ham O`z sha`ningga tarannum ettirasan. **10** Sen yerni ziyorat etib, suvga qondirasan, Unga mo`l-ko`lchilik ato qilasan. Xudoning daryosi suv bilan to`lib-toshadi. Sen yerni shunday yaratding-kim, Odamlar uchun g`alla hosil etsin. **11** Dala jo`yaklariga suv tarab, Kesaklarini O`zing tekislaysan. Tuprog`ini yomg`ir bilan yumshatib, Unib-o`suviga baraka berasan. **12** Yilning mo`l-ko`lchiligi ta`minlanar, Sening izlaringdan farovonlik kelar. **13** Cho`ldagi o`tzorlar ham suvga qonib, Tepaliklar shodlik tusiga burkanar. **14** Yaylovlarga chorva yoyilar, Vodiylarda bug`doy to`lg`anar. Ular bari sevinchdan o`ynoqlab, Tantana bilan kuylaydilar.

Zabur 65

IJROCHILAR RAHBARIGA. CHOLG`ULI XONISH.

1 Ey butun yer yuzi, Xudo sha`ningga tantana qiling! **2** Uning ulug` ismini kuylang, Shon-shuhratini yuksaltiring! **3** Xudoga aytingiz-kim: Sening ishlaring qanday qo`rqinchli! Qudrating buyukligi tufayli, Dushmanlaring Senga bo`yin egarlar. **4** Butun dunyo Senga sajda qilsin, Seni tarannum etsin, ismingni kuylasin! SALOT **5** Keling-da, Xudo yaratganlarini ko`ringlar! U bani-insonga ne-ne mudhish ishlar ko`rsatdi! **6** U dengizni quruqlikka aylantirdi, Bani-Isroilni bahrdan piyoda o`tkazdi; Shul kez biz Undan chog` bo`ldik. **7** U O`z qudrati bilan abadiy hukm surar, Ko`zlari xalqlarga diqqat bilan boqar, Isyonchilar esa qad ko`tarmas aslo! SALOT **8** Ey xalqlar, Xudoyimizga sanolar o`qing, Unga tahsin-tasannolar yog`diring! **9** Bizning jonimizni O`zi barhayot saqlagan, Oyog`imizning toyib ketishiga yo`l bermagan. **10** Sen bizni sinab ko`rding, ey Xudo, Kumushni tozalaganday bizni tozalading. **11** Bizlarni to`rga ilintirib, Belimizga og`ir yuk qo`yding. **12** Insonni boshimizga mindirding, Bizni o`tga ham, suvga ham itqitding, Tag`in bizni farovonlikka erishtirding. **13** Men Sening uyingga borib, Qurbonliklar keltirib beraman, Atagan nazr-niyozlarimni bajo etaman. **14** Qayg`uli kunlarimda o`z og`zim bilan Bu haqda Senga va`da bergan edim. **15** Sening sha`ningga qo`chqorni

so`yaman, Dumba moyini kuydirib tutataman, Buqalaru takalarni bag`ishlayman. SALOT **16** Kelingiz, tinglangiz, ey siz, Barcha Xudodan qo`rqadiganlar! Jonim uchun U nelar qilganini hikoya etayin. **17** O`z og`zim bilan Uni chaqirar edim, Tildan qo`ymas edim hamdu sanosin. **18** Dilimda terslik bo`lsaydi gar, Rabbim meni tinglamas edi. **19** Holbuki Xudo menga quloq soldi, Duoyu ibodatlarim ijobat bo`ldi. **20** Xudo ibodatimni rad etmadi, Darig` tutmadi mendan inoyatin. Unga shon-sharaflar bo`lsin!

Zabur 66

IJROCHILAR RAHBARIGA. SOZLI SANO. QO`SHIQ.

2 Ey Xudo, Bizga mehribon bo`l, duo qilgin bizni, Munavvar yuzingni ustimizga porlatgin! SALOT **3** Yer yuzi bo`ylab rohing ma lum bo`lsin, Barcha xalqlar bilib olsin najoting! **4** Ey Xudo, xalqlar Senga shukr qilsin, Barcha xalqlar Senga shukrona aytsin. **5** Ellar bari sevinib tarannum etsin. Elatlarni Sen adolat ila hukm etasan, Yer yuzidagi qavomlarga yo`l ko`rsatasan. SALOT **6** Ey Xudo, xalqlar Senga shukr qilsin, Barcha xalqlar Senga shukrona aytsin. **7** Mana, yer o`z hosilini berdi, Xudo, bizning Xudoyimiz bizni duo qildi. **8** Ha, Xudo bizni doim duo qilsin, toki Yer yuzining to`rt burchagi Undan qo`rqsin!

Zabur 67

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI. QO`SHIQ.

2 Xudo ko`tarilsin, yovlari to`zisin, G`animlari Uning oldidan qochib ketsin! **3** Sen ularni tutunday tarqatib yubor! Otashda mum qanday erib ketsa, Fosiqlar Xudo oldidan shunday yo`q bo`lsin! **4** Solihlar bo`lsa sevinsinlar, Xudo huzurida shodiyona qilsinlar, Quvonch bilan tarannum etsinlar! **5** Qani, Xudoga kuylar ayting, Uning ismini tarannum eting! Bulut Chavandozini yuksaltiring! Uning nomi - Xudovanddir, Xursandchilik qiling huzurida! **6** Xudo O`zining muqaddas makonidadir, U yetim-yesirlarning Otasidir, Tul ayollarning Himoyachisidir. **7** Xudo yolg`izlarga uy-joy beradi, Zanjirbandlarni ozodlikka chiqaradi;

Isyonkorlar esa quruq cho`lda qolaveradilar. **8** Ey Xudo, Sen O`z xalqing oldiga chiqayotganingda, Biyobonda kezib qadam otayotganingda, SALOT **9** Xudo oldida, Isroilning Tangrisi oldida Yer Iarzagga keldi, Sinay tog`i tebrandi, Hatto falak ham erib sel bo`ldi. **10** Sen diyoringga baraka yomg`irini yog`dirding, Tetiklading-da holdan ketganda, ey Xudo. **11** Ummating u diyorda istiqomat qilganda, Bechorahollarga O`z ne ímatingni hozirlading, ey Xudo! **12** Rabbano e lon qilmoqda, Mujda keltirayotgan qizlar - ulkan qo`shin: **13** «Sarkardayu shohlar to`zday to`zg`ib ketyapti, Uyda qolgan ayollar o`ljani taqsimlashyapti». **14** Nahot siz qo`ralar aro yotaverasiz? Kaptarning qanotlari kumush ila qoplangan, Parlari yaltiroq oltin kabi tovlanar. **15** Jabbor diyoridan shohlarni to`zitganda, Zulmon tog`ini qor yog`ib bosdi. **16** Bashan tog`i - Xudoning tog`i, Bashan tog`i - yuksak tog`dir. **17** Xudo makonim deb tanlagan Sion tog`iga Nechun siz g`ilay qaraysiz, yuksak cho`qqilar? Mana, Xudovand unda abadiy davr surar! **18** Xudoning jang arobalari ming-mingu lak-lak, Ular ichra Rabbimiz O`zi kelyapti; U muqaddas makoni - Sinay tog`idadir. **19** Sen yuksaklikka chiqib, asirlarni asir olding, Insonlar aro hadyalar qabul qilding, Toki hatto osiy bandalar ham Sendan panoh topsin, yohu Xudovando! **20** Har kuni Rabbimizni olqishlang! Xudo bizga og`irlik qo`ysa-da, Bizni O`zi xalos qiladi. SALOT **21** Xudo biz uchun Xaloskor Tangridir, Qodir Rabbimiz qo`lidadir o`limdan najot. **22** Xudoning O`zi yovning boshini ezib tashlar, Gunohi bilan gerdayib yurgan sochli kallani majaq qilar. **23** «Bashandan qaytaraman, - dedi Rabbano, ? Dengiz tubidan qaytaraman seni. **24** Oyog`ingni yovning qoniga bulagaysan, Itlaring ham qon yalab-yalab to`ygay!» **25** Ular Sening tantanavor yurishlaringni, Yo Xudoyo, ey Tangrim, ey Podshohim, Sening muqaddas makonga chiqishingni ko`rdilar. **26** Oldinda xonandalar, orqada sozandalar, O`rtada childirmachi qizlar yurishardi. **27** Ey sizlar, Isroil urug`i bo`lganlar, Yig`inlarda Xudoyi Taologa sanolar o`qing! **28** Mana kenja Benyamin ularning yo`lboshchisi, Ular aro tumonat Yahudo amirlari bor, Zavulun va Naftoli beklari ham hozir edi. **29** Xudoying senga kuch atab qo`ygan. Bizga yaratganingni amalda ko`rsat, yo Xudoyo! **30** Quddus tepasidagi ma badingdan boshlab Podshohlar Senga hadya keltiradilar. **31** Qamishzorda yashovchi yovvoyi hayvonni, Xalqlar buzoqlari ichidagi

buqalar galasini cho`chitgin! Kumush yombilari ila yasanib yelib borayotgan Jangovar xalqlarni O`zing to`zitib yuborgil! **32** Misrdan hudaychilar keladi, Habashlar Xudoga qo`l cho`zadi. **33** Ey yer yuzi sultonliklari, Xudoni kuylang, Rabbimiz sha`niga xonish aylang! SALOT **34** Osmonu falak yuksakligiga mingan, Azaliy samovotdan tushgan Chavandozni kuylang! Mana, U O`z ovozigaga kuch berib xitob qilar. **35** Xudoning qudratiga tan beringlar! Uning salobati Isroilning ustidadir, Kuch-qudrati esa bulutlarda namoyondir. **36** Xudo O`zining muqaddas makonida vahimalidir, U Isroilning Tangrisidir, O`z xalqiga quvvat va g`alaba baxsh etar. Xudoni olqishlang!

Zabur 68

IJROCHILAR RAHBARIGA. «LOLAGUL» KUYIGA. DOVUD SANOSI.

2 Qutqargin meni, ey Xudo! Suvlar halqumimga qadar yetdi. **3** Chuqur botqoqlikka botganman, Oyoq qo`yadigan joyim yo`q. Tubsiz girdob og`ushida qoldim, Sel meni olib keta yozdi. **4** Men faryod qilaverib charchadim, Tomog`im qurib ketdi, Xudoni kutib ko`zim nuri so`ndi. **5** Mendan nohaq nafratlanayotganlar Boshimdagi sochlardan ham ko`p bo`ldi-ku! Menga behuda xusumat qilayotganlar juda zo`r, Ular meni xomush qilmoqchilar. Men hech na olmagan bo`lsam ham, Qaytarib berishga majbur etyaptilar. **6** Ey Xudo, aqlsizligimni O`zing bilasan, Aybdorligimni Sendan yashirmayman. **7** Yo Rabbiy, Sarvari koinot, Senga umid qilganlar uyatga qolmasin, Men sababli, ey Isroil Xudosi, Tavakkal qiluvchilar bo`lmasin xijolat! **8** Men Sen deb haqoratga chidayapman, Xijolatdan yuzim shuvut. **9** Aka-ukamga, o`z onamning o`g`illariga G`aribu begona bo`lib qoldim. **10** Sening uyingga bo`lgan rashkim Mening ichimni kemiryapti. Seni tahqir qiluvchilarning haqorati Mening boshimga tushdi. **11** Yig`lab, ro`za tutib jonimni qiynasam, Bu ham haqorat sanaldi menga. **12** Qanorni o`zimga ust-bosh qilganimda, Ular uchun afsona bo`ldim. **13** Shahar kirishida o`tirganlar og`ziga tushdim, Mayxo`rlar taronasiga hadaf bo`ldim. **14** Ey Xudovand, Sen lutf qilgan chog`ing Ibodatimni Senga yo`llayman, Ey Xudo, Sening inoyating

behad ekan, Menga qat íy najot yuborgin! **15** Meni balchiqdan chiqarib qo`y, botib ketmayin! Mendan nafratlanayotgan odamlardan, Chuqur suvlardan xalos bo`layin! **16** Sel suvlari meni olib ketmasin, Tubsiz chuqurlik meni yutmasin, Quduq og`zi ustimdan yopilmasin! **17** Menga quloq bergin, ey Xudovand! Sening lutfu karaming beqiyos, Rahmdilliging esa behisob ekan, Menga e fibor bergin! **18** Yuz o`girma qulingdan, Kulfatdaman, menga tez javob bergin! **19** Yaqinroq kelib, jonimni xalos qilgin, Menga najot ber, dushmanlarim uyalsin! **20** Boshimga ne-ne haqoratlar tushdi, Qanchalik rasvoyu sharmisor bo`ldim, O`zing bilasan! Yovlarimning hammasi Sening ko`z o`ngingda. **21** Sharmandalikdan yuragim qon bo`ldi, O`lar holatda darmonsizman. Shafqat kutdim, ammo behuda; Tasalli qidirdim, lekin topmadim. **22** Yemagim uchun menga zahar berdilar, Tashnaligimda menga sirka ichirdilar. **23** O`z dasturxonlari ularga qopqon bo`lsin, O`z hamsuhbatlari ularga tuzoq bo`lsin! **24** Ularning ko`z nuri so`nib qolsin, Bellari doim titraydigan bo`lsin! **25** Sen g`azabingni ularning boshiga soch, Qahringga duchor qil ularni! **26** Ularning maskani huvullab qolsin, Chodirlarida tirik jon qolmasin! **27** Sendan jafo chekkanlarni ular quvadi, Sen yaralagan odamlarning yarasini esa Qayta-qayta kovlaydilar. **28** Ularning gunohiga gunoh qo`shgin, Ularni mutlaqo oqlamagin! **29** Hayot kitobidan o`chirilsinlar, Solihlar bilan birga yozilmasinlar! **30** Men-ku bechoraman, azobdaman; Ey Xudo, O`z najoting ila meni tiklagin! **31** Qo`shig`imda Xudoning nomini sharaflayman, Shukronalar bilan Uni ulug`layman. **32** Ana shu har qanday tuyoqli, shoxli buqadan Yoki ho`kizdan ko`ra Xudovandga maqbul keladi. **33** Haqirlar buni ko`rib sevinadilar. Ey, barcha Xudoga intilayotganlar, Sizning dilingizga yana jon kirsin! **34** Xudovand bechoralar fig`onini eshitar, Asir tushgan O`z azizlarini xor qilmas. **35** Yer ham, ko`k ham, dengizlar ham, Unda qaynaydigan bor maxluqotlar ham Xudoga hamdu sanolar aytishsin! **36** Zero Xudo Sionga najot yuborib, Yahudo shaharlarini obodon qilajak. Ular diyorni egallab, tinch yashashajak. **37** Xudo qullarining nasli unga o`rnashajak, Xudo nomini sevguchilar unda huzur topajak.

Zabur 69

IJOCHILAR RAHBARIGA. DOVUDNING ESDALIGI.

2 Yo Xudoyo Xudovando, yordam bergin, Meni xalos qilmoqqa shoshilgin! **3** Jonimga qasd qilganlar sharmanda bo`lsin, Yuzlari shuvut bo`lsin! Menga yomonlikni istaganlar orqaga qaytib, Rasvoi olam bo`lsinlar! **4** Menga: «Ehe, eha!» - deganlar Sharmandalikdan parishon bo`lsinlar! **5** Barcha Seni qidiruvchilar quvonib, Sendan xursand bo`lsinlar! Sening najotingni orzu qilganlar: «Xudo ulug`dir!» - desinlar mudom. **6** Men ersam, bechora va faqirman, Ey Xudo, menga tez kelgin! Sensan yordamchim va Qutqaruvchim, Kech qolmagin, ey Xudovand!

Zabur 70

Qariganda Xudodan yordam so`rash

1 Ey Xudovand, Seni panoh tortib kelaman, Abadiy sharmanda bo`lmayin! **2** Adolating xotiri uchun menga najot bergin, Qulog`ingni men tomonga tutgin, Toki kulfatdan qochib xalos bo`layin! **3** Sen men uchun suyanar qoya bo`lgin, Doim qochib berkinar joyim bo`lgin! Meni qutqarmoqqa amr bergansan-ku, Yakka O`zingsan mening suyanchig`im, qo`rg`onim! **4** Ey Xudoyim, Qutqar meni fosiq odamlardan, Nopoku tajovuzkorlar panjasidan! **5** Mening umidim Sensan-ku, yo Rabbiy, Yoshligimdan beri ishonchimsan, ey Xudovand! **6** Tug`ilganimdan buyoq Senga suyanganman, Onam qornidan O`zing yorug` dunyoga chiqarding, Seni qanchalar madh qilsam ozdir. **7** Men ko`plar nazarida ajib bo`lib qoldim, Illo Sen mening qudratli panohimsan. **8** Savlating kun bo`yi ko`z o`ngimda mening, Hamdu sanoying tushmas tilimdan mening. **9** Qarigan chog`imda meni tashlab ketma, Quvvatim bitganda meni tark etma! **10** Dushmanlarim menga qarshi til biritmoqda, O`zaro kengashib, jonimga qasd qilmoqdalar. **11** «Xudo uni tashlab qo`ygan, deyaptilar, Quvib yetib tutinglar uni, Uni qutqaradigan qolmabdi-ku». **12** Ey Xudo, mendan uzoqlashma, Menga yordam bermoqqa shoshgin, ey Xudoyim! **13** Jonim dushmanlari sharmanda bo`lsin, yo`qolsin! Menga yomonlikni ravo ko`rganlar uyalsin, Rasvoi olam bo`lsinlar! **14** Menga qolsa, doim Senga

umid bog`layman, Senga maqtovlarni oshiraveraman. **15** Sening adolatingni kun sayin hikoya etaman, Najotkorligingni tildan qo`ymayman mutlaqo. Sinoatlaringni qancha bayon etsam ozdir! **16** Men Rabbimning kuch-qudratiga suyanib boraman, Sening haqiqatingdan bo`lak hech na tilga olmasman, ey Xudovand. **17** Yoshligimdanoq O`zing meni o`rgatgansan, ey Xudo, Hozirga qadar mo`jizalaringni xabarlab yuraman. **18** Ey Xudo, men qartayganimda ham, Sochimga oq tushganda ham meni tark etma, Toki shu naslga Sening qudratingni bayon etay, Kelajak avlodga esa botirligingni e`lon etay! **19** Ey Xudo, osmonday yuksakdir adolating, Sen ulug` ishlar bajargansan. Sen kabi kim bor, ey Xudo? **20** Sen meni ko`p yomon falokatlarga yo`liqtirding, Endi qayta jonlantirgin meni! Yerning qa`ridan qaytarib chiqargin meni! **21** Meni yana yuksaltirib, taskin bergin! **22** Ey Xudo, Senga shukrlar deyman, Sening sadoqatingni changda kuylayman, G`ijjak chalib Seni kuylayman, Ey Isroilning muqaddas Tangrisi! **23** Men Seni tarannum etaveraman, Labdahanim Seni kuylayversin, Sen qutqargan jonim ham kuylasin. **24** Adolatingni tildan qo`ymasman aslo. Menga yomonlik istaganlarni qarang, Ular sharmandayu, yuzlari shuvut bo`ldi!

Zabur 71

SULAYMON SANOSI.

1 Ey Xudo, Podshohga O`z haqqoniyatingni ato qilgin, Shahzodaga Sening adolating yor bo`lsin! **2** U Sening xalqingni haqqoniyat bilan, Faqirlaringni insof ila hukm etsin. **3** Toki tog`lardan elga osoyishtalik, Tepalardan adolat oqib kelsin. **4** U elning faqirlarini himoya qilsin, G`arib-g`urabolarni xalos etsin, Zolimni esa ezib tashlasin! **5** Quyosh balqib, oy chiqib turguncha, Barcha nasllar sendan qo`rqqaylar. **6** O`ti o`rilgan maysazorga tushuvchi yomg`ir kabi, Tuproqni sug`oradigan ko`k tomchilari singari Shoh diyorga barakat keltirgay. **7** U hukm surgan ayyomda solih yashnagay, Oy yo`q bo`lguncha tinchlik-osoyish bo`lgay. **8** Dengizdan dengizga qadar, Daryodan to yer chetlarigacha U hukm surgay. **9** Cho`l xalqi Uning oldida egilajak, Dushmanlari tuproqni yalayajak! **10** Tarshish va orollar shohlari Unga boj keltirajak, Shabo va Sabo shohlari

Unga hadya berajak. **11** Hamma podshohlar Unga sajda qilajak, Barcha millatlar Unga xizmat qilajak. **12** Zero U dodlab yurgan faqirni, Homiysi yo`q qashshoqni qutqarur. **13** Bechorayu miskinlarga rahmdillik ko`rsatur, Faqirlarning joniga ora kirur. **14** Hiylagar va zo`ravondan ularni ozod qilur, Nazarida ularning qoni juda qadrli bo`lur. **15** U uzoq yashasin! Unga Shabo oltinidan berilsin! Doimo U uchun duo qilgaylar, Kundan-kun Uni olqagaylar! **16** O`lka bo`ylab bug`doy hosili mo`l bo`lgay, Lubnon o`rmonlariday bo`lgay hosili, Tog`u tepa boshlarida hilpillagay. Shahar ahli esa yerdagi maysa kabi chechak otgay. **17** Shohimiz nomi mangulikka turajak, Quyosh turguncha dong`i oshajak. Barcha xalqlar U orqali baraka topajak, Hamma ellar Uni muborakbod etajaklar. **18** Mo`jizaviy ishlarni yolg`iz O`zi bajaruvchi Isroilning Tangrisi, Xudoyi Taoloni olqishlang! **19** Uning ulug`vor ismiga abadiy ofarinlar bo`lsin, Butun yer yuzi Uning shuhrati bilan to`lsin! Omin! Omin! **20** Ishay o`g`li Dovudning ibodatleri shu bilan tugadi.

Zabur 72

ASAF SANOSI.

1 Isroilga, ha, barcha dili poklarga Xudo doim himmatlidir. **2** Mening esa oyoqlarim qoqila yozib, Tovonlarim toyishiga oz qolgan edi. **3** Men fosiqlar sog`lomligini ko`rdim, Maqtanchoqlar holiga g`ashim keldi. **4** Ular o`lgundek iztirob chekmaydi, Tanlari esa soppa-sog`lomdir. **5** Ularda xalq dardi yo`q, Boshqa odamlarday baloga yo`liqmaydilar. **6** Gardanlariga mag`rurlik munchog`in taqib, Zo`ravonlik libosiga bezanganlar. **7** Ko`zlari semizlikdan qisilib qolgan, Ko`ngillaridagi xayollar daydib yuradi. **8** Mazax bilan, kek saqlab gapiradilar, Kibr ham, jabr ham tushmas tillaridan. **9** Og`izlarini ko`kka ko`targanlar, Zabonlari esa yerda sudralmoqda. **10** Hatto Xudo xalqi ular tomon yuz burmoqda, Ularda suv ko`p ekan, ichgan qonar ekan. **11** «Tangri qayerdan biladi? Taoloda bilim bormikan-» - deydi. **12** Ana shundaydir betavfiqlar, Bu dunyoda rohat-farog`atdadir, Davlatlari tobora oshib boradi. **13** Men bekorga pok saqlabman yuragim, Halol qo`lim-la ishlamog`im behuda ekan! **14** Men har kuni kulfatga yo`liqaman, Subhdan-subhga adabimni

yeyapman-ku! **15** Agarda shunday soʻzlayman, deganimda, Sening oʻgʻillaring nasliga xoinlik qilar edim. **16** Buni qanday tushunish kerak deb oʻylaganimda, Bu menga ovoragarchilikday tuyuldi ? **17** To Tangrining aziz makoniga kirib, Ularning xotimasini tushunib olgunimcha..! **18** Ha, Sen ularni toygʻoq yerlarga qoʻyding, Bexosdan tubi yoʻq jarlikka uloqtirarsan. **19** Ular nogahon dong qotib qolar, Dahshatdan supurilib, barham topar. **20** Uygʻonganda tush qanday esdan uchib ketsa, Sen, yo Rabbiiy, ularni shunday uygʻotib, Bemaʼni xayollarini barbod qilasan. **21** Mening yuragim qaynab turganda, Jon-tanim azobda qolganda, **22** Men nodon va johil boʻlib qoldim, Sening oldingda hayvon kabi edim. **23** Biroq men doim Sen bilanman, Sen mening oʻng qoʻlimdan tutib turasan. **24** Maslahating ila menga yoʻl koʻrsatib, Oxirida meni sharaf ila qabul qilasan. **25** Osmonda kimim bor Sendan boʻlak? Yerda ham Sendan oʻzgasini istamayman. **26** Badanim, yuragim holdan ketmoqda, Illo Xudo abadiy dilim suyanchigʻidir, Ezgulik qismatim Uning Oʻzidir. **27** Mana, Sendan uzoqda qolganlar yoʻqolur, Senga xoinlik qilgan har bir kishini nobud etasan. **28** Lekin men uchun Xudoga yaqinlashmoq yaxshidir. Uning barcha ishlarini targʻib qilay deyman, Xudoyi Taoloni oʻzim uchun panoh bilaman.

Zabur 73

ASAF QASIDASI.

1 Ey Xudo, Sen nechun bizni abadiy rad qilding? Nega Oʻz yayloving qoʻylariga qarshi qahring oʻt oldi? **2** Qadimdan sohib boʻlgan ummatingni eslagin, Oʻz xalqim deb qoʻlga kiritgan millatni, Maskanim deb tanlagan Sion togʻini ayagil! **3** Shu bepoyon xarobaga qarab odim otib boravergin: Dushman ma badingga qanchalik vayronagarchilik keltirgan! **4** Aziz makoning oʻrtasida yovlaring naʼra tortib, Tugʻ deb oʻz sanjoqlarini oʻrnatdilar. **5** Ular xuddi daraxtga bolta urgandek, Sening aziz makoningni boltalab tashladilar. **6** Ma badning hamma yogʻoch bezaklarini Boltayu tabarlar-la chopib tashladilar. **7** Ma badingni otashga berdilar, Isming oʻrin olgan aziz joyni haromladilar. **8** «Ularni batamom vayron qilamiz!» - deb koʻngildan kechirdilar, Mamlakatdagi barcha Xudo uylarini kulga

aylantirdilar. **9** Ilohiy alomatni topolmay qoldik, Nabi-anbiyo ham qolmadi bizda, Hech kim bilmaydi, qachongacha... **10** Ey Xudo, qachongacha g`anim haqorat etadi? Dushman ismingni abadiy so`karmikan? **11** Nechun qo`lingni, kuchli o`ng qo`lingni cho`zmay turasan? Qo`ltig`ingdan qo`lingni chiqar-da, yo`q qil ularni! **12** Ey Xudo, Sen qadimdanoq mening Podshohimsan, Zamin bo`ylab najotlar yuborguchi Xudosan. **13** Sen qudrating bilan dengizni yorib, Ajdaho boshlarini suvda yakson qilgansan. **14** Ha, Levatan boshlarini tilka-pora qilib, Uni cho`l ahliga yemish uchun tashlagansan. **15** Yangi chashmalaru anhorlarni yuzaga keltirib, Doim oqib kelgan daryolarni quritib yuborgansan. **16** Kunduz Seniki, kecha ham Senikidir, Yog`duni, quyosh nurini Sen bunyod etgansan. **17** Barcha yer chekkalarini o`rnatgan Sensan, Yozu qishni ta`sis etgan O`zingsan. **18** Shuni eslagin, ey Xudovand, Dushman Seni haqorat qildi, Olchoq bir qavm Sening ismingni so`kdi. **19** Kaptaring jonini yovvoyi hayvonlarga berma, Bechoralaring hayotini abadiy unutma! **20** O`z ahd-paymoningga e`tibor bergin, Zero diyorimizning qorong`u joylari Zo`ravonlik o`choqlari bilan to`lib ketgan. **21** Haqiru mazlum sharmandalarcha tislansin, Bechorayu kambag`al yana ismingga sanolar o`qisin! **22** Turgin, ey Xudo, O`z g`oyangni himoya qilgin! Kun bo`yi yog`ayotgan razillar haqoratini inobatga olgin! **23** Dushmanlaringning tovushini eshitmay qolmagin, Isyonchilar g`ulg`ulasi to`xtovsiz yuksalib boryapti-ku!

Zabur 74

IJROCHILAR RAHBARIGA. «XAROB ETMA» KUYIGA. ASAF SANOSI. QO`SHIQ.

2 Senga shukrlar deymiz, ey Xudo, Shukrlar deymiz, chunki Sening isming yaqin, Bunga O`z ajoyiboting guvohdir. **3** «Men belgilagan vaqtning o`zida To`g`rilik bilan hukm chiqaraman. **4** Yer va undagi borliq jon qaltiraganda, Uning ustunlarini O`zim o`rnida tutaman». SALOT **5** Manmanchilarga deyman: Manmanlik qilmang! Muguzingizni ko`tarmangiz, ey fosiqlar! **6** Ko`kka ko`tarmangiz muguzlaring, Kekkayib gapirmang-da g`oz yurib! **7** Zotan na Sharqdan, na G`arbdan, Na

cho'llardan odamga yuksaklik kelur. **8** Hokimi mutlaq faqat Xudodir, Birovni yerga urar, birovni yuksaltirur. **9** Mana, Xudovandning qo'lida kosa bor, Unda sharob ko'pirib qaynar; Shu kosadan U quyar-da, Zamindagi jami betavfiqlarga ichirar, Ular ichib-ichib, quyqasini ham yalab chiqar. **10** Shuni men abadiy xabar qilaman, Yoqubning Xudosiga tarannum etaman. **11** Fosiqlarning hamma shoxlari qirqilgusi, Solihlar muguzi esa yuksalib borgusi.

Zabur 75

IJROCHILAR RAHBARIGA. ASAF SANOSI. SOZLI QO'SHIQ.

2 Yahudo yurtida Xudo ma'lumdir, Isroilda Uning nomi buyukdir. **3** Salimda Uning makoni bo'lgan, Sionni O'ziga maskan qilib olgan. **4** O'sha yerda U lovullagan o'qlarni sindirib, Qalqonu, shamshiru jang yarog'larin Yakson qilgan edi. SALOT **5** Sendan nur yog'ilib turadi, Vahshiy tog'lardan ham bahaybatsan. **6** Dili botirlar o'lja bo'lib, O'lim uyqusiga yo'liqdilar; Erlarning hech biri qo'lga mador topolmadi. **7** Ey Yoqub Xudosi, Sening tanbehingdan Arava ham, ot ham karaxt bo'lib ketdi. **8** Sen, ha Sen - dahshatlisan; G'azabing kelganda oldingda kim tura olar? **9** Osmondan hukmingni bildirganingda, Yer qo'rqib, sukutga cho'mdi. **10** Ey Xudo, Sen hukm etmoqqa turganingda, Yerdagi barcha mazlumlarga qutulish umidi keldi. SALOT **11** Insonlar qahri Senga hamdu sanoga aylanadi, Qolgan g'azabni esa Sen bo'sundirasan. **12** Rabbingiz Xudovandga nazr atab, Uni bajo keltiringlar! Ey, barcha Uning atrofida bo'lganlar, Dahshatli Xudoga hadya keltiringlar! **13** U amirlar ruhini bo'sundirur, U dunyo podshohlari uchun qo'rqinchlidir.

Zabur 76

IJROCHILAR RAHBARIGA. YEDUTUNGA BAG'ISHLANGAN ASAF SANOSI.

2 Ovozim boricha Xudoga faryod qilaman, Ovozim Xudoga yetib boradi, U quloq soladi menga. **3** Og'ir kunimda Rabbimga iltijo qilaman, Tun bo'yi qo'limni uzatib, tushirmayman, Jonim esa tasallini rad qiladi. **4**

Xudoni eslab, titrayapman, Andisha qilib, jonim holdan toymoqda. SALOT **5** Sen ko`z yumishimga yo`l bermayapsan, Yuragim siqilib, so`zlay olmayman. **6** Men eski kunlarni, O`tgan davrlarni o`ylamoqdaman. **7** Kechalari chalgan ohanglarimni eslab, O`z qalbim ila suhbat qilaman, Ruhim so`rab-surishtirmoqda: **8** Nahotki Rabbimiz abadiy tashlab qo`yar, Boshqa hech qachon lutf-karam qilmas bizga? **9** Nahotki Uning inoyati tamoman ado bo`lgan, Kelgusi nasllarga yana vahiy kelmas bo`lsa? **10** Nahotki Tangri shafqat qilishni unutgan, Rahmdillik manbaini g`azabi to`sib qo`ygan bo`lsa? SALOT **11** Taoloning o`ng qo`li o`zgargani? Bu mening dardimning boisi, dedim. **12** Men Xudovandning ishlarini xotirlayman, U azaldan yaratgan barcha mo`jizalarini eslayman. **13** Sening butun amallaring haqida fikr yurgizib, Ko`rsatgan ajoyibotingni chuqur o`ylayman. **14** Ey Xudo, Sening yo`ling muqaddasdir, Xudomizdan ulug` iloh kim ekan? **15** Mo`jizakor Tangri faqat Sensan, Xalqlar aro qudratingni bildirgansan. **16** O`z xalqingni kuchli qo`ling-la ozod etib, Yoqub va Yusuf o`g`illarini qutqargansan. SALOT **17** Suvlar Seni ko`rdi, ey Xudo, Suvlar Seni ko`rdi-da qo`rqdi, Tubsiz ummonlar larzaga keldi. **18** Bulutlar yomg`irin quydi, Samoda momaqaldiroq gumburladi, O`qlaring to`rt tomonga uchib ketdi. **19** Dovul ichidan chaqmog`ing gumburladi, Barqlaring dunyoni yoritib yubordi, Yer yuzi qaltirab ostin-ustin bo`ldi. **20** Sening yo`llaring dengizdan o`tdi, Rohlaring azamat suvlardan kechdi. Izlaring esa - noma lumdir. **21** Muso va Horun qo`li bilan Sen Xalqingni suruv kabi yetaklab bording.

Zabur 77

ASAF QASIDASI.

1 Ey xalqim, Qonunimga diqqat eting, Og`zimdan chiqqan o`g`itlarni tinglang! **2** Masal aytmoq-chun og`iz ochaman, Azaliy sirlarni bayon etaman. **3** Eshitgan hamda bilganlarimizni, Ota-bobolarimiz bizga aytganlarini **4** O`z o`g`il-nabiralarimizdan yashirmaylik, Kelajak naslga ham xabar etaylik Xudovandning shon-shuhratiyu buyuk qudratin, Uning ko`rsatgan barcha mo`jizalarin. **5** U Bani-Yoqub uchun nizom o`rnatgan, Isroil o`g`illariga Tavrotni yo`llagan. O`g`illaringizga ularni o`rgating deb,

Ota-bobolarimizga buni amr etgan-kim, **6** Kelgusi nasl, tug`ilajak o`g`illar ham bilsin, Ular esa o`z davrida o`z o`g`illariga o`rgatsin. **7** Toki ular Xudoga umid bog`lasinlar, Tangri yaratgan ajoyibotni unutmasinlar, Amr-farmonlariga esa amal qilsinlar. **8** Zinhor, ota-bobolarimiz kabi o`jar va isyonkor, Yuragi tosh, Xudoga sadoqatsiz nasl bo`lmasinlar. **9** O`q-yoy bilan qurollangan Efraim o`g`illari Jang kunida orqaga qaytdilar. **10** Ular Xudo buyurgan ahdni tutmadilar, U yuborgan Tavrot yo`lidan yurmoq istamadilar. **11** Uning ajoyibotini esdan chiqarib, Ko`rsatgan mo`jizalarini unutdilar. **12** Misr diyorida, So`an dashtida Ularning ota-bobolari oldida Xudo mo`jizalar ko`rsatgan edi: **13** Dengizni yorib, o`rtasidan ularni o`tkazdi, Suvlarni bir devor kabi qilib qo`ydi. **14** Kunduzi bulut bilan ularni yetaklar, Tunlari esa otash yorug`i ila yo`l ko`rsatar edi. **15** Ular uchun cho`l-biyobonda qoyalarni yorib, Katta girdobday suv chiqarib berdi. **16** U qoyalardan oqizgan suvlar Ulkan daryoga aylanib qoldi. **17** Ammo ular gunoh qilishda davom etib, Sahroda Xudoyi Taoloni g`azablantirdilar. **18** Nafslariga qarab ovqat talab qilib, Ko`ngillarida Tangrini sinab ko`rdilar. **19** Xudoga qarshi so`zlab, shunday dedilar: «Tangri cho`lda dasturxon yozolarmikan? **20** Darvoqe, U qoyani yorib suv chiqazgan, Shunda selday suvlar oqqan edi. Ammo nahot xalqiga non ham berar, Go`sht ham hozirlay bilar ekan-» **21** Xudovand bularni eshitib g`azablantirdi, Bani-Yoqubga o`t-suv bo`ldi, Isroilga qarshi jahlgaga mindi. **22** Chunki ular Xudoga inonmadilar, Tan bermadilar-da najotkorligiga. **23** Shunga qaramay, U yuqoridan bulutlarga amr etdi, Osmon qopqalarini ochib yubordi. **24** Yemoq uchun ularga manna yog`dirdi, Ha, samoviy g`alla berdi ularga. **25** Odamzod farishtalar nonini yedi, Ularga to`yguncha ozuqa yubordi. **26** Ko`k yuzidan U sharq shamolini qo`zg`atdi, Qudrati bilan janub yelini estirdi. **27** Ularning ustiga to`zondek go`sht yog`dirdi, Dengizdagi qumday qush-parranda shay qildi. **28** Ular manzilining o`rtasigayoq, Chodirlari atrofigacha bularni yog`dirdi. **29** Ular qorni to`yguncha yeb-ichishdi, Nafslari qonguncha, ularga berdi. **30** Hanuz ishtahalari uzilmagan, Luqmalari hamon og`izlarida ekan, **31** Ularga qarshi Xudo qahri keldi, U Isroil yigitlarini qirdi, Eng baquvvatlarini o`ldirdi. **32** Shunga qaramay, ular yana gunoh qildilar, Xudovandning mo`jizalariga inonmadilar. **33** U ularning kunini

ovoragarchilikda, Umr yillarini dahshat ichida bitirdi. **34** Tangri ularni o`ldirayotganda ular o`girilib, Tongdanoq Uning huzuriga yugurishar edi. **35** Xudo ularning najot qoyasi bo`lganini, Xudoyi Taolo ularni qutqarib kelganini eslardilar. **36** Lek og`izlari-la Unga xushomad qilar, Tillari-la Unga yolg`on so`zlardilar. **37** Uning oldida yuraklari qiyshaygan edi, Buyurgan ahdiga bevafoqlik qildilar. **38** Shunga qaramay, U rahmdillik ko`rsatdi, Gunohlaridan o`tib ularni halok etmadi. Necha martalab qahrini ulardan qaytarib, Butun g`azabini birdan to`kmadi. **39** U bilar ediki, ular o`tkinchi maxluqdir, Chiqib ketib, qaytib kelmas nafasginadir. **40** Necha martalab cho`lda Uning g`ashini keltirdilar, Dasht-biyobonda Uni g`azablantirdilar! **41** Ular Xudoni qayta-qayta sinadilar, Isroilning muqaddas Tangrisini ranjitudilar. **42** Ular Uning qudratli qo`lini, Ularni jabr-zulmdan qutqargan kunini, **43** Uning Misrda ko`rsatgan ajoyibotini, So`an dashtida ko`rgazgan g`aroyibotini esdan chiqardilar. **44** Xudo Nil daryosini qonga aylantirdi, Misrliklar suv icholmay qoldi. **45** Ularni chaqsin deya hasharot galasini yubordi, Qirib bitirsin deya qurbaqalarni yo`lladi. **46** Ularning hosilini chigirtkaga berdi, Mehnatlari samarasini qurtlarga yedirdi. **47** Uzumzorlariga do`l yog`dirdi, Tut-anjirlarini yax bilan xarob etdi. **48** Hayvonlarini do`lga duchor qildi, Podalarini barq otashiga berdi. **49** Ularga qarshi qahr-g`azabi o`t oldi, Boshlariga jahl, zug`um, balolar keltirdi, Talay qiruvchi malaklarni ham yubordi. **50** Tangri O`z g`azabiga yo`l ochdi-yu, O`limdan saqlamadi ularning jonini, Vaboyu qirg`inga topshirdi mollarini. **51** Misrda har bir to`ng`ich farzandni urdi, Hom chodirlaridagi bor erkaklik g`ururini yo`qotdi. **52** Xudo O`z xalqini qo`ylar kabi haydab chiqardi, Cho`lda ularni suruv kabi yetaklab bordi. **53** Ularni bexatar boshlab bordi, ular qo`rqmadi, Dushmanlari esa dengizga ko`mildi. **54** Ularni O`zining muqaddas o`lkasi hududiga, O`ng qo`li egallagan bu toqqa keltirdi. **55** O`z oldidan el-elatlarni quvib chiqardi, Isroil avlodlariga u yerni meros qilib berdi, Ularni yovning chodirlarida joylashtirdi. **56** Ular esa hali ham Xudoyi Taoloni sinab, xafa qilardilar, Nizom-qoidalariga rioya etmasdilar. **57** Otalari kabi orqaga qaytib xoinlik qildilar, O`qi adashgan kamon kabi egri ketdilar. **58** Tepadagi sanamlarga topinib Uni xafa qildilar, O`yma butlarga sajda qilib rashkini qo`zg`atdilar. **59** Xudo buni eshitib g`azabga mindi, Isroildan

juda qattiq achchiqlandi. **60** Odamzod ichra U olgan O`z o`rnini, Shilo`da qurgan maskanini tashlab qo`ydi. **61** O`z shonu shavkatin asirlikka muhtalo qildi, Dushmanlar qo`liga berdi O`z sharafin. **62** O`z xalqini qilichga topshirdi, O`z mulkidan g`azabi keldi Xudoning. **63** Ularning yigitlarini o`t yoqib bitirdi, Qizlari nikoh qo`shiqlarini aytmay qoldi. **64** Ruhoniylari qilichdan o`tkazildi, Tul xotinlari yig`layolmay qoldi. **65** O`sha vaqt Rabbim uyqudan turgan kabi, Sharobdan kayf qilgan botirday uyg`ondi. **66** Dushmanlariga zarba berib orqaga qaytardi, Ularni abadiy sharmandalikka duchor qildi. **67** Xudo Yusuf qavmini rad etgan, Efraim naslini tan olmagan bo`lsa-da, **68** Lekin Yahudo avlodini tanlab oldi, O`zi sevgan Sion tog`ini sayladi. **69** O`zining aziz makonini falak kabi yaratdi, Yer kurrasiday mangu o`rnatdi uni. **70** Xudo O`z quli Dovudni tanlab, Uni qo`y qo`ralaridan olib chiqdi. **71** O`zining xalqi bo`lgan Bani-Yoqubni, O`ziga ayirib olgan Isroilni boshqarmoq uchun, Dovudni mol boquvchilikdan ozod qilib yuksaltirdi. **72** U esa dil sofligi ila ularga cho`pon bo`ldi, Mahoratli qo`llari-la ularga boshchilik qildi.

Zabur 78

ASAF SANOSI.

1 Yot xalqlar Sening diyoringni bosib oldi, Muqaddas ma`badingni murdor qildilar, Quddusni xarobaga aylantirdilar, ey Xudo. **2** Qullaring jasadini yem uchun ko`k qushlariga, Azizlaring etini dasht hayvonlariga berdilar. **3** Quddus atrofida ularning qonini suvdek to`kib, Ularni ko`madigan biror kishi ham qoldirmadilar. **4** Qo`shnilarimiz ko`zi oldida rasvoi jahon bo`ldik, Atrofdagilarga kulgi va masxara bo`ldik. **5** Ey Xudovand, Qachongacha to`xtovsiz g`azab sochasan? Qachongacha rashking otashday yonaveradi? **6** Seni tanimaydigan millatlar ustiga, Ismingni tilga olmaydigan o`lkalar uzra Qahringni to`kib tashlagin! **7** Ular Yoqubning boshini yeb yutdilar, Uning yurtini talon-taroj qildilar. **8** Otalarimizning gunohlarini bizga eslatma, Darrov rahm-shafqatingni biz tomon yo`lla! Chunki biz juda ham xo`rlandik. **9** Ey, najotkor Xudomiz! Isming hurmati uchun bizga yordam bergin, O`z noming xotiri uchun bizni qutqargin, Gunohlarimizdan kechib yuborgin! **10** Nima uchun yot

xalqlar: «Ularning Xudosi qayerda-» - desin? Qullaringning to`kilgan qonlari badaliga Xalqlardan o`ch olgin, ko`zlarimiz ko`rsin! **11** Mahbuslar nolasi Senga yetsin! O`linga mahkum bo`lgan odamzodni Buyuk qudrating bilan asragin! **12** Yo Rabbiy, Qo`shnilarimiz Senga qilgan haqoratlarini Yetti marta ko`paytirib o`z bag`riga qaytargin! **13** Mana bizlar - Sening xalqingmiz, Sening yayloving qo`ylarimiz! Senga abadiy shukrona aytamiz, Nasldan-naslga maqtovingni oshiraveramiz.

Zabur 79

IJROCHILAR RAHBARIGA. «LOLAGUL» SHAHODATI. ASAF SANOSI.

2 Ey Isroilning Cho`poni, bizni tinglagin! Zuhur etgin, ey, Yusufni suruvday boshqargan, Malaklar ustida taxt qurgan Xudo! **3** Efraim, Benyamin, Manashe avlodlari oldida O`z qudratingni namoyon qilgin, Bizni qutqarishga kelgin! **4** Ey Xudo, bizni asl holimizga keltirgin, Munavvar yuzingni ko`rsatgin, Bizlar najot topaylik! **5** Ey Xudovand, Sarvari koinot, Qachongacha xalqing ibodatiga darg`azab bo`lasan? **6** Sen bizga ko`z yoshi bilan non yedirding, Kosa-kosa ko`z yoshi ichirding. **7** Qo`shnilarimizning biz bilan talashuviga sabab bo`lding, Dushmanlarimiz bari mazax qilmoqdalar. **8** Ey Xudo, Sarvari koinot, Bizlarni asl holimizga keltirgin, Munavvar yuzingni ko`rsatgin, Bizlar najot topaylik! **9** Misrdan tok novdasini keltirding, Xalqlarni quvib uni o`tqazding. **10** U uchun yer tayyorlagan eding, U chuqur ildiz yoyib mamlakatni qopladi. **11** Hatto tog`lar ham uning soyasi ostida qoldi, Tangri daraxtlaridaydir uning tarmoqlari. **12** Uning butoqlari dengizga qadar, Shoxlari esa Frot daryosigacha yoyilgan edi. **13** Endi nega Sen uning ihotalarini buzding? O`tgan-ketgan uning unumini yulib tashlamoqda. **14** O`rmon to`ng`izlari uning ildizini yemirmoqda, Yovon jonivorlari novdasini g`ajib tashlamoqda. **15** Ey Xudo, Sarvari koinot, Bizga qaytib kelgin, axir! Osmondan boqib panoh bergin, Shu tokning ahvolini ko`rib ketgin! **16** O`z qo`ling bilan o`tqazgan ko`chatni, O`zing uchun o`stirgan o`g`lonni asragin! **17** Mana, uni chopib, otashda yondiryaptilar, Ular Sening tanbehg`azabingdan yo`q bo`lsin! **18** O`ng tomoningga ravo ko`rgan mard uzra,

O`zing uchun o`stirgan inson o`g`li uzra qo`ling bo`lsin! **19** Biz endi Sendan yuz o`girmaymiz, Jonimizga O`zing jon bo`lgin, Toki Sening nomingni chaqirib yuraylik. **20** Ey Xudovand, Sarvari koinot, Bizlarni asl holimizga keltirgin, Munavvar yuzingni ko`rsatgin, Bizlar najot topaylik!

Zabur 80

IJROCHILAR RAHBARIGA. GAT SOZIDA. ASAF SANOSI.

2 Quvvatimiz - Xudoni tarannum eting, Yoqub Xudosiga shodlanib xitob qiling! **3** Xonish qiling, childirma chaling, Xushovoz g`ijjak ila chang cherting! **4** Yangi oyda, belgilangan vaqtda, Bayram kunimizda burg`u chaling! **5** Chunki bu Isroilning qonunidir, Yoqub Xudosining farmonidir. **6** Xudo Misr yeriga qarshi chiqqanda, Men tushunmaydigan bir til eshitdim, U shuni Yusufga nizom qilib berdi: **7** «Uning yelkasidagi yukini yengillashtirdim, Qullik bo`yinturug`idan ozod etdim qo`lin. **8** Musibat kuni fig`on ko`targaningda, Men senga najot yo`lladim, Guldurosli bulut ichidan senga javob berdim, Isyongoh suvlari bo`yida seni sinadim». SALOT **9** «Tingla, xalqim, seni jiddiy ogohlantiraman, Ey Isroil, koshki Menga quloq solsang! **10** Orangda boshqa tangri bo`lmasin, O`zga el xudosiga bosh egmagin! **11** Misr diyoridan seni olib chiqqan Rabbing, Xudovand - O`zimirman. Og`zingni katta och, Men uni to`ldirarman». **12** «Biroq xalqim gapimga quloq solmadi, Isroil Menga bo`ysunmoq istamadi. **13** Men ularni o`jarliklari bo`yicha qoldirdim, Mayli o`z xayollari bilan borsinlar, deya». **14** «Qani edi xalqim Menga quloq solsa edi, Isroil Mening yo`llarimdan yursa edi! **15** Dushmanlarini bir onda mag`lub qilar edim, Jabr etuvchilari uzra qo`limni bosar edim. **16** Xudobezorlar unga laganbardorlik qilar, Uning ezgu qismati esa mangu bo`lar edi. **17** Senga bug`doyning a losini yedirar edim, Qoyadan asal oqizib seni to`ydirar edim».

Zabur 81

ASAF SANOSI.

1 Xudo ilohiy majlisda turib, Ilohiylar orasida hukmini yuritdi. **2** Qachongacha siz nohaq hukm qilasizlar, Fosiq odamlarga yuz-xotir qilasizlar? SALOT **3** Qashshoq va yetimning da'vosini qiling, Bechorayu kambag'alga insof ko'rsating! **4** Darmonsizu faqirni xalos qiling, Fosiqlar qo'lidan ozod eting ularni! **5** Ular bilmasdan va anglamasdan zulmatda kezmoqda, Hatto yerning negizlari larzon urmoqda. **6** «Men aytdim: Sizlar xudolarsiz, Hammangiz ham Taoloning o'g'illarisiz. **7** Shunga qaramay, inson kabi o'lasizlar, Har qanday rais kabi yiqilasizlar». **8** Turgin, ey Xudo, yer yuzini hukm etgin! Barcha xalqlarning Sohibi Sensan-ku!

Zabur 82

ASAF SANOSI. QO'SHIQ.

2 Ey Xudo, indamay turmagin, Jim bo'lma, sukutda qolma, ey Tangrim! **3** Mana Sening dushmanlaring to'polon qilmoqda, Xudobezorlar bosh ko'tarmoqdalar. **4** Sening xalqingga suiqasd qilmoqdalar, O'z himoyangga olganlaringga qarshi Mug'ombirona kengash o'tkazmoqdalar. **5** «Yuringlar, ularni millat sifatida yo'q qilaylik, Isroil nomi boshqa esga olinmasin!» - deyaptilar. **6** Ular bir jon, bir dil bo'lib, Senga qarshi ittifoq tuzdilar. **7** Mana, Edom va Ismoil chodirlari, Bani-Mo'ov va hajriylar, **8** Jabal, Ammon va Omoleq o'g'illari, Filistiylar hamda Tir aholisi, **9** Hatto Assiriya ham ularga qo'shilib, Lut o'g'illarini qo'llab-quvvatlagan. SALOT **10** Sen Qisho'n darasida midyonliklarni, Shohlari Sisaro va Yobinni to'ntargan eding, Endi xuddi shunday ularni to'ntarib yuborgin! **11** Ular-ku Ayn-Do'rda poymol bo'lgan edilar, Ha, yer uchun go'ngga aylangan edilar. **12** O'rib va Zaibga qanday muomala qilgan bo'lsang, O'zlariyu ulug'lariga xuddi shunday muomala qilgin; Beklari Zavoh va Salmunoga qanday qilgan bo'lsang, Ularning jami sarkardalarini ham shu ko'yga solgin! **13** «Xudo o'tloqlarini o'zimizga mulk qilib olamiz!» - deb aytishgan edi-ku ular. **14** Ey Xudoyim, ularni quyundagi to'zonday, Uyurmadagi somon kabi uchirib yuborgin! **15** Alangada o'rmon yongani

kabi, Olov tog`larni kuydirgani kabi, **16** Sen bo`ron chaqirib ularni haydab tashla, Boshlariga to`fon keltirib dahshatga solgin! **17** Sening nomingga rijo etishlari uchun Ularning yuzini shuvut qilgin, ey Xudovand! **18** Ular abadiy sharmandayu sarosima bo`lsin, Rasvoi jahon bo`lsinlar, yo`qolsinlar! **19** Bilsinlarki, Sening isming - Xudovand, Butun dunyoda eng oliy yolg`iz Sensan.

Zabur 83

IJROCHILAR RAHBARIGA. GAT SOZIDA. QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI.

2 Ey Xudovand, Sarvari koinot, Sening maskanlaring qanday azizdir! **3** Xudovand huzurini sog`inib ko`nglim ado bo`ldi, Jonu tanim barhayot Tangrini tarannum etadi. **4** Mana, qushcha ham o`ziga qo`nolg`a topgan, Qaldirg`och palaponlarim uchun joy topay deya, Sening qurbongohlaring aro uyasini qurgan, Ey Xudovand, ey Sarvari koinot, Mening Podshohim va Xudoyim! **5** Sening uyingda manzil topganlar baxtlidir! Ular tinimsiz Senga hamdu sano aytadilar. SALOT **6** Dil so`qmoqlari Sen tomon burilgan, Seni quvvatim deb bilgan odamlar baxtli! **7** Hasrat vodiysidan o`tar ekanlar, Uni chashmazorga aylantiradilar, Baraka yomg`irlari esa unumini oshirar. **8** Ular qadam bosgan sari kuchayaverib, Sionda Xudoning huzurida hozir bo`ladilar. **9** Ey Xudoyi Taolo, Sarvari koinot, Ibodatimni tinglagin! Quloq solgin, ey Yoqub Xudosi! SALOT **10** Ey Xudo, bizning Himoyachimiz, Tanlagan Podshohingga iltifot-la qaragin! **11** Ma bading hovlisida o`tgan bir kun Boshqa ming kundan afzaldir, Fosiqlar chodirida yashagandan ko`ra, Xudoyim uyi eshigida turganim yaxshidir. **12** Xudovandi karim quyosh va qalqondir, Inoyat va izzat baxsh etadi Xudovand; To`g`ri yurganlardan darig` tutmas ne ímatin. **13** Ey Xudovand, Sarvari koinot, Baxtlidir Senga umid bog`lagan inson!

Zabur 84

IJROCHILAR RAHBARIGA. QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI.

2 Ey Xudovand, Sen O`z diyoringga iltifot ko`rsatib, Bani-Yoqubni asoratdan qaytargansan. **3** Xalqingning gunohidan o`tib, Barcha ayblarini kechirgansan. SALOT **4** Butun g`azabingni qo`yningga solib, Lovullab yonayotgan qahringdan tushgansan. **5** Ey, najotkorimiz Xudo! Yana bizni asl holimizga keltirgin, Bizga qarshi jahlingni barham ber! **6** Nahot bizga abadiy g`azablanib, Avlodlarcha qahringni sochaverasan? **7** Nahot xalqing Sendan shodlanmog`i-chun, Bizni qaytadan jonlantirmaysan? **8** Ey Xudovand, lutf-karamingni ko`rsatib, Bizlarga najot bergin! **9** Tangri Taolo nelar so`zlayotir, Quloq solayin: U O`z xalqiga, O`zining ahli mo`miniga tinchlikdan so`zlayotir, Toki ular yana tentaklikka qaytmasinlar. **10** Xudotarslar najoti juda yaqindir, Diyorimizda izzat-hurmat qaror topgay. **11** Inoyat va haqiqat uchrashgay, Adolat va tinchlik o`pishgay. **12** Haqiqat yerdan unib chiqqay, Adolat esa ko`kdan yoqqay. **13** Xudovand barakatin bergay, Diyorimiz hosilin bergay. **14** Adolat Uning oldidan yurgay, Qadamlarini yo`lga solgay.

Zabur 85

DOVUDNING IBODATI.

1 Qulog`ingni men tomon tutib, Javob bergin, ey Xudovand; Chunki men faqir va miskinman. **2** Jonimni asragin, negaki xudojo`yman. Senga umid qilgan qulingni qutqargin, yo Xudoyim! **3** Menga mehribon bo`l, ey Xudovand, Men har kun Senga yolvormoqdaman. **4** Qulingning ko`nglini sevintirgin, Senga, yo Rab, ko`ngil bog`laganman. **5** Sen muruvvatli va kechirimlisan, ey Xudovand, Barcha Seni chaqirganlarga karaming cheksizdir. **6** Mening ibodatimga quloq solgin, Hasratli ovozimni eshit, ey Xudovand! **7** Musibat kunida Seni chaqiraman, Chunki Sen menga javob berasan. **8** Xudolar orasida Senga o`xshashi yo`q, Ishlaringning tengi ham yo`q, ey Xudovand. **9** Sen yaratgan barcha xalqlar kelib, Sening huzuringda sajda qiladilar, Ismingni sharaflaydilar, ey Xudovand. **10** Zero Sen juda buyuksan, Mo`jizalarni paydo qilasan. Yolg`iz Sen - Xudosan.

11 O`z yo`lingni menga o`rgatgin, ey Xudovand, Toki haqiqat so`qmog`ingda yurayin, Ismingdan qo`rqmoq-chun yuragim butun bo`lsin! **12** Yo Rabbim, chin yurakdan Senga shukr deyman, Abadiy ismingni sharaflayman, yo Xudoyim! **13** Sen menga buyuk inoyat ko`rsatding, Tubandagi do`zaxdan jonimni qutqarding. **14** Takabbur odamlar menga qarshi ko`tarilgan, G`addorlar to`dasi jonimga qasd qilgan, yo Xudo, Ular Seni xayollariga ham keltirmaydi-ku! **15** Ammo Sen mening Rabbimsan, Rahmdil va mehribon Tangrimsan. Sen juda uzoq sabrlisan, Inoyating va sadoqating ham ko`p. **16** Men tomonga yuz burib, mehribon bo`lgin! Shu qulingga quvvat bergin, Kanizaging o`g`liga najot bergin! **17** Baxtim uchun bir alomat yaratgin, Toki mendan nafratlanganlar buni ko`rib, Sharmanda bo`lsinlar! O`zing mening yordamchimsan-ku, ey Xudovand, Menga tasalli berib kelasan.

Zabur 86

QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI. QO`SHIQ.

1 Poydevori aziz tog`lardadir Sionning! **2** Barcha Yoqubning maskanlaridan ko`ra, Xudovand sevadi Sion darvozalarin. **3** Seni zo`r ehtirom ila tilga olurlar, Ey Xudoning shahri! SALOT **4** Tanishlarim aro Misr ila Bobilni eslaturman, Filistiya, Tir, Habashiston haqida so`ylashib: «Mana bu odam o`sha yerda tug`ilgan», - derlar. **5** Sionga esa shunday aytajaklar: «Har bir kishi o`sha yerda tug`ilgan, Xudoyi Taolo O`zi uni mustahkamlagan». **6** Xudovand xalqlarni ro`yxatga olgan paytda: «Falon kishi bu yerda tug`ilgan», - deb yozib qo`yajak. SALOT **7** Xonandayu cholg`uchilar tarannum etishajak: Mening barcha manbalarim Sendadir, deb.

Zabur 87

QO`RAH O`G`ILLARI SANOSI. QO`SHIQ. IJROCHILAR RAHBARIGA. «QAYG`U-ALAM» KUYIGA. EZRAHLIK HEYMAN QASIDASI.

2 Ey Xudovand, najotkorim Xudo, Kecha-kunduz Senga nola qilib turaman. **3** Ibodatim oldingga yetib ijobat bo`lsin, Faryod-fiG`onimga quloq solgin! **4** Chunki musibatlardan jonim to`ygan, O`liklar diyoriga yaqinlashgandir hayotim. **5** Go`rga ketayotganlar bilan bir sanalaman, Madori qurigan odamday bo`lib qoldim. **6** O`liklar orasiga tashlanganman, Qabrda yotgan tig` qurbonlaridayman. Sen ularni boshqa eslamaysan, Ular yiroq tushgan qo`lingdan. **7** Sen meni chuqurlik tubiga qo`yding, Zulmat, zimziyo mag`oraga tashlading. **8** G`azabing ustimga og`ir yukday cho`kdi, Mavju sellaring ila meni ezib qo`yding. SALOT **9** Tanishlarimdan meni uzoqlashtirding, Ularni mendan jirkantirding; Qamalganman, chiqa bilmayman. **10** Azob-uqubatdan ko`zlarim xiralashdi, Har kun Seni chorlayman, ey Xudovand, Qo`llarimni Senga qarata cho`zib yotaman. **11** O`liklarga mo`jiza ko`rsaturmikansan? Marhumlar turib Senga shukr qilurmikan? SALOT **12** Nahotki qabrda Sening lutfu karamingni, Talafot diyorida haqiqatingni maqtasalar? **13** Nahotki zulmatda, unutilganlar diyorida Sening ajoyib, odil ishlaringni bilsalar? **14** Biroq men Senga faryod qilyapman, ey Xudovand, Subhdanoq ibodatim Seni qarshilar. **15** Ey Xudovand, nega jonimni rad qilding? Ne sababdan mendan yuz o`girding? **16** Men g`aribman, yoshligimdan boshlab so`nmoqdaman; Sening dahshatlaringni ko`raverib holdan toydim. **17** G`azabing o`ti ustimdan o`tib jonimni o`rtadi, Vahimalaring meni tamoman xazon qildi. **18** Selday bo`ldi-ku meni o`rab olganlar, Kun bo`yi meni iskanjaga olmoqdalar. **19** Mahbubu do`stimni mendan yiroqlashtirding, Tanishim qorong`ulikka ko`milib qoldi.

Zabur 88

EZRAHLIK EYTAN QASIDASI.

2 Ey Xudovand, Sening mehr-inoyatingni abadiy kuylayman, Tildan qo`ymasman haqiqating-da to abad. **3** Inoyating mangu asoslangan, dedim, Sadoqating falakda mustahkamlangan. **4** Sen degan eding-kim: «Men O`z tanlaganim ila ahd tuzganman, Qulim Dovudga qasamyod qilganman: **5** Sening zurriyotingni abadiylashtiraman, Taxtingni nasldan-nasлга o`tkazaman», deb. SALOT **6** Ey Xudovand, ko`k Sening ajoyibotingni kuylasin, Malaklar jamoatida haqiqatingga tan berilsin! **7** Osmonu falakda Xudovandga tengi bormikan? Ilohiy zotlar ichra Xudovand kabi bormikan? **8** Malaklar majlisida Tangri bir haybatlidir, Atrofidagilarning hammasi uchun qo`rqinchlidir. **9** Ey Xudovand, Sarvari koinot, Sen kabi qudratli kimdir? Sadoqating butun atrofni egallagan, ey Xudovand! **10** Dengiz mavj urganda, Sen hukmronsan, To`lqinlari ko`tarilganda, ularni Sen tinchitasan. **11** Rahab bilan jang qilding tor-mor qilding, Kuchli qo`ling-la dushmanlaringni to`zitib yubording. **12** Osmon Seniki, yer ham Senikidir, Dunyo va uning borlig`ini Sen bunyod etgansan. **13** Shimol va Janub tomonlarni Sen yaratgansan, Tobur va Hermon tog`lari ismingni kuylar. **14** Sening qudrat-iqtidoring mislsizdir, So`l qo`ling kuchli, o`ng qo`ling muzaffardir. **15** Taxting asosi adolat va haqqoniyatdir, Inoyat va sadoqat esa doim huzuringdadir. **16** Ey Xudovand, baxtlidir unday xalqki, G`oliblarcha tantana qilishni biladi, Sening yuzing nuri bilan yuradi! **17** Isming ila xalq kun sayin sevinar, Adolating orqali el yuksalib borar. **18** Xalqing quvvatiyu savlati faqat Sensan, Sening roziliging ila biz g`alaba qozonamiz. **19** Bizning qalqonimiz yolg`iz Xudovanddir, Muqaddas Isroil Xudosining amridadir shohimiz. **20** Qadimda Sen o`z azizingga vahiy yuborib degansan: «Men bir botirga yordam yo`lladim, El orasidan arzandamni yuksaltirdim. **21** Qulim Dovudni topdim, Muqaddas moyim-la uni surkadim. **22** Qo`lim abadiy unga yor bo`lur, O`zim unga kuch-quvvat beraman. **23** Dushman uni yengib olmas, Mug`ombir unga sitam bermas. **24** Yovlarini uning ko`z o`ngida qulataman, G`animlarini yer bilan yakson qilaman. **25** O`z sadoqatim va inoyatim unga yor bo`lar, Mening nomim bilan u g`alaba

quchar. **26** Uning soʻl qoʻlini dengiz uzra, Oʻng qoʻlini esa nahrlar uzra qoʻyaman». **27** «U meni chaqirib deydi-kim: Sen - mening Otamsan, Xudoyim, najot topadigan qoyamsan. **28** Men uni toʻngʻich oʻgʻlim deb, Dunyo podshohlaridan yuqori qoʻyaman. **29** U uchun inoyatimni abadiy saqlayman, U bilan ahdim sobit boʻlgay. **30** Uning zurriyotiga mangu umr berib, Taxtini koʻk kunlariday davom ettiraman». **31** «Mabodo uning oʻgʻillari Tavrotimdan chiqib, Qonunlarim bilan yurmasalar, **32** Mabodo qonun-qoidalarimni buzib, Amrlaringa boʻysunmasalar, **33** Unda Men qonunbuzarlarni xivich ila, Gunohkorlarni yara-jarohat ila jazolayman. **34** Lekin oʻzidan inoyatimni darigʻ tutmay, Sadoqatimni sira oʻzgartirmayman. **35** Tuzgan ahdimni aslo buzmay, Bergan soʻzimdan qaytmayman. **36** Bir marta muqaddasligim haqi ont ichib, Dovudga yolgʻon soʻzlarmikanman? **37** Uning zurriyoti abadiy yashar, Taxti qarshimda quyosh kabi turar. **38** Koʻk yuzidagi barhaq shohid - oy kabi, U ham mangu sobit turar», - degan eding. SALOT **39** Biroq endi Sen dargʻazab boʻlding, Tanlaganingni qahr bilan siltab tashlading. **40** Quling bilan qilgan ahdingni mensimay, Uning tojini tuproqqa qording. **41** Barcha devorlarini yiqitib, Qasrlarini vayronaga aylantirding. **42** Yoʻldan oʻtayotgan barcha uni talamoqda, Qoʻshnilari oldida u masxara boʻldi. **43** Yovlarining qoʻllarini baland qilding, Butun dushmanlarini sevintirding. **44** Hatto qilichi uchini qaytarding, Jangda uni qoʻllamading. **45** Uning dovrugʻini bitirding, Taxtini esa yerga urding. **46** Yoshlik kunlarini qisqartirding, Yuzi qaro qilding. SALOT **47** Qachongacha, ey Xudovand..? Oʻzingni abadiy yashiraverasanmi? Qachongacha gʻazabing otash kabi yonar? **48** Umrim naqadar qisqa ekan, esda tutgin! Qanday ovoragarchilik uchun yaratgansan odam bolalarin! **49** Qanday er borki, yashab, oʻlim yuzi koʻrmas ekan, Oʻliklar diyoridan esa qutqarar ekan jonin? SALOT **50** Dovudga ichgan ontingga sadoqat koʻrsatgin, Avvalgi lutf-karaming qayerda qoldi, yo Rabbiy? **51** Quling qanchalik sharmanda boʻlganini, Butun qudratli xalqlarning jabr-sitamini Qanday bagʻrimda koʻtarib yurganimni esda tut, ey Xudovand! **52** Dushmanlaring qanday tahqir etganlarini, Tanlaganing izlarini qanday tahqir etganlarini Esda tut, ey Xudovand! **53** Xudovandga abadiy shon-sharaflar boʻlsin! Omin! Omin!

Zabur 89

XUDO ODAMI NABI MUSONING IBODATI.

2 Yo Rabbiy, Sen barcha nasllarimizga panoh eding. **3** Tog`lar vujudga kelmasidan oldin, Yer va koinot bunyod bo`lmasidan burun, Azaldan va ilalabad Sen Tangrisan. **4** Sen insonni tuproqqa qaytarasan, «Ey odam o`g`illari, qaytinglar!» - deysan. **5** Mana, Sening nazaringda ming yil ? O`tib ketgan kechagi kun kabi, Bir tun qorovulligi qadardir. **6** Odamlarni selday supurib tashlaysan, Ular uyqu singari o`tib ketadilar, Subhda ko`karib chiqqan o`tga o`xshaydilar. Subhda o`t ko`karib gul ochar, Oqshomda esa so`lib, qurib ketar. **7** Mana, Sening qahr-g`azabingdan Biz vahimalanib, tugab boryapmiz. **8** Sen gunohlarimizni qarshingga keltirding, Sirli ishlarimizni yuzing nuriga chiqarib qo`yding. **9** Bor kunlarimiz Sening g`azabing ostida o`tdi, Yillarimizni oh bilan boy berib qo`ydik. **10** Umrimiz muddati yetmish yil ekan, Yoki bardamlik bersa sakson yil ekan, Uning cho`qqisi ham jaf va zahmatdir. Hayot tezlik bilan o`tar, Mana, biz uchib ketamiz! **11** G`azabing shiddatiga kimning fahmi yetar? Qahring dahshatini kim o`lchar ekan? **12** Kunlarimizni sanashni bizga o`rgatgin, Toki dono qalb egasi bo`laylik! **13** Qaytgin bizga, ey Xudovand, qachongacha..? Qullaringga rahm aylagin! **14** Subhda yana inoyating ila bizni to`ydirgin, Toki umrimiz boricha shod bo`lib kuylaylik. **15** Bizni ranjitgan kunlar evaziga, Baloga yo`liqtirgan yillar evaziga Bizni tag`in sevintirgin! **16** Qullaringga ulug` ishlaringni ko`rsatgin, Qullaring o`g`illariga ham ulug`liging oshkor bo`lsin! **17** Yo Rabbimiz Xudo, marhamating bizga yor bo`lsin, Qo`llarimizga O`zing baraka ato etgin, Qo`l urgan barcha ishlarimiz o`ngsin!

Zabur 90

Qodir Tangri soyasida yashash

1 Kimki Xudoyi Taoloning panohida yashar, Qodir Tangri soyasida orom topar ekan, **2** U Xudovandga aytadi: O`zingsan boshpanam, qasrim mening, Umidim faqat Senda, ey Xudoyim! **3** Xudo seni ovchi qopqonidan ham, Vabo-qazodan ham xalos etar. **4** U O`z parlari bilan seni

yopar, Qanotlari ostida bexatar bo`lasan; Haqiqati senga qalqon va to`siq bo`lar. **5** Na tungi vahimadan qo`rqasan, Na kunduzi uchayotgan o`qdan, **6** Na zulmatda kezuvchi vabodan, Na qiyom chog`i qiruvchi o`latdan. **7** Sening yoningda mingtasi yiqilib, Tuman qulab ketsa-da o`ng yoG`ingda, Balo-qazo senga yaqin yo`lomas. **8** Sen faqat ko`zlaring bilan boqib, Fosiqlarga berilgan jazoni ko`rasan. **9** Xudovandni panohim deb bilganing uchun, Haq Taoloni qo`rg`onim deganing uchun, **10** Tushmas boshingga biron-bir falokat, Yo`lomas chodiringga ham qandaydir o`lat. **11** U O`z farishtalariga sen haqda amr etgay, Toki butun yo`llaringda seni asrasinlar. **12** Ular seni qo`llarida ko`tarib ketar, Oyog`ing ham toshga qoqilib ketmas. **13** Sher va bo`g`ma ilon ustidan bosib o`tasan, Arslon va ajdarni ezib tashlaysan. **14** «U Menga mehr bog`lagani-chun qutqazaman, Nomimni tan olgani-chun omon saqlayman. **15** U Meni chaqirgan choG`ida javob beraman, Qayg`uli kunida u bilan birga bo`laman, Uni xalos etib hurmatga sazovor qilaman. **16** Uzoq umr berib ko`nglini to`yg`azaman, Najotkorligimni unga namoyon qilaman».

Zabur 91

DAM OLISH KUNI SANOSI. QO`SHIQ.

2 Qanday yaxshidir Xudovandga shukr etmoq, Sening ismingni kuylamoq, yo Rabbi Taolo! **3** Subhdanoq inoyatingni xabarlamok, Kechalari esa sadoqatingni tan olmoq, **4** O`n torli soz va tanburda Seni kuylab, G`ijjakda ham ohang chalmoq yaxshidir. **5** Ey Xudovand, O`z ijodlaring ila meni sevintirding, Yaratganlaringdan qoyil bo`lib kuylayman. **6** Ishlaring qanday buyukdir, ey Xudovand, Juda terandir andishalaring Sening! **7** Befahm kishi buni bila olmas, Nodon odam buni anglab yetmas. **8** Betavfiqlarning o`t kabi chechak otishi, Hamma qonunsizlarning yashnabgullashi Ularning abadiy yo`q bo`lishi uchundir. **9** Lekin Sen, ey Xudovand, Abadulabad ulug`vorsan! **10** Dushmanlaringga qara, ey Xudovand, Mana, dushmanlaring yo`q bo`ladilar, Barcha qonunsizlar tarqalib ketadilar! **11** Yovvoyi buqa qanday shoxini ko`tarib yursa, Sen boshimni shunday ko`tarib yurgizasan, Meni yog`ing-la surtib jonimni kirgizasan. **12** Yovlarim yiqilganini o`z ko`zim-la ko`rdim, O`z qulog`im

bilan eshitdim faryodini Menga qarshi qo`l ko`targan yovuz dushmanning. **13** Solihlar xurmo daraxti kabi gullab-yashnar, Lubnondagi kedr daraxtidek yuksalib ketar. **14** Xudovandning uyida o`tqazilgan barchalar Xudoyimiz hovlilarida yayrab-yashnaydilar. **15** Mo`ysafidlikda ham mo`l meva beradilar, Bardam va shirador bo`ladilar. **16** Xudovandning haqligini xabar qiladilar, Qoyam Udir, Unda nohaqlik yo`q, deydilar.

Zabur 92

Xudovand - mahobatli Hukmron

1 Xudovand saltanat surmoqda; Ulug`vorlik bilan kiyingandir U, Qudrat kamarin bog`lab yasangandir Xudovand. Mana, dunyo qaror topgan, u tebranmas aslo. **2** Sening taxting qadimdan mustahkamlangan, Sen azaliy O`shasan, ey Xudo! **3** Mana, daryolar shovqini, ey Xudovand, Mana, daryolar shovqini ko`tarildi! Nahrlar shov-shuvi juda balandladi! **4** Ko`p suvlarning shovqinidan ko`ra, Azim dengiz dolg`alaridan ko`ra, Yuqoridagi Xudovand juda mahobatlidir. **5** Sening vahiylaring shakshubhasizdir, Uyingga ilalabad muqaddaslik yarashur, Ey Xudovand!

Zabur 93

Xudo dunyoni odilona hukm etadi

1 Yo Xudovando, intiqomlar Tangrisi! Yo intiqomlar Tangrisi, zuhur etgin! **2** Ko`tarilgin, ey yerni Hukm qiluvchi, Mag`rurlarning jazosini bergin! **3** Qachongacha betavfiqlar, ey Xudovand, Qachongacha betavfiqlar tantana qiladilar? **4** Badkirdorlar hammasi og`zini katta ochib, Balandparvoz gaplar-la kekkayib yuradilar. **5** Ey Xudovand, Sening xalqingni tepkilab, Ummatingga jabr-jafo bermoqdalar. **6** Beva va g`ariblarni o`ldirib, Yetimlarni nobud qilmoqdalar, **7** «Xudovand ko`rmas», - deya, «Yoqub Xudosi bilmas», - deya. **8** Ey elning tentaklari, aqlga kiringlar! Qachon hushingizni yig`asiz, ey ahmoqlar? **9** Quloqni yasagan eshitmaydimi? Ko`zni yaratgan ko`rmaydimi? **10** Nahotki odam bolalariga aql o`rgatuvchi, Xalqlarga tanbeh beruvchi Xudo fosh qilmasa? **11** Xudovand insonlarni biladiki, Ularning fikr-xayolotlari behudadir. **12**

Yo Xudoyo, baxtlidir O`zing tanbeh beradigan, Qonuning orqali aql o`rganadigan kishi! **13** Uni yomon kundan sog`-omon saqlaysan, To fosiq uchun chuqur qazilmaguncha... **14** Xudovand O`z xalqini tark etmas, O`z ummatin tashlab qo`ymas mutlaqo. **15** Chunki hukm-farmon adolatga qaytajak, Hamma pokdillar esa uning payidan bo`lajak. **16** Yomon odamlar oldida kim meni yoqlaydi? Badkirdorlar qarshisida kim meni oqlaydi? **17** Xudovand yordamchim bo`lmasaydi gar, Allaqachon jonim chiqar, Sukunat diyorida yotar edim. **18** Oyog`im qoqila yozdi, deganimda, Lutfing meni qo`lladi, ey Xudovand. **19** Ichimda qayg`ularim toshib borganida, Taskinlaringdan ko`nglim quvonchga to`ldi. **20** Qonundan qiyshiq hukmlar chiqaradigan Insofsiz qozilarga Sen sherik bo`larmiding? **21** Ular-ku solihga qarshi hujumga yopirilib, Begunoh qonni yerga qormoqchilar. **22** Illo Xudovand mening istehkomimdir, Ha, panoh topar qoyamdir Xudoyim mening. **23** Ularning fosidligini U o`z boshlariga solar, O`z yovuzliklari bilan ularni qirib tashlar; Ha, bizning Rabbimiz - Xudovand O`zi ularni qirib tashlar.

Zabur 94

Xudoga topinish va bo`ysunishga undov

1 Kelinglar, Xudovandni kuylaylik, Najotimiz Qoyasini olqishlab xitob qilaylik! **2** Uning huzuriga shukrona aytib yaqinlashaylik, Unga sevinchli qo`shiqlar-la xitob qilaylik! **3** Chunki Xudovand - ulug` Tangridir, Butun xudolar ustidan buyuk Podshohdir. **4** Yerning tubsiz qa`ri Uning qo`lidadir, Tog`lar cho`qqilari ham Unga qaramdir. **5** Dengiz Uniki, uni yaratgan O`zidir, Quruqlikni ham Uning qo`llari bunyod etgan. **6** Kelinglar, Unga yuz tuban sajda qilaylik, Parvardigorimiz oldida tiz cho`kaylik! **7** Chunki U bizning Xudoyimizdir, Bizlar esa - Uning yaylovining xalqi, Uning qo`li ostidagi qo`ylarmiz. Koshki bugun Uning ovozigga quloq solsangiz! **8** «Cho`lda, isyon va sinov kunida bo`lganday, Yana yuragingizni tosh qilmanglar! **9** O`shanda otalaringiz Meni sinov qildilar, Ishimni ko`rib turib, imtihon qildilar. **10** Qirq yil bu nasldan bezor bo`lib dedim: Bular dilidan adashgan bir qavmdir, Mening yo`llaringa

rioya qilmadilar. **11** Men g`azablanib ont ichdimki, Ular Mening farog`at diyoringa kirmas ».

Zabur 95

Xudoni butun jahon kuylasin

1 Xudovandga yangi qo`shiq ayting! Ey butun yer yuzi, Xudovandni kuylang! **2** Xudovandni kuylab, ismiga sanolar o`qing, Najotkorligini kundan-kunga e lon qiling! **3** Shon-shuhratini xalqlar orasida xabarlang, Mo`jizalarini barcha ellarga bildiring! **4** Xudovand buzrukvordir, U ko`p maqtovga sazovordir; Barcha xudolardan ko`ra Undan qo`rqmoq kerak. **5** Chunki barcha xalqlarning xudolari - but, Xudovand esa osmonu falakni yaratgandir. **6** Uning huzurida - savlat va mahobat, Aziz makonida esa qudrat va hashamatdir. **7** Ey xalq qabilalari, Xudovandga tan bering, Uning shuhratiyu qudratiga tan bering! **8** Xudovandning ismi sharafiga tan bering, Siylov bilan Uning huzuriga kiring! **9** Muqaddas ko`rkda Xudovandga sajda qiling, Butun yer yuzi Uning oldida titrasin! **10** Xalqlar orasida e lon qiling: Xudovand - Hokimi mutlaqdir, Dunyo qaror topgan, u tebranmas aslo. Xalqlarni U to`g`rilik bilan hukm etadi. **11** Osmon sevinsin, yer xursand bo`lsin, Dengiz va uni to`ldirgan borliq jo`sh ursin! **12** Dalalar va ulardagi borliq jon yayrasin, O`rmondagi butun daraxtlar Xudovandni kuylasin! **13** Chunki mana, Xudovand keladi! U keladi-yu, yerni hukm etadi; U koinotni O`z adolati bilan, Dunyo xalqlarini haqiqati ila hukm etadi.

Zabur 96

Xudovandning qudrati va saltanati

1 Xudovand Hokimi mutlaqdir. Yer xursand bo`lsin, Butun orollar sevinsin! **2** Bulutlar va zulumot Uning atrofidadir, Haqqoniyat va adolat taxtining asosidir. **3** Uning oldida otashu olov yugurar, Atrofdagi dushmanlarni kuydirib tashlar. **4** Uning yashinlari dunyoni yorqin qildi, Yer buni ko`rib titramoqda. **5** Xudovand oldida, Butun yerning Egasi oldida Tog`lar mumday erib ketmoqda. **6** Ko`k Uning adolatini e lon qilar,

Ulug`vorligini barcha xalqlar ko`rar. **7** Uyalsin barcha sanamga bosh eguvchilar, Butlari bilan maqtanib yuruvchilar! Hamma xudolar Haqqa sajda etsinlar! **8** Ey Xudovand, odil hukmlaringni eshitgach, Sion quvondi, Yahudo qizlari shod bo`ldi. **9** Ey Xudovand, butun yer uzra eng yuksagi Sensan, Barcha xudolarga qaraganda Sen juda yuqorisan. **10** Ey sizlar, Xudovandni sevganlar, Yovuzlikdan nafratlaning! Azizlarining jonini U saqlar, Betavfiqlar qo`lidan xalos etar. **11** Solihlar yo`liga nur sochilgay, Dili to`g`rilarga xurramlik nasib etgay. **12** Ey solihlar, Xudovanddan xursand bo`ling, Muqaddasligiga tan berib hamdu sano qiling!

Zabur 97

SANO.

1 Xudovandga yangi bir qo`shiq ayting! Chunki U mo`jizalar yaratdi, O`zining o`ng qo`li, muqaddas qo`li Unga zafar keltirdi. **2** Xudovand O`z najotkorligini ko`rsatdi, Xalqlar o`ngida odil hukmini namoyon qildi. **3** Isroil xalqiga bo`lgan inoyatu sadoqatini esladi, Yerning to`rt burchi Xudoyimiz najotini ko`rdi. **4** Ey butun yer yuzi, Xudovandni olqishlang, Quvnab kuy kuylang, cholg`u chaling! **5** Xudovand sha`niga g`ijjak chaling, G`ijjak chalib qo`shiqlar ayting! **6** Karnay va surnay tovushlari bilan Podshohimiz Xudovandni kuylang! **7** Dengiz va undagi barcha mavjudot, Dunyo va unda yashaydiganlar jo`sh ursin! **8** Xudovand oldida daryolar qarsak ursin, Tog`lar ham qo`shilib tarannum etsin! **9** Chunki U yerni hukm etgali keladi. U keladi-da, dunyoni adolat bilan, Xalqlarni odillik bilan hukm qiladi.

Zabur 98

Xudoyi Taoloning mutlaq saltanati

1 Xudovand - Hokimi mutlaqdir, Elu xalqlar titrab ketar. Malaklar uzra saltanatlidir U, Yer yuzi larzaga kelar. **2** Sionda Xudovand buyukdir, Barcha xalqlar ustidan oliydir. **3** Sening ismingni tan olsinlar, ey Xudovand, Ulug` va qo`rqinchli, muqaddasdir isming. **4** Podshohning qudrati adolatsevarlikdadir. O`zing to`g`rilikni mahkam o`rnatgansan, yo

Rab, Bani-Yoqubga adolat va haqqoniyat ko`rsatgansan. **5** Rabbimiz - Xudovandni ulug`lang, Uning oyog`iga yiqilib sajda qiling! U - muqaddasdir. **6** Uning ruhoniylari aro Muso va Horun bor edi, Ismini chorlaganlar ichra Shomuil hozir edi. Ular Xudovandni chaqirganlarida, U ularga quloq solar edi. **7** Xudo bulut ustunidan ularga so`zlar, Ular esa U bergan nizom-qoidalarga amal qilishar edi. **8** Sen ularga quloq solar eding, yo Rabbiy. Ey Xudovand, Sen ularning aybini kechiruvchi, Yomon qilmishlariga yarasha jazo ham beruvchi bir Tangri eding. **9** Rabbimiz - Xudovandni ulug`lang, Muqaddas tog`ida Unga sajda qiling! Chunki Rabbimiz - muqaddasdir.

Zabur 99

SHUKRONALIK SANOSI.

1 Ey butun yer yuzi, Xudovandni olqishlang! **2** Xudovandga xursandchilik ila xizmat qiling, Huzuriga hayqiriqlar ila yaqinlashing! **3** Bilingki, Xudovand - Haq Xudodir, Uning O`zi bizni yaratgan, Bizlar - Unga tegishlimiz, O`z xalqiyu yaylovining qo`ylarimiz. **4** Ma bad darvozalariga shukrona aytib kiring, Maqtovlar aytib Xudoning huzuriga keling, Unga shukr qilib, ismiga hamd o`qing! **5** Chunki Xudovand ezgudir, abadiy inoyatlidir, Sadoqati esa davrdan-davrga hukm surar.

Zabur 100

DOVUD SANOSI.

1 Lutfu karaming va adolatingni kuylab, Seni tarannum etaman, ey Xudovand. **2** Benuqsonlik yo`li haqida fikr yuritaman. Sen qachon men tomonga kelasan? Xonadonim ichra sof dilim ila yuraman. **3** Razil narsani ko`z o`ngimga keltirmayman, Buzuqilar qilmishidan nafratlanaman, Bunday narsa menga yopishmas aslo. **4** Ters ko`ngil mendan uzoqlashadi, Yovuzlar bilan aloqam bo`lmaydi. **5** Do`stini orqavorotdan g`iybat qilganni Men yo`q qilaman - chiday olmayman hech Ko`zlari mag`rur, o`ziga bino qo`ygan odamga. **6** Ko`zlarim mamlakatning mo`minlaridadir, Ular mening soyamda o`rnashurlar. Sofdil odam menga xizmat qilur. **7**

Hiylagarlar mening huzurimda yashamas, Yolg`onchilar turmas hech qarshimda. **8** Sahar demay mamlakatning bari fosiqlarin Yo`q qilaman - quritib tashlayman-da Badkirdorlar ildizin Xudovand shahridan.

Zabur 101

DARD-ALAMGA BOTGAN VA ARZINI XUDOVAND OLDIGA TO`KKAN G`ARIBNING IBODATI.

2 Ey Xudovand, ibodatimni eshitgin, Faryodim Senga yetib borsin! **3** Musibat kunimda mendan yuz o`girma, Qulog`ingni men tomon tutgil; Chaqirgan chog`im menga tez javob bergin! **4** Mana, kunlarim tutun kabi o`tib ketdi, Suyaklarim - bamisli so`xta o`tin! **5** Yuragim quyoshdan qovjiragan o`tdayin, Hatto nonimni yeyishni ham unutyapman. **6** Men ohuzor qilaverib, Etim suyagimga yopishib qoldi. **7** Men cho`l-biyobonda yashovchi soqqaqushga, Vayronalarda qo`nuvchi boyo`g`liga o`xshayman. **8** Ko`zimga uyqu kelmay qoldi, Tom ustida yolg`iz qolgan qush kabiman. **9** Dushmanlarim har kun meni haqoratlamogda, Ismimni tahqirlovchilar la`nat o`qimoqdalar. **10** Men kulni non deb yeyapman, Ichimligimni ko`z yoshim-la aralashtiryapman. **11** Sening qahru g`azabing tufaylidir bu, Sen meni ko`tarding-u, yerga urding. **12** Ko`lanka uzaygandek kunim bitdi, Qurigan o`t singari qaqshab ketdim. **13** Lekin Sen abadiy hukmronsan, ey Xudovand, Davrlar osha davom etar shon-shuhrating Sening. **14** Sen ko`tarilib Sionga marhamat etgaysan, Ana, unga mehribonlik qilish vaqti keldi, Ha, vaqt-soati yetib keldi! **15** Uning toshlariga qullaring mehr qo`ygan, Hatto gardu to`zonini ham ayamoqdalar. **16** Ey Xudovand! Elu xalqlar va butun jahon podshohlari Sening mahobatli ismingdan qo`rqadilar. **17** Mana, Xudovand Sionni obod qilajak, O`zining mahobati bilan zohir bo`lajak. **18** Ma`yuslar ibodatiga e`tibor berajak, U xor qilmagay aslo toatlarin. **19** Ushbular kelajak nasl uchun yozilsin, Toki tug`ilajak qavm hamdu sano o`qisin! **20** Xudovand muqaddas yuksakligidan engashadi, Yerga boqadi osmoni falakdan ? **21** Mahbuslar nolasini eshitay deya, O`lib ketadigan odamzodni qutqaray deya. **22** Sionda Xudovand ismini sharaflasinlar, Quddusda xabar qilsinlar shon-shuhratin. **23** Shunda barcha xalqlar jam bo`lajak, Mamlakatlar

Xudovandga xizmat etajak. **24** Yo`limda U quvvatimni oldi, Kunlarimni O`zi qisqartirdi. **25** Umrим yarmida meni olma, dedim, Sening yillaring davrlarcha davom etar, yo Rabbim! **26** Sen yerni azaldan yaratgansan, Osmon esa qo`llaring amalidir. **27** Ular yo`q bo`lib ketar, Lekin Sen turaverasan. Hammasi kiyimday nurab ketar, Ularni joma kabi almashtirasan, Ular esa o`zgarib ketar. **28** Biroq Sen ayni O`shaning O`zisan, Yillaring tamom bo`lmas Sening. **29** Qullaring o`g`illari o`zlariga makon topajak, Ularning zurriyoti esa Sening huzuringda bexatar yashayajak.

Zabur 102

DOVUD SANOSI.

1 Ey jonim, Xudovandni olqishla! Uning muqaddas ismini olqishlang, Ey, butun a`zoyi badanim! **2** Ey jonim, Xudovandni olqishlagin, Unutma Uning biron-bir ehsonini! **3** U butun ayb-gunohlaringni kechirar, Barcha xastaliklaringga davo topar; **4** Hayotingni go`r azobidan qutqarar, Boshingga inoyatu marhamat tojin taqar; **5** Ko`nglingni ne`matlar bilan qondirar, Yoshliging kuchini burgut kuchiday yangilar. **6** Xudovand adolatli hukm chiqarar, Barcha ezilganlar huquqini himoya qilar. **7** U O`z yo`llarini Muso payg`ambarga, Ishlarini Bani-Isroilga namoyon qilgan. **8** Xudovand rahmon va mehribondir, Juda uzoq sabrli va inoyatlidir. **9** U oxirigacha arazlab yurmas, To abad darg`azab ham bo`lmas. **10** Ayblarimizga qarab bizga muomala qilmas, Gunohlarimizga yarasha bizga jazo bermas. **11** Osmon yerdan qanchalik yuksak bo`lsa, Undan qo`rqqanlarga inoyati shunchalik ko`pdir. **12** Sharq G`arbdan qanchalik uzoqda bo`lsa, Yoziqlarimizni bizdan shu qadar uzoqlashtirdi. **13** Ota farzandlariga qanday marhamat qilsa, Xudovand Undan qo`rqqanlarga shunday marhamatlidir. **14** Bizning tarkibimizni U bilar, Tuproq ekanligimizni yodga olar. **15** Inson kunlari bir o`tga o`xshar, Dasht guliday unib chiqib, chechak otar. **16** Uning ustidan shamol esib o`tadi-yu, U yo`q bo`lur, makoni ham uni tanimas. **17** Lek Xudovandning inoyati abadiydir, Ilalabad Undan qo`rqqanlarga yordir, Ularning o`g`illariga ham sadoqati yordir. **18** Xudovand buyurgan ahdga vafo qilgan, Amrlarini

eslab bajargan barchaga ham Uning sadoqati yordir. **19** Xudovand taxtini osmonda qurgan, Uning saltanati butun koinotga hokimdir. **20** Ey, Uning so`ziga quloq beruvchi, Kalomini ijro etuvchi kuchli, botir malaklar, Xudovandni olqishlanglar! **21** Ey sizlar, Uning barcha qo`shinlari, Irodasini ado etuvchi xizmatkorlari, Xudovandni olqishlanglar! **22** Ey, Xudovand yaratgan borliq jon, Saltanatining hamma joyida Uni olqishlang! Ey mening jonim, Xudovandni olqishlagin!

Zabur 103

Koinotni Yaratgan va Asraganga shukr

1 Ey jonim, Xudovandni olqishlagin! Ey Xudovand, yo Rabbim, juda ulug`san, Jamol va salobat ila kiyingansan. **2** Yorug`lik libosiga burkangansan, Osmonni chodir kabi yoyib qo`ygansan. **3** Yuqori dargohlaring tomini suvdan qurgansan, Bulutlarni O`zingga aroba qilib, Shamol qanotlari uzra kezasan. **4** Shamollarni O`zingga malak qilasan, Xizmatchilaring qilib o`t-olovni ishlatasan. **5** Yer to abad tebranmasin deya, Uni poydevori uzra mahkam qurgansan. **6** Unga ummonni libosday kiydirgansan, Suvlar tog` cho`qqilarigacha yetib bordi. **7** Sening qat iy ajrimingdan suvlar chekindi, Chaqmog`ing guldurashidan tez qochib ketdi. **8** Ular Sen tayinlagan yerga oqdi, Tog` cho`qqilarigacha chiqib bordi, Vodiylarni to`ldirib toshdi. **9** To`fon qaytib toshmasin, Yerni yana qoplamasin deya, Sen unga chegara qo`ygansan. **10** Daralarda chashmalarni ochib yubording, Suvi tog`lar orasidan oqib boradi. **11** Suviga dashtdagi har bir jonivor qonadi, Yovvoyi eshak ham chanqovini bosadi. **12** O`sha suvlar bo`yida ko`k qushlari qo`nadi, Daraxt shoxlari aro ular sayraydi. **13** Yuqori dargohlaringdan tog`larni sug`orasan, Yer mo`jizalaring mahsulidan to`yar. **14** Sen hayvon uchun o`t-o`lan o`stirib, Insonlar uchun ko`kat yaratasan; Inson yeriga ishlov berib ovqat topar. **15** Odam dilini xushnud qiladigan sharobni, Inson yuzini yaltiratadigan yog`ni, Diliga quvvat beradigan nonni ham Sen yaratasan. **16** Xudovandning daraxtlari ? O`zi o`tqazgan Lubnon kedrlari suvga qonadi. **17** Shoxlari aro qushlar uya quradi, Laylak uyasi esa sarv daraxtlarida. **18** Baland tepalar - tog` echkilarining yurti, Qoyalar esa - bo`rsuqlar

panohidir. **19** Fasllarni aniqlamoq uchun U oyni yaratdi, Quyosh ersa - botar yerin bilur. **20** Sen qorong`ilik cho`ktirsang, tun bo`lur, O`rmondagi hayvonlar bari sayrga chiqur. **21** Arslon bolalari o`lja axtarib bo`kirar, Tangridan oziq-ovqatlarini so`rashar. **22** Quyosh chiqar, to`planarlar, Qaytib kirib, inlarida yotarlar. **23** Inson esa o`z mehnatiga chiqar, Oqshomgacha ro`zg`or tebratish uchun ishlar. **24** Ey Xudovand, Sening ishlaring qanchalik ko`pdir! Hammasini hikmat bilan yaratgansan, Yer Sening ijodlaring bilan to`ladir. **25** Mana, buyuk, bepoyon dengiz! Unda son-sanog`i yo`q jonivorlar, Kichik va katta hayvonlar bor. **26** Dengizda kemalar qatnaydi, Unda o`ynasin deya Sen Levatanni ? O`sha haybatli baliqni yaratgansan. **27** Ularning hammasi Senga ko`z tikar, Vaqtida ovqatimizni bersin deb umid qilar. **28** Ularga berganingda, terib olarlar, Qo`lingni ochganingda, ne`matingga to`yarlar. **29** Yuzingni yashirganingda, ular dahshatga tushar, Ruhlarini olsang, ular o`lib ketar, Yana tuproqqa qaytarlar. **30** Ruhingni yuborsang, qayta yaratilurlar, Yer yuziga Sen yangi qiyofa berursan. **31** Xudovandning shon-shuhrati abadiy bo`lsin, O`z ishlari bilan sevinsin Xudovand! **32** U yerga boqqanida, yer titraydi, Tog`larga tekkanida, ular tutun chiqaradi. **33** Men bor ekanman Xudovandni kuylayman, Umrin boricha Xudoyimni tarannum etaman. **34** Mening suxanim Unga xush kelsin, Men Xudovanddan xursand bo`laman. **35** Gunohkorlar dunyodan yo`q bo`lsin, Betavfiqlar yo`qolib ketsinlar! Ey jonim, Xudovandni olqishlagin! Hamdlar bo`lsin!

Zabur 104

Isroil tarixida Xudoning mo`jizakorligi

1 Xudovandga shukr qiling, ismini chorlang, Xalqlar aro ajoyibotini targ`ib qiling! **2** Qo`shiqlar aytib, Uni tarannum eting, Butun mo`jizalarini so`zlab bering! **3** Muqaddas ismi bilan iftixor qiling, Xudovandni sog`inganlar ko`ngli shod bo`lsin! **4** Xudovandni, Uning qudratini axtaring, Uning huzurini doimo qidiring! **5** Uning yaratgan ajib mo`jizalarini, Og`zidan chiqqan hukmlarini esda tuting! **6** Ey, Uning quli Ibrohim zurriyoti, O`zi tanlagan Yoqubning o`g`illari: **7** Rabbimiz - Xudovand ana shudir, Butun yer yuzida Uning hukmi o`tadi. **8** U qilgan

ahdini abadiy yodda tutar, Vasiyatini minglab nasllargacha eslar. **9** Ibrohim bilan tuzgan ahdini, Is hoqqa ichgan qasamini xotirlar. **10** Buni Yoqubga qonun deb joriy qildi, Isroilga abadiy ahd qilib berdi. **11** «Kan ón yerini ulushing qilib Senga va zurriyotingga beraman», - dedi. **12** O`shanda ular son jihatdan juda oz, U yerda hali kelgindi edilar. **13** Bir xalqdan boshqa xalqqa, Bir o`lkadan o`zga elga kezar edilar. **14** Xudo ularga ozor berishga yo`l qo`ymas, Ular haqida podshohlarga ham man etardi. **15** «Mening tanlaganlarimga tegmangiz, Nabilaringa yomonlik qilmangiz!» - derdi U. **16** Mamlakat bo`ylab ocharchilik e lon qildi, G`alla poyasini ham butkul quritib yubordi. **17** Ulardan oldin bir odamni ? Qul qilib sotilgan Yusufni yuborgan edi. **18** Uning oyoqlarini kundalab qo`ydilar, Joni temirga kirganday qiynalar edi ? **19** To Xudovandning so`zi ijro bo`lguncha, Ilohiy kalom uni sinab soflaguncha. **20** Shoh odam yuborib uni bandilikdan qutqardi, Ha, ellar hukmdori uni ozodlikka chiqazdi. **21** Uni o`z uyi ustidan mirzo qilib qo`ydi, Butun mol-mulkiga boshliq qilib tayinladi. **22** Toki vazirlariga ko`nglidagidek o`git qilsin, Oqsoqollariga esa hikmatni o`rgatsin. **23** So`ngra Yoqub Misrga keldi, Hom diyorida maskan oldi Isroil. **24** Xudovand xalqini juda ham ko`paytirib, Dushmanlaridan ko`ra quvvatliroq qildi. **25** O`z xalqiga qarshi xusumat qilmog`i-chun, Qullariga qarshi fitna uyushtirmog`i-chun Yovning yuraklarida nafrat uyg`otdi. **26** U O`z quli - Muso payg`ambarni, O`zi tanlagan Horunni yo`lladi. **27** Ular Hom diyorida Xudovand ajoyibotin, Ilohiy alomatlarini namoyon qilishdi. **28** Xudovand qorong`ilik yubordi, Yon-atrofni zulmat qamradi, Misriylar Uning amriga qarshi turmadi. **29** Ularning suvlarini qonga aylantirdi, Baliqlarini esa nobud qilib tashladi. **30** O`lkalarini g`uj-g`uj qurbaqalar bosdi, To podshoh yotoqxonasiigacha to`lib ketdi. **31** Ilohiy amr bo`yicha pashsha galalari bosib keldi, Mamlakatning to`rt tomonini bitlar bosib oldi. **32** Boshlariga yomg`ir o`rniga do`l yog`dirdi, O`lkalariga jazirama otash yubordi. **33** Bog`larini, anjir daraxtlarini quritdi, Sarhadlari ichidagi har butani qirib tashladi. **34** Uning buyrug`i ila chigirtkalar paydo bo`ldi, Son-sanoqsiz hasharot galalari chiqdi. **35** Mamlakatdagi butun o`t-o`lanni o`pirib yubordi, Daladagi hosilni tamoman yeb tugatdi. **36** Oxiri Xudo o`lkaning barcha to`ng`ichlarini, Elning butun erkaklik g`ururini o`ldirdi. **37** O`z

xalqini esa simu zar ila chiqardi, Oralaridan ojiz qolgani yo`q edi. **38** Ularning chiqqaniga Misr sevindi, Chunki ularga vahm solgan edilar. **39** Xudovand bulutni pardaday yoyib tashlar, Tunni oydin qilmoq uchun otash yuborar edi. **40** Ular so`radi, Xudo bedanalarni muhayyo qildi, Ularni samoviy non ila to`yg`azdi. **41** Xudovand qoyani yorib suv oqizdi, Quruq cho`l o`rtasida daryoday suv oqdi. **42** U bergan muqaddas so`zini xotirladi, O`z quli Ibrohimni esdan chiqarmadi. **43** O`zi uchun tanlab olgan xalqini Shodiyonayu tantanalar ila ozodlikka chiqardi. **44** Ularga elu elatlar diyorini berdi, Boshqa xalqlar mehnati ularga nasib bo`ldi. **45** Toki ular Xudo qonunlarini tutib, Ko`rsatgan yo`l-yo`riqlariga rioya qilsinlar! Hamdlar bo`lsin!

Zabur 105

Isroilning bevafoligi, Xudoning sadoqati

1 Hamdlar bo`lsin! Xudovandga shukr qilinglar! U olijanobdir, abadiydir inoyati. **2** Xudovandning qudratli ishlarini kim so`zlay bilar? Uning bor shon-shuhratini kim bayon qila olar? **3** Baxtlidir adlu insof ila ish tutgan, Doim solihlik bilan yurgan kishi! **4** Xalqingga ko`rsatgan karamingni menga ravo ko`r, Najotingni men tomon yo`lla, yo Rab! **5** Tanlaganlaring qut-barakasini ko`rayin, Xalqing shodligi ila shod bo`layin, Eling iftixori ila maqtanib yurayin! **6** Biz otalarimiz qatorida gunoh qildik, Yo`ldan ozdik, buzuqlik qildik. **7** Ota-bobolarimiz Misrda bo`lganlarida, Sening ajoyibotingni fahmlamasdilar. Behad lutfu karamingni esga olmasdan, Dengizda, Qizil dengiz bo`yida isyon qildilar. **8** Xudovand ersa, qudratimni ko`rsatay deya, O`z ismi hurmati uchun ularni qutqardi. **9** U Qizil dengizga do`q urdi, Dengiz qoq quruq bo`ldi. Xuddi cho`l o`rtasidan kezdirganday, Ularni girdob o`rtasidan quruq o`tkazdi. **10** Ag`yor qo`lidan ularni qutqardi, Dushman dastidan xalos qildi. **11** Yovlarini suvlar bosdi, Ularning hech biri qolmadi. **12** O`shanda inondilar Uning kalomlariga, Sano o`qidilar-da shonu shuhratiga. **13** Biroq tezda unutdilar ishlarini, Ko`z tikmadilar o`git-nasihatlariga. **14** Cho`lda o`taketgan ehtirosiga berildilar, Dasht-biyobonda Tangrini sinadilar. **15** So`raganlarini U ularga berdi-yu, Jonlarini ozg`inlikka ham muhtalo qildi. **16** Manzilda

Xudovandning avliyolari ? Muso bilan Horunga rashk qildilar. **17** Yer yorilib Datanni yutib yubordi, Abirom qavmini qoplab oldi. **18** Boshlariga nogahon o`t-olov tushdi, Osiylar to`dasini yondirib yubordi. **19** Ho`rib tog`ida quyma butni yasadilar, Buzoqqa topinib sajda qildilar. **20** Ha, o`t yeydigan ho`kiz surati bilan Ulug`vor Xudovandlarini almashtirdilar. **21** Misrda buyuk ishlar namoyon qilgan Xaloskorlari - Tangrini unutdilar. **22** Ha, Hom diyorida ajoyibotlar yaratgan, Qizil dengizda mahobatini ko`rsatgan Xudoni unutdilar. **23** Xudo ularni halok qilishga niyat qildi. Agarda Xudovandning tanlagani - Muso Xudovand huzurida tik turmaganida, Dahshatli g`azabidan qaytarmaganida edi, U niyatini bajargan bo`lur edi. **24** Go`zal Diyorni ham ular xor qildilar, Inonmasdilar-da Xudoning kalomiga. **25** Chodirlarida zorlanib turdilar, Bo`ysunmadilar-da Xudovand amriga. **26** Shu kez Xudo ularga qarshi qo`l ko`tardi, Cho`lda ularni yakson qilmoqchi bo`ldi. **27** Bari zurriyotini ellar orasiga sochib tashlay, Turli xalqlar aro ularni yakson qilay, dedi. **28** Ular Baal-Peg`o`r nomli butga topindilar, Jonsiz sanamga qurbonlik atab yedilar. **29** Qilmishlari-la Xudovand qahrini keltirdilar, Ittifoqo o`latga giriftor bo`ldilar. **30** Pinhos turdi-da, hukm yuritdi, Shunda o`lat ham kesildi. **31** Bu Pinhosning ezgu ishlariga kirdi, Nasllar osha, abadiy qadrlangusi. **32** Isyongoh suvlarida Bani-Isroil tag`in Xudovandning g`azabini keltirdilar, Ular sababli Muso jafo tortar edi. **33** Musoning g`ashini keltirganlarida, U o`ylamay so`zlab yubordi. **34** Xudovand ularga amr bergan edi, Vale halok qilmadilar yot xalqlarni. **35** Ular majusiylar bilan aralashib, Ularning ishlarini o`rgandilar. **36** Sanamlariga ham topindilar, Bular esa tuzoq bo`ldi ularga. **37** O`z o`g`illariyu qizlarini o`ldirib, Jinlarga qurbonlikka bag`ishladilar. **38** Manfur Kan on butlariga qurbonlik atab, O`g`il-qizlarining begunoh qonini to`kdilar, Mamlakat esa qonga botib harom bo`ldi. **39** Ular bu ishi tufayli murdor bo`ldilar, Qilmishlari-la fahshlik qilganday bo`ldilar. **40** Shunda Xudovand O`z xalqidan g`azablandi, O`zining aziz diyoridan nafratlandi. **41** Ularni yot xalqlarning qo`liga berdi, G`animlari ular ustidan hukmronlik qildi. **42** Dushmanlaridan ular jabr-zulm chekdi, Yov qo`li ostida egilib-bukildilar. **43** Ko`p martalab Xudovand ularni qutqarardi, Ular esa o`z qaysarligi ila Uni achchiqlantirar, O`z yomonliklari tufayli xazon ham bo`lardilar. **44**

Shunga qaramay Xudovand Ularning nolasini eshitdi, Og`ir ahvollariga e tibor berdi. **45** Ular bilan qilgan ahdini esladi, Ko`p iltifot qilib ularni ayadi. **46** Ularni asir olgan hammaning dilida Ularga nisbatan rahm qo`zg`atdi. **47** Yo Rabbano, yo Xudovando, bizlarni qutqargin! Xalqlar orasidan bizni to`plab olgin, Toki muqaddas ismingni ulug`laylik, Hamdu sanoying ila iftixor etaylik! **48** Isroilning Tangrisi - Xudovandga Azaliy va abadiy ofarinlar bo`lsin! Butun qavm esa «Omin!» - desin! Hamdlar bo`lsin!

Zabur 106

Najot topganlarning hamdu sanosi

1 Xudovandga shukr qilinglar! U olijanobdir, abadiydir inoyati. **2** Bunday desin Xudovand qutqargan, Dushman qo`lidan najot topgan xalq! **3** U bizni Sharqu G`arbdan, Shimolu Janubdan, Turli o`lkalardan to`plab oldi, deb yurishsin! **4** Ular cho`lu biyobonni kezib adashardilar, Odam yashaydigan biron shahar topolmasdan. **5** Och hamda suvsiz qolgan edilar, Jonu tanlari holdan ketar edi. **6** Mashaqqatlarida Xudovandga faryod etishgach, U ularni qutqardi azob-uqubatlaridan. **7** Odam yashaydigan shaharni topsin deya, Ularni to`g`ri yo`lga boshladi U. **8** Xudovandga shukr qilsinlar bergan inoyati uchun, Odam bolalariga ko`rsatgan mo`jizalari uchun! **9** Chunki U qondirdi chanqoq ko`ngilni, Ne ímatlar bilan to`ydirdi ochiqqan jonni. **10** Zulmatga, o`lim vahimasiga kelib qoldilar, Temir kishanda o`tirib azob chekardilar. **11** Chunki Tangri amrlariga qarshilik qildilar, Tangri Taolo irodasini mensimadilar. **12** U og`ir ish bilan ularning dimog`ini tushirdi, Ular qoqildi, yordamchilari yo`q edi. **13** Mashaqqatlarida Xudovandga faryod etishgach, U ularni qutqardi azob-uqubatlaridan. **14** Zulmat va o`lim vahmasidan ularni ozod qildi, Zanjir-kishanlarini sindirib tashladi. **15** Xudovandga shukr qilsinlar bergan inoyati uchun, Odam bolalariga ko`rsatgan mo`jizalari uchun! **16** Mana O`zi mis darvozalarni pora-pora qilgan, Temir tambalarni chopib parchalab tashlagan. **17** Ular esa tentaklik qilib isyon ko`tardilar, Qilgan yomonliklari evaziga jafu ham chekdilar. **18** Jonlari har qanday oziq-ovqatni rad etar, O`lim darvozasiga yaqinlashgan edilar. **19**

Mashaqqatlarida Xudovandga faryod etishgach, U ularni qutqardi azob-uqubatlaridan. **20** Kalomini yuborib ularga shifo berdi, Ularni tushgan chohlaridan chiqarib oldi. **21** Xudovandga shukr qilsinlar bergan inoyati uchun, Odam bolalariga ko`rsatgan mo`jizalari uchun! **22** Xudovandga shukrona bilan qurbonlik atasinlar, Uning ishlarini tantana ila targ`ib qilsinlar! **23** Kemalarida dengizda qatnovchilar ham, Bahrlar aro mehnat qiluvchilar ham **24** Xudovandning ishlariga guvoh bo`ldilar, Girdobda ko`rsatgan mo`jizalarin ko`rdilar. **25** U amr berib, kuchli bo`ron keltirdi, Dengiz to`lqinlarin baland ko`tarib yubordi. **26** Kemachilar ko`kka o`rlab, tubsizlikka cho`kdi, Dahshatdan ularning joni mumdek eridi. **27** Ular mast kabi o`ynoqlab aylandi, Aqli-hushi boshidan uchdi. **28** Mashaqqatlarida Xudovandga faryod etishgach, U ularni chiqardi azob-uqubatlaridan. **29** Xudovand bo`ronni tinchitib qo`ydi, Suv to`lqinlarini ham pasaytirdi. **30** Suvlarni tinchitib, ummatini sevintirdi, Orzu qilgan bekatlariga yetaklab bordi. **31** Xudovandga shukr qilsinlar bergan inoyati uchun, Odam bolalariga ko`rsatgan mo`jizalari uchun! **32** Xalq yig`inlarida Uni ko`kka ko`tarsinlar, Oqsoqollar majlisida Unga hamd aytsinlar. **33** Xudovand daryolarni cho`lga aylantiradi, Buloqlarni esa quritib yuboradi. **34** Aholisining yovuzligi sababli Hosildor tuproqni sho`r yerga aylantiradi. **35** Tag`in sahroda ko`llarni paydo qilib, Bo`z yerni chashmazorga aylantiradi. **36** Och-yupunlarni o`sha yerga joylashtiradi, Ular yashaydigan shaharni quradilar. **37** Ekin ekib, uzumzor yaratadilar, Daladan mo`l-ko`l hosil ko`taradilar. **38** Xudovand ularga barakat beradi, Ularning soni oshib boradi, Chorvasi esa sira kamaymaydi. **39** Tag`in ular son jihatdan ozayib qolgan, Jabr-jafo, balo-qazoga yo`liqib qaddi bukilgan edi. **40** Sarkardalarni shuvut qiluvchi Xudovand O`zi Yo`lsiz sahroda ularni sargardon qildi. **41** Lek bechorahollarni tuproqdan yuqori ko`tardi, Oilalarini qo`ylar podasidek ko`paytirdi. **42** To`g`ri kishilar buni ko`rib sevinur, Barcha qalloblar og`zi esa to`silib qolur. **43** Kimki oqil bo`lsa, bularni payqar, Xudovandning mehr-inoyatini anglar.

Zabur 107

QO`SHIQ. DOVUD SANOSI.

2 Yuragim shaydir, ey Xudo! Men bajonu dil kuylayman, Seni tarannum etaman. **3** Uyg`oning, ey chang ila g`ijjak! Men saharni uyg`otib yuboraman. **4** Ellar aro Senga shukr deyman, ey Xudovand, Elatlar ichra Seni tarannum etgayman. **5** Sening inoyating ko`klardan ham baland, Haqiqating esa bulutlardan ham yuksakdir. **6** Ey Xudo, falakdan yuqoriga yuksalgin, Ulug`vorliging ro`yi zamin uzra porlasin! **7** Sevganlaring xalos bo`lsin uchun Kuchli o`ng qo`lingni uzatib yuborgin! Menga quloq solgin, najot bergin! **8** Xudo O`zining muqaddas makonida so`zladi: «Men Shakamni tantana ila taqsimlayman, Sukkot vodiysini esa o`lchab olaman. **9** Gil`ad Meniki, Manashe ham Meniki. Efraim - boshimdagi dubulg`a, Yahudo - saltanatim hassasi. **10** Mo`ov - yuvinadigan tosimdir, Edo`m ustiga etigimni bosaman, Filistiya uzra g`alaba e lon qilaman». **11** Mustahkam shaharga meni kim eltadi? Edo`mga meni kim kuzatib boradi? **12** Ey Xudo, bizni tashlab qo`ygan Sen emasmi? Qo`shinlarimiz bilan chiqmayapsan-ku, ey Xudo! **13** Dushmanga qarshi kurashda bizga yordam bergin! Chunki inson najoti - bekordir. **14** Biz Xudo nomi bilan botirlik qilamiz, Dushmanlarimizni O`zi tor-mor etadi.

Zabur 108

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

1 Ey, mening maqtaydigan Xudoyim, jim turma! **2** Mana, fosiqlaru makkorlar og`zini katta ochib, Menga qarshi tillarini qayramoqdalar! **3** Nafratli so`zlar bilan meni chulg`ab, Sababsiz menga zarba bermoqdalar. **4** Muhabbatim uchun menga adovat qiladilar, Men bo`lsam - toat-ibodatdaman. **5** Yaxshiligim evaziga yomonlik qiladilar, Sevgimga qarshi nafrat izhor etadilar. **6** Bunday odamning boshiga fosiqni mindir, Shayton tursin uning o`ng tomonida. **7** Muhokama qilinganda aybdor bo`lib chiqsin, Toati gunoh deb hisoblansin. **8** Umri qisqa bo`lsin, O`rnini boshqasi egallasin. **9** Bolalari yetim qolsin, Xotini beva bo`lsin. **10** O`g`illari darbadarlikka yo`liqsin, Vayronalarda gadoylik qilishsin. **11**

Mol-holini sudxo`rlar egallasin, Mehnati samarasin begonalar taroj qilsin. **12** Unga hech kim iltifot ko`rsatmasin, Yetimlariga hech kimsa achinmasin. **13** Uning zurriyoti qirib tashlansin, Kelajak nasldan nomlari o`chirilsin. **14** Otalari ayblarini Xudovand yodga olsin, Onalari gunohlaridan kechmasin. **15** Doim Xudovandning o`ngida bo`lsin aybi, Yer yuzidan supurib tashlasin xotirasini. **16** Ular-ku bechorayu faqirni ta`qib qildi, Iltifot ko`rsatmoqni hech o`ylamadi, Dilabgorlarni o`ldirmoqqa qasd qildi. **17** La`natgo`yning la`nati o`z boshiga tushadi, Duo qilmoq istamagandan duo ariydi. **18** La`natni u libosday kiyib olsin, Qarg`ishni esa suvday ichsin, Ilikday suyaklariga o`rnashib qolsin. **19** O`zi uchun la`nat hamisha kiyadigan joma, Doimo taqadigan bir tasma bo`lsin. **20** Jonimga yomonlik tilaganlarning oqibati, Tuhmatchilarning Xudovanddan jazosi shu bo`lsin! **21** Ey Xudovand, mening Rabbim, Isming hurmati uchun menga iltifot ko`rsatgin, Beqiyosdir inoyating Sening, xalos qilgil meni! **22** Chunki men bechorayu miskinman, Yuragimga o`q qadalganday bo`ldi. **23** Kechki soya kabi tez o`tib ketyapman, Chigirtka kabi uloqtirib tashladilar. **24** Tizzalarim ro`zadan titramoqda, Etim suyagimga yopishib qolgan. **25** Odamlarning haqoratiga nishon bo`ldim, Menga ko`z olaytirib, bosh chayqayaptilar. **26** Ey Xudovand, mening Xudoyim, Madad yuborgin menga! Inoyat qilib meni qutqargin! **27** Bilsinlarki, bu Sening qo`lingdir, Buni bajargan Sensan, yo Rabbiy! **28** Ular la`nat o`qisa-da, Sen duo qilasan, Ular oyoqlansa-da, sharmanda bo`lib qaytarlar, Sening quling esa sevinib ketar. **29** G`animlarim rasvolikka burkansin, Sharmandalikka joma kabi o`ransinlar. **30** Xudovandga shukrni tilimdan tushirmayman, Katta xaloyiq ichra Unga sanolar o`qiyman. **31** Jon dushmanlaridan uni qutqarib qolay deya, Xudovand faqirning o`ng tomonida turadi.

Zabur 109

DOVUD SANOSI.

1 Xudovand mening Rabbimga aytdi: «Yovlaringni oyoqlaring ostiga yiqitmagunimcha, Sen Mening o`ng tomonimda o`ltirib turgin!» **2** Sening qudratli saltanating hassasin Xudovand Siondan uzatib yuborgay,

Dushmanlaring o`rtasida hukmron bo`lgil deya. **3** Jangovarlik kuningda Sening xalqing Muqaddas ziynatda Senga xohish bildirgay, Tong bag`ridan tushgan shabnam misoli Yigitlaring Sen tomon kelaverishgay. **4** Xudovand ont ichgan va so`zidan qaytmas: «Malkisidq martabasi bo`yicha Sen abadiy ruhoniysan». **5** Rabbing Sening o`ng tomoningda o`ltirar, Qahri kelgan kunda shohlarni ezib tashlar. **6** Xalqlarni U hukm etgan vaqtda Yer yuzi jasadlar bilan to`lg`usi, Ulkan davlat boshlari majaq bo`lg`usi. **7** Yo`l bo`yidagi irmoqdan suv ichib, Mard boshini baland ko`tarib yurgusi.

Zabur 110

Xudoning inoyati va sadoqati

1 Hamdlar bo`lsin! Men solihlar mahfilida, ulug` jamoatda Xudovandga chin yurakdan shukr qilaman. **2** Xudovandning ishlari buyukdir, Barcha muxlislari ulardan zavq olur. **3** Xudovand ijodi - jamol va salobatdir, Uning adolati ersa - ilalabaddir. **4** Ajoyibotini unutilmaydigan qilib yaratgan, Rahmonu mehribondir Xudovand. **5** O`zidan qo`rqqanlarning rizqi-ro`zini berar, Xalqi ila tuzgan ahdini abadiy esda tutar. **6** O`z xalqiga qudratli faoliyatini ko`rsatdi, Majusiylar yer-mulkini ularga berdi. **7** Bajargan ishlari haqiqat va adolatdir, Barqarordir bari farmoyishlari. **8** Ular doimiy va abadiy ustuvordir, Haq va to`g`rilik ila ijro bo`lmishdir. **9** Xudovand O`z xalqiga najot yuborgan, O`z ahdini abadiy qilib buyurgan, Uning ismi - muqaddas va qo`rqinchlidir. **10** Donolikning boshi - Xudodan qo`rqmoqlikdir, Bunday yo`l tutgan hammaning aqli rasodir, Xudovandga abadiy sano o`qimoq darkordir.

Zabur 111

Xudojo`y - tabarrukdir

1 Hamdlar bo`lsin! Qanday baxtli Xudovanddan qo`rqadigan, Amrlariga zavq bilan bo`ysunadigan kishi! **2** Uning zurriyoti yer yuzida mard avlod bo`lgay, Ko`ngli to`g`rilar nasli tabarruk bo`lgay. **3** Boylik va mo`lchilik solihning hovlisidadir, Boqiy umr ko`rgay solihning salohi. **4** Solihga

qorong`ulikda ham yog`du nur sochar, Rahmonu mehribon hamda odildir U. **5** Elga muruvvat qilib qarz beruvchi, Insof ila ish boshqaruvchi odam baxtiyordir. **6** Solih to abad tebranmagay, Mangu bo`lgay uning xotirasi. **7** Yomon ovozadan u qo`rqmaydi, Umidi Xudovandda, sobitdir yuragi. **8** Dushmanlariga bermalol qarar, U dovyurak va qo`rqmas bo`lar. **9** U qo`lini ochib kambag`alga sadaqa berar, Uning solihligi boqiy bo`lar, Izzat-hurmati yuksalib borar. **10** Betavfiq buni ko`rib g`azablanur, Tishlarin g`ijirlataru zavol topur, Ha, betavfiqlar tilagi puchga chiqur.

Zabur 112

Xudovandni olqishlang!

1 Hamdlar bo`lsin! Hamdlar ayting, ey Xudovand qullari, Xudovand nomiga hamd aytinglar! **2** Xudovand nomiga olqishlar bo`lsin, Hozirdan boshlab to mangulikka qadar! **3** Kun chiqardan to kun botarga qadar Xudovand ismiga maqtovlar bo`lsin! **4** Xudovand barcha xalqlar ustidan oliydir, Ulug`vorligi esa osmondan ham balanddir. **5** Rabbimiz Xudovand yuksaklarda o`ltiribdi, Unga o`xshaydigan kim ham bor ekan? **6** U ham yer, ham ko`kdagilarni ko`ray deya, Tubanlikka engashib nigoh tashlar. **7** Bechoraholni U tuproqdan ko`tarar, Faqirni axlatdan olib chiqib yuksaltirar. **8** Ularni elning ulug`lari birla, O`z xalqining beklari birla o`tqizar. **9** Tug`mas ayolni U uyida o`rnashtirar, Uni farzandlar onasi qilib quvontirar. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 113

Mo`jizakor Xudovandga shukrona

1 Bani-Isroil Misrdan qochgan paytda, Yoqub zaboni zabun eldan chiqqan kezda, **2** Yahudo yeri Xudoning aziz makoni bo`ldi, Isroil yurti Xudo saltanatiga asos bo`ldi. **3** Dengiz suvi buni ko`rdi-da qochdi, O`rdun oqimi to`xtab orqaga qaytdi. **4** Tog`lar qo`ylarday sakrashdi, Tepalar qo`zillarday irg`ishladi. **5** Ey dengiz, senga ne bo`ldi, qochyapsan? Nechun orqaga qaytyapsan, O`rdun suvi? **6** Ey tog`lar, nega qo`ylarday sakrayapsizlar? Nechun qo`zillarday irg`ishlayapsiz, ey tepalar? **7** Rabbano oldida,

Yoqubning Xudosi oldida Yer yuzi qo`rquvdan titrasin! **8** U qoyani suv hovuziga aylantirgan, Xarsang toshdan selday suv oqizgan. **9** Bizlarga emas, ey Xudovand, bizlarga emas, O`zingning ismingga maqtoiv bergin! Zero Sen ko`p inoyatliyu sadoqatlisan. **10** Nima uchun majusiylar: «Qani ularning Xudosi», - deydi? **11** Bizning Xudoyimiz osmondadir, U istaganini yarataveradi. **12** Ularning sanamlari kumush va oltindir, Inson qo`llarining ish-amalidir. **13** Og`izlari bor, lekin so`zlamaydilar, Ko`zlari bor, ammo ko`rmaydilar. **14** Quloqlari bor-u, eshitmaydilar, Burunlari bor-u, hidlamaydilar. **15** Qo`llari bordir, vale sezmaydilar, Oyoqlari bordir, vale yurmaydilar, Bo`g`izlaridan esa tovush chiqmaydi. **16** Ularni yasagan har bir kishi ? Hamma ularga e`tiqod qiluvchilar Xuddi ularga o`xshab qolur. **17** Ey Isroil, Xudovandga umid bog`lagin! U sening yordamching va qalqoningdir. **18** Ey Horun xonadoni, Xudovandga umid bog`lang! U sizning yordamchingiz va qalqoningizdir. **19** Ey xudojo`ylar, Xudovandga umid bog`lang! U sizning yordamchingiz va qalqoningizdir. **20** Xudovand bizlarni esladi-yu, Qut-barakali ham qildi. Isroil xonadonini barakali qilsin! Horun xonadonini barakali qilsin! **21** O`zidan qo`rqqan kattayu kichikni Xudovand barakali qilsin! **22** Xudovand o`zlaringiz va o`g`illaringizga Xiyla va xiyla ko`paytirib bersin! **23** Yeru osmonni yaratgan Xudovand Sizlarni muborak aylasin! **24** Osmon - Xudovandning osmonidir, Ammo yerni U inson o`g`illariga bergan. **25** O`lib sukunat diyoriga borgan hech kimsa Xudovandga hamdu sano aytmas. **26** Biz esa hozirdan boshlab to abad Xudovandga hamdu sanolar aytamiz. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 114

O`limdan qutulganing shodiyonasi

1 Dodu fig`onimga quloq solgani-chun Men Xudovandni sevaman. **2** Qulog`ini men tomon tutgani-chun Umrin boricha Uni chaqiraman. **3** O`lim to`rlari meni chulg`ab oldi, Do`zax azoblari boshimga tushdi, Juda siqildimu, dard-alamda qoldim. **4** O`shanda Xudovand ismini chaqirdim, Yohu Xudovando, jonimni qutqar, dedim. **5** Xudovand mehribon va odildir, Ha, Xudoyimiz rahmdildir. **6** Xudovand soddadil odamlarni asrar,

Ojiz qolganimda O`zi meni qutqarar. **7** Ey jonim, rohatingga qaytgil, Mana Xudovand senga ezgulik qilgan! **8** Jonimni o`limdan, ko`zimni yoshdan, Oyog`imni esa qoqilib ketishdan O`zing tiygansan, yo Rabbim! **9** Men tiriklar diyorida qolaman, Xudovand huzurida yuraveraman.

Zabur 115

Najot topganning hamdu sanosi

1 Men ishondim, shul bois gapirdim: Men ko`p ozor chekdim, dedim. **2** Butun insoniyat yolg`onchilikdir, - dedim men hayajonlanib. **3** Menga qilgan barcha yaxshiliklari uchun Xudovandni qanday taqdirlayman? **4** Men najot qadahini ko`tarib, Xudovand nomini chaqiraman. **5** Butun ahli mo`minning ko`zi o`ngida Xudovandga ataganlarimni bajo etaman. **6** O`z azizlarining o`limi Xudovand nazarida bebahodir. **7** Yohu Xudovando, Men Sening qulingman-ku, O`z kanizaging o`g`lidirman, Kishanlarimni O`zing yechgansan. **8** Sening ismingni chaqirib, ey Xudovand, Shukrona bilan qurbonlik keltiraman. **9** Butun ahli mo`minning ko`zi o`ngida Xudovandga ataganlarimni bajo etaman. **10** Xudovandning ma`badi hovlilarida, Quddus bag`rida nazrlarimni ifo etaman. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 116

Ey barcha xalqlar..!

1 Ey barcha xalqlar, Xudovandni madh etinglar! Unga hamdu sano aytinglar, Ey butun millatlar! **2** Uning bizga bergan inoyati behaddir, Abadiydir Xudovandning vafosiyyu haqiqati. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 117

G`alaba bag`ishlagan Xudoga shukrona

1 Xudovandga shukr qiling! U ezgudir, abadiydir inoyati. **2** Isroil xonadoni desin: Abadiydir Uning inoyati! **3** Horun xonadoni desin: Abadiydir Uning inoyati! **4** Xudodan qo`rqqanlar desin: Abadiydir Uning inoyati! **5** Tang qolganimda Xudovandni chaqirdim, U menga quloq soldi-

da, Kenglikka chiqarib qo`ydi meni. **6** Xudovand men tomonda, qo`rqmayman, Inson menga ne qila bilar? **7** Xudovand mening yordamchim ekan, G`animlarimga bemalol qarayman. **8** Insonga e tiqod qilgandan ko`ra, Xudovanddan panoh so`rash afzaldir. **9** Shahzodalarga ishongandan ko`ra, Xudovanddan panoh so`rash afzaldir. **10** Barcha xalqlar meni o`rab olgan edi, Xudovand nomi ila qirib tashladim ularni. **11** Meni o`rab olgandilar, ha, Hamma yog`imdan qisib qo`ygandilar; Xudovand nomi ila qirib tashladim ularni. **12** Arilar kabi meni o`rab oldilar, Tikan alangasidek o`chib qoldilar; Xudovand nomi ila qirib tashladim ularni. **13** Yiqilib ketsin deb meni turtdilaring, Illo Xudovand menga yordam berdi. **14** Yohu, quvvatim va qo`shig`im mening, O`zing bo`lding Najotkorim mening! **15** Xursandchilik va ozodlik sadolari Solihlarning chodirlarida yangraydi: Xudovandning o`ng qo`li mardlik ko`rsatur! **16** Xudovandning o`ng qo`li baland ko`tarilur! Xudovandning o`ng qo`li mardlik ko`rsatur! **17** Men o`lmasman, yashayveraman, Xudovandning ishlarini xabar qilaman. **18** Xudovand menga qattiq chora ko`rdi-yu, Illo o`limga topshirmadi jonimni. **19** Saloh qopqalarini menga ochib qo`yingiz, Ulardan kirib, Xudovandga shukr qilayin! **20** Bu - Xudovandning darvozasidir, Undan solihlar kiradilar. **21** Senga shukrlar deyman, yo Rab, Sen menga quloq solding, Xaloskorim ham bo`lding. **22** Binokorlar keraksiz deb tashlagan Tosh Naq binoning peshtoqidan joy oldi. **23** Bu Xudovand irodasi tufaylidir, Bizga esa ajoyibot timsolidir. **24** Xudovandning yaratgan kunidir bu, Undan shod bo`lib sevinaylik! **25** Xudoyo Xudovando, najot bergin! Xudoyo Xudovando, muvaffaqiyat tilagin! **26** Xudovand nomidan Kelayotgan muborak! Xudovand uyidan turib sizni duo qilamiz. **27** Haq Tangri - Xudovanddir, U bizga ziyo yo`llagandir. Bayram tusida arqon ulashing-da, Qurbongoh muguzlarini ziyorat eting! **28** Sensan Tangrim mening, shukr qilaman, Sensan Xudoyim mening, sano qilaman. **29** Xudovandga shukr qilinglar! U ezgudir, abadiydir inoyati.

Zabur 118

Alef

1 Qanday baxtlidir sofdillik yo`lidan boruvchi, Ilohiy Qonun bilan yuruvchi kishilar! **2** Baxtlidir Xudovand shahodatin saqlab, Chin qalbdan Xudoga intiluvchilar! **3** Ular qonunsiz ishga oyog`ini burmay, Xudovandning yo`llaridan yuradilar. **4** Nizom-qonunlaringni O`zing buyurgansan, Jiddiylik bilan rioya qilinsin deya. **5** Qoidalaringga amal qilmoqqa Koshki yo`llarim o`ngsa edi! **6** Shunda sharmanda bo`lmasman, Barcha amrlaringni ko`z o`ngimga keltirib. **7** Sof ko`ngildan shukr qilarman, Sening odil hukmlaringni o`rganib. **8** Farmonlaringni bajaraman Sening, Meni butunlay tashlab ketmagin!

Bet

9 Yigit o`z yo`lini qanday qilib sof saqlar? Sening kaloming bilan yursa bu bo`lar. **10** Men Seni chin ko`ngildan qidirypman, Amrlaringdan bosh tortishimga yo`l qo`yma! **11** Senga qarshi gunoh qilmaslik uchun, Kalomingni yuragimda saqlayman. **12** Ey Xudovand, men Seni olqishlayman, Qonun-qoidalaringni menga o`rgatgin! **13** Og`zingdan chiqqan barcha hukmlarni O`z irnim bilan xabar qilaman. **14** Sening vahiylaring yo`lida men Katta boylik topgandek xursand bo`laman. **15** Buyruqlaringni teran o`ylab, Sening yo`llaringga ko`z tikaman. **16** Nizom-qoidalaringdan zavq topaman, Unutmayman kaloming Sening.

Gimel

17 Qulingga iltifot qilgin, Men yashab so`zingni tutayin! **18** Ko`zlarimni ochib yuborgin, Qonuning ajoyibotlarini ko`rayin! **19** Men bu dunyoda musofirman, Amrlaringni mendan yashirmagin! **20** Hukmlaringni doimo orzu qilaman, Sog`inchdan jonim ado bo`lmoqda. **21** Boshboshdoqlarning adabini O`zing berasan, Amrlaringdan adashgan hamma la`natidir. **22** Sharmandalik va haqoratni mendan uzoqlashtir, Men Sening shahodatingga rioya qilaman-ku. **23** Hatto beklar o`tirib meni g`iybat

qilmoqda, Quling esa nizomlaringni teran o`ylamoqda. **24** Ha, Sening vahiylaring men uchun zavqdir, Ular mening maslahatchilarim hamdir.

Dalet

25 Jonim tuproqqa yopishib qolgan, O`z kaloming ila meni jonlantirgin!
26 Yo`llarimni Senga ochganimda, meni eshitding; Qonun-qoidalariningni menga o`rgatgin! **27** Buyruqlaring yo`lini menga anglatgin, Toki mo`jizalaringni teran o`ylab olayin! **28** Jonim g`am-g`ussadan ado bo`lmoqda, Kaloming bilan meni mustahkamlagin! **29** Yolg`onchilik yo`lin mendan uzoqlashtir, Qonuning rohini men uchun o`nglagin! **30** Men sadoqat yo`lini tanlab, Hukm-farmonlaringni oldinga qo`ydim. **31** Vahiylaringga qattiq yopishdim, Meni sharmanda qilma, yo Rabbim! **32** Sen yuragimni keng qilgan sayin, Amrlaring yo`lidan yelib borarman.

He

33 Ey Xudovand, Qonun-qoidalarining yo`lini menga o`rgatgin, Ularni oxirigacha tutib amalga oshirayin! **34** Menga aql-idrok bergin, Toki Qonuningga rioya qilayin, Uni chin qalbdan saqlab yurayin! **35** Meni amrlaring yo`lidan yurgizgin, Chunki undan men xushnud bo`ldim. **36** Yuragimni tamagirlikka emas, O`z shahodatingga moyil qilgin! **37** Behuda ish-harakatlarga qaratma ko`zim, O`z yo`llaringda meni tirik tutgin! **38** Sendan qo`rqqanlarga bergan so`zingni O`z qulingga ham barqaror qilgin! **39** Men qo`rqadigan haqoratni mendan uzoqlashtirgin! Faqat Sening hukmlaring olijanobdir. **40** Ha, Sening buyruqlaringni havas qildim, O`z adolating haqi jonlantirgin meni!

Vov

41 Bergan va `dangga ko`ra, ey Xudovand, Inoyating va najoting menga kelsin! **42** Shunda haqorat qilganlarga javob berarman, Chunki Sening kalomingga ishonchim komil. **43** Og`zimdan haqiqat kalomini butunlay tortib olma, Men Sening hukmlaringga umid bog`laganman. **44** Sening Qonuningni men hamma vaqt, Doimo va abadiy saqlayman. **45** Yuragim keng bo`lib yuraveraman, Zero buyruqlaringga ko`nglim moyil. **46**

Shohlar qoshida shahodat keltiraman, Seni deb sharmanda bo`lmayin! **47**
Men amrlaringni ko`p sevaman, Ulardan huzur-halovat topaman. **48** Mehr
bilan qo`l cho`zaman amringga, Farmonlaringni chuqur o`ylab
o`rganaman.

Zayn

49 Bandangga bergan so`zingni eslagin, Undan meni umidvor qilgansan-
ku! **50** Musibatim kunida tasallim shu bo`lur: Sening kaloming jonimga
jon kiritur. **51** Takabburlar meni ko`p masxara qilishdi, Men esa
qaytmadim Qonuningdan. **52** Azaliy hukmlaringni eslab Sening, Men
tasalli topmoqdaman, ey Xudovand. **53** Qonuningni tashlab ketgan, Yo`l-
yo`rig`ing bahridan kechgan fosidlardan Meni vahima bosib ketdi. **54** Shu
g`urbatsaromda nizomu qoidalarining Ilhom bo`ldi qo`shiqларimга mening.
55 Ey Xudovand, tunda Sening ismingni eslab, Qonuningga rioya qilishga
azm qildim. **56** Sening buyruqlaringni saqlaganim uchun, Bu baxt menga
nasib bo`ldi.

Het

57 Ey Xudovand, - dedim men, ? Kalomingni saqlashdir mening burchim.
58 Men chin ko`ngildan Senga yolvordim, Va danga ko`ra menga
mehribonlik qilgin! **59** Men yo`llarimni o`ylab ko`rdimu, Oyoqlarimni
qoidalarining tomon burdim. **60** Amrlaringni tutmoq uchun shoshildim, Shu
yo`lda mutlaqo imillamadim. **61** Betavfiqlar o`z domiga tortdi meni, Vale
Sening Qonuningni unutmadi. **62** Odil hukmlaring uchun shukr qilay
deb, Men yarim kechada ham turaman. **63** Men barcha Sendan
qo`rqanlarning, Buyruqlaringni tutganlarning ulfatiman. **64** Sening
inoyating bilan to`ladir yer yuzi, Menga qoidalariningni o`rgatgin, yo Rab!

Tet

65 Ey Xudovand, O`z kalomingga muvofiq Shu qulingga yaxshilik qilgin!
66 Menga a lo did va farosat baxsh etgin, Buyruqlaringga ishonchim
komil mening. **67** Jafo tortmasdan oldin adashar edim, Endi esa
kalomingni tutmoqdaman. **68** Sen yaxshisan, yaxshilik qiluvchisan,

Qonunlaringni menga o`rgatgin! **69** Takabburlar orqamdan g`iybatimni qiladilar, Men esa chin qalbdan amrlaringni tutaman. **70** Ularning yuragi charvi bog`lab semirgan, Men esa Sening Qonuningdan lazzat olaman. **71** Jafo tortganim menga yaxshi bo`libdi, Chunki qonun-qoidalariningni o`rganib oldim. **72** Minglab oltinu kumushdan afzal bilaman O`z og`zingdan chiqqan Qonuning Sening.

Yud

73 Sening qo`llaring meni yaratgan, barpo etgan, Amrlaringni o`rganishim uchun menga idrok bergin! **74** Sendan qo`rqqanlar meni ko`rib sevinar, Chunki Sening so`zingga umid bog`laganman. **75** Ey Xudovand, hukmlaring odil ekanini bilaman, Meni qiynaganingda ham vafodorlik qilding. **76** Qulingga bergan va `dangga ko`ra, Itifoting menga tasalli bo`lsin! **77** Rahm-shafqating menga kelsin va yashayman, Sening Qonuningdir menga huzur beradigan. **78** Meni nohaq sitam qilgan shakkoklar uyalsin, Men Sening buyrug`ingni fikrlab borayin. **79** Sendan qo`rqqan, shahodatingni bilgan Barcha men tomon burilib kelsin. **80** Men sharmanda bo`lmasligim uchun, Qoidalarining yo`lida dilimni pok saqlayman.

Kof

81 Najotingni kutib jonim ado bo`lmoqda, Kalomingga men umid bog`laganman. **82** Qachon menga tasalli berasan? - deya, Kalomingga tikilib ko`zim so`nib bormoqda. **83** Tutunda bujmayib qolgan meshga o`xshayman, Lekin Sening farmonlaringni unutmayman. **84** Shu qulingning umri ham qancha bo`lardi? Izimga tushganlarni qachon hukm etarsan? **85** Qonuningni mensimaydigan shakkoklar Menga cho`chuqur qazidilar. **86** Barcha amrlaring haqdir Sening. Nohaq izimga tushganlarga qarshi turib, Menga yordam yuborgin! **87** Meni yer yuzidan yo`q qilishlariga oz qoldi, Biroq men amrlaringdan ko`z yummadim. **88** Inoyat qilib meni barhayot saqlagin, O`z og`zingdan chiqqan shahodatni saqlab yurayin!

Lomed

89 Ey Xudovand, Sening kaloming abadiydir, U fazoda mahkam o`rnatilgandir. **90** Sadoqating nasldan-naslga o`tadi, Sen yerni mustahkam qilib yaratgansan. **91** Qaroring ila bugungacha hammasi mavjud, Sening qullaringdir borliq mavjudot. **92** Qonuningdan tasalli topolmasaydim gar, Men musibatdan yo`q bo`lib ketardim. **93** Buyruqlaringni hech vaqt unutmayman, Ular orqali menga hayot bag`ishlading. **94** Men Senikiman, xalos qilgin meni, Sening amringni o`zim talab qilganman. **95** Betavfiqlar meni yo`q etmoqni poyladi, Men-chi shahodatingni dilimga tugib oldim. **96** Har qanday kamolotning haddini ko`rdim, Sening amring esa hadsiz-poyonsizdir.

Mem

97 Qonuningni men qanchalik sevaman, Kun bo`yi u fikr-xayolimda mening. **98** Yovlarimdan ortiq dono qildi meni amring, To abad meniki deb bilaman farmoning. **99** Barcha ustozlarimdan aqlliroq bo`ldim, Chunon xayolimdan ketmas qonun-qoidalarining. **100** Oqsoqollardan ham hikmatliroq bo`ldim, Zero Sening buyruqlaringni saqlab kelaman. **101** So`zingga rioya qilay deya tiydim men Oyoqlarimni barcha yomon yo`ldan. **102** Sening hukmlaringdan qaytmadim, Zero O`zing menga ta`lim beryapsan. **103** Kalomlaring tomog`imga nechuk lazizdir, Og`zimga ular boldan ham shirin tatiydi! **104** Buyruqlaringdan aql o`rganganim uchun, Har xil yolg`on yo`ldan nafratlanaman.

Nun

105 Sening kaloming qadamlarim uchun chiroqdir, Yo`limga nur sohadigan yorug`likdir. **106** Haq qarorlaringni tutmoqqa ont ichdimu, Qasamimga vafo ham qilaman. **107** Men juda ko`p jafo chekdim, yo Rab, Kaloming ila menga jon baxsh etgin! **108** Ey Xudovand, tilimdagi hamdu sanoni Ko`ngil qurbonligi kabi qabul etgin, Hukmu qarorlaringni menga o`rgatgin! **109** Jonim nuqul hovuchimda bo`lsa ham, Lek Sening Qonuningni unutmadim. **110** Fosiqlar menga qopqon qo`ygan bo`lsa-da, Lek Sening amrlaringdan bosh tortmadim. **111** Vahiylaringni abadiy

meros qilib oldim, Ular yuragimga shod-xurramlik bag`ishlaydi. **112**
Nizom-qoidalaringga rioya qilmoqqa, Umrbod, qat íy qaror qildim.

Somex

113 Ikkilanuvchilardan nafratlanaman, Sening Qonuningni men sevaman.
114 Panohim va qalqonim Sensan, Sening so`zingga umid bog`laganman.
115 Ey badkirdorlar, mendan uzoqlashing, Xudoyimning amrlarini tutib yurayin! **116** O`z amring bo`yicha mahkam ushla qo`limdan, Yashayverayin, ko`nglimni sovitma umidimdan! **117** Menga madad yuborgin, xalos bo`layin, Nizomlaringga sinchiklab qarayin mudom! **118** Qoidalarindan chiqqan barchani Sen rad qilasan, Mana behudadir ularning hiylayu nayrangi! **119** Yer yuzidagi hamma betavfiqlarni Sen chiqitday supurib tashlaysan; Men-ku Sening vahiylaringni sevaman. **120** Sendan qo`rqqanimdan vujudimni titroq bosdi, Hukmlaringdan men juda qo`rqaman.

Ayn

121 Men insof va haqqoniyat yo`lida harakat qildim, Jabr qiluvchilar qo`liga topshirma meni! **122** O`z qulingdan darig` tutma shafloating, Takabburlar menga jabr-zulm qilmasin! **123** Sening najotingga ko`zim to`rt bo`ldi, Odil hukmingni kutib ko`zim nuri to`kildi. **124** Qulingga inoyat qilib ish ko`rsatgin, Amru farmonlaringni o`rgatgin menga! **125** Men Sening qulingman-ku, Menga aql-idrok bergin, Vahiylaringni fahmlab olayin! **126** Xudovandning ish qilish vaqt-soati keldi, Mana, Sening Qonuningni buzib yuribdilar! **127** Menga qolsa, amrlaringni oltindan ham, Eng sof tilladan ham ko`proq sevaman. **128** Hamma buyruqlaringni to`g`ri deb bilaman, Har qanday yolg`onchilikdan nafratlanaman.

Pe

129 Vahiylaring ajoyibdir Sening, Shul bois ularga yopishar jonim. **130** Kaloming ochilib qolganda ziyo sochar, G`ofillarga aql-idrok berar. **131** Og`zimni keng ochib oh deyman, Amrlaringga qanchalik zoriqaman! **132**

Ismingni sevguchilarga qilganingdek, Menga ham qarab mehribonlik ko`rsatgin! **133** Amring ila qadamlarimni to`g`ri qil, Hech bir yomonlik menga hukmron bo`lmasin! **134** Inson jabridan meni qutqargin, Buyruqlaringni tutib borayin! **135** Qulingga munavvar yuzingni ko`rsatgin, Nizom-qoidalariningni o`rgatgin menga! **136** Qonuningni buzganlar sababli Ko`z yoshimni daryoday to`kib yuraman.

Sode

137 Sen odilsan, ey Xudovand, Hukmlaring esa to`g`ridir Sening. **138** Vahiylaringni barhaq qilib buyurgansan, Ular tamomila ishonarlidir. **139** Jahdu g`ayratim meni ado etmoqda, Kalomingni esdan chiqaryapti-ku yovlarim! **140** Sening kaloming juda musaffodir, Quling unga qanchalik mehr qo`ygan! **141** Men kichikman, xo`rlanganman, Lekin buyruqlaringni unutmaman. **142** Sening adolating - mangu alolat, Qonuning esa - haqiqatdir. **143** Men azob va mashaqqatga yo`liqdim, Amrlaring-chi menga zavq bag`ishlar. **144** Vahiylaring abadiy adolatdir, Menga idrok bergin va yashayman.

Quf

145 Chin ko`ngildan yolvoryapman, Menga javob bergin, ey Xudovand! Sening qonun-qoidalariningni saqlayman. **146** Senga yolvoryapman, qutqargin meni, Toki shahodatingga sodiq qolayin! **147** Sahar chog`i turib nolayu fig`on qilaman, Sening so`zingga umid bog`layman. **148** Kalomingni fikr qilib tunni tongga ulayman, Ko`zlarimga uyqu bermayman aslo. **149** Inoyat qilib ovozimni eshitgin, yo Rabbim, Adolat qilib menga jon bergin! **150** Fisq-fasod payidan bo`lgan buzuq niyatlilar Qonuningdan uzoqlashib, menga yaqinlashdilar. **151** Biroq Sen juda yaqinsan, ey Xudovand, Barcha amrlaring esa haqiqatdir. **152** Vahiylaringni azaliy deb bilaman, Sen ularni mangu barqaror qilgansan.

Resh

153 Tushkunligimni ko`ru, meni qutqargin, Chunki Sening Qonuningni unutmadi! **154** Da`vomga chora qil, meni himoya etgin, Va`dangga

ko`ra meni jonlantirgin! **155** Betavfiqlar qutulishdan uzoqdir, Chunki ular nizomingni izlamaydilar. **156** Sen esa-chi ko`p rahmdilsan, ey Xudovand, O`z hukmu qaroring ila jonimni kiritgin! **157** Meni ta`qib qilayotgan dushmanlarim ko`p, Biroq Sening shahodatingdan men chiqmadim. **158** Kalomingga amal qilmaydigan xoinlarni ko`rib, Men qattiq nafratlandim. **159** Qara, Sening amrlaringni men qanday sevaman! Ey Xudovand, lutf qilib meni jonlantirgin! **160** Sening kaloming asosi haqiqatdir, Har bir adolatli hukming abadiydir.

Shin

161 Beklar sababsiz orqamdan tushdilar, Dilimga esa Sening kaloming qo`rquv solar. **162** Men Sening va`dangni eshitib, Katta g`animat topganday xursand bo`ldim. **163** Yolg`onchilikdan nafratlanib jirkanaman, Lekin Sening Qonuningni sevaman. **164** Men adolatli hukmlaringni kuylab, Har kuni yetti marta Senga sano aytaman. **165** Qonuningni sevganlarga buyuk xotirjamlik yordir, Ularning oyog`i to`siqqa qoqilib ketmas. **166** Najotingga umid bog`ladim, ey Xudovand, Sening amrlaringni bajarib boraman. **167** Vahiylaringni qalbimda saqlab yuraman, Ularni jon-dilim bilan sevaman. **168** Buyruq va nizomlaringni tutaman, Barcha yo`llarim Sening oldingda ayondir.

Tov

169 Faryodim Senga borib yetsin, ey Xudovand, Kaloming bilan menga fahm-idrok bergin! **170** Yolvorib-yalinishim Senga borib yetsin, So`zingga yarasha meni xalos qilgin! **171** Nizomlaringni menga o`rgatar ekansan, Senga maqtovlar tilimdan tushmasin! **172** Sening barcha amrlaring adolatli ekan, Irnim kalomingni tarannum etsin! **173** Qo`ling menga yordam bermoqqa shay bo`lsin, Sen buyurgan amrlarni men tanlaganman. **174** Najotingni havas bilan izlayman, yo Rabbim, Qonuning esa zavqu ovunchog`im bo`ldi mening. **175** Jonim yashasin, Senga maqtovlar o`qisin, Hukmlaring menga yordam bersin! **176** Yo`qolgan qo`y kabi yo`ldan adashdim; Sen shu qulingni axtarib topgin, Chunki amrlaringni unutmadi.

Zabur 119

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Xudovandga dod qildim men tangligimda, U esa quloq soldi faryodimga. **2** Yolg`onchi lablardan, makkor tildan Jonimni asragin, yo Rabbiiy! **3** Hoy makkor til-yey, Senga ne nasib bo`lar ekan? Nelar orttirar ekan senga Tangri? **4** Bahodirning o`tkirlashgan o`qlariyu, Qizg`in yulg`un cho`g`i nasib etgusi. **5** O`zimning holimga voy, deyman, Mana, kofirlar o`rtasida qolibman-ku, Imonsizlar chodiridan chiqmay qoldim! **6** Tinchlik dushmanlari birla uzoq yashab, Ancha qiynadim men jonimni! **7** Men tinchlik tarafdoriman, Illo og`zimni ochay desam, Ular urushni istaydilar.

Zabur 120

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Tog`larga ko`zlarimni tikaman, Menga madad qayerdan kelar ekan? **2** Xudovand yeru osmonni yaratgan, Undan kelar menga madad. **3** Oyoqlaring qoqilishiga U yo`l qo`ymagay, Sening Qo`riqchingdir U, uxlomagay aslo! **4** Ha, Isroilni Qo`riqllovchi mudramas, U mijja ham qoqmas. **5** Xudovand sening Qo`riqchingdir, O`ng tomoningdagi soyaboningdir U. **6** Kunduzi quyosh seni urmas, Kechasi oy senga zarar yetkazmas. **7** Har bir badbaxtlikdan seni asrar, Joningni ham qo`riqlar Xudovand. **8** Hozirdan boshlab to abadga qadar Chiqish va qaytishingni Xudovand asrar.

Zabur 121

DOVUDNING ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Xudovandning uyiga boramiz! - deganlardan xursand bo`ldim. **2** Sening darvozalaring ostonasida Oyoqlarimiz turgan edi, Quddus! **3** Uylaring bir-biriga tutash, Mahkam qurilgan shaharsan, Quddus! **4** U shaharga qabilalar borib kirdi, Xudovandning qabilalari borib kirdi. Xudovand ismini madh etmoq ? Ana bu Bani-Isroilga buyurilgan amr. **5** O`sha yerda

hukm qilish uchun taxtlar qurilgan, Dovud xonadoni uchun minbarlar qurilgan. **6** Quddusga tinchlik tilangiz: Seni sevguchilar huzur ko`rgay! **7** Devorlaring ichra tinchlik, Qasrlaring aro osoyish bo`lg`ay! **8** Qardoshu qondoshlarim uchun deyman: Senga tinchlik hamroh bo`lg`ay! **9** Rabbi Xudovandimiz xonadoni xotiri uchun Senga ezgulik tilayman.

Zabur 122

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Ko`zlarimni Senga tikaman, Ey, osmoni falakda o`ltirgan Egam! **2** Xuddi qullarning ko`zlari xo`jayini qo`liga, Kanizlarning ko`zlari bekasi qo`liga tikilganday, Bizning ko`zimiz Rabbi Xudovandimizga tikilgan, To U bizga mehribonlik qilguniga qadar. **3** Bizga mehribonlik qilgin, ey Xudovand! Bizga mehribonlik aylagin, Zero haqoratdan juda to`yganmiz. **4** Rohatda yashovchilarning masxarasidan, Dimog`i ko`tarilganlarning haqoratidan Jonimiz juda ham to`ygandir..!

Zabur 123

DOVUDNING ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Agar Xudovand biz bilan bo`lmasa edi, - desin Isroil, ? **2** Banibashar bizga qarshi chiqqanda, Agar Xudovand biz bilan bo`lmasa edi, **3** Ular ashaddiy qahr-g`azabi bilan Tiriklayin bizni yutib yuborishar edi. **4** Unda suvlar bizni bosib qolar, Jonimiz ustidan sellar quyular edi. **5** Unda suvlar shovullab toshib, Jonimiz ustidan bosib o`tar edi. **6** Xudovandni olqishlaylik, chunki Yirtqichlarga o`lja qilib qo`ymadi bizni. **7** Ovchilar qopqonidan qochib qutuldi Jonimiz bizning, bamisoli qush; Qopqon sinib, biz qochib qutuldik. **8** Yeru osmonni yaratgan Parvardigor ? Xudovandning ismidandir madadimiz.

Zabur 124

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Xudovandga umid bog`laganlar Sion tog`idaydir: U tebranmas, mustahkamdir ilalabad. **2** Quddus-chi tog`u tepa uning atrofidadir, Xudovand esa O`z xalqining atrofidadir, Hozirdan boshlab to ilalabad. **3** Xudovand fosiqlarning hukm hassasini Solihlar taqdiriga ustun qo`ymas, toki Solihlar nohaq ishga qo`l urmasin zinhor. **4** Yaxshilarga, yuragi to`g`rilarga O`zing yaxshilik qilgin, ey Xudovand! **5** O`zlarining qing`irligi ila yuruvchilarni esa Xudovand badkirdorlar bilan irg`itib tashlar. Isroilga tinchlik yor bo`lsin!

Zabur 125

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Xudovand Sion ahlini surgundan qaytarganda, Biz tush ko`rayotganlarday bo`lar edik. **2** Shu kez og`zimiz kulgi ila to`lib-toshar, Tilimizdan esa uzilmas edi tarannum. Shu kez el-xalqlar orasida: «Xudovand ular uchun buyuk ishlar yaratdi», - degan gap-so`z yoyilar edi. **3** Ha, Xudovand biz uchun buyuk ishlar yaratdi, Bundan biz xurram bo`lar edik. **4** Ey Xudovand, Janubistondagi sellarni Mavsumida Sen qanday qaytarib tursang, Surgunda bo`lganlarimizni shunday qaytargin! **5** Ko`z yoshi bilan ekin ekkanlar Xursandchilik bilan hosil ko`tarar. **6** Oh-zor bilan urug`ini sepgan dehqon Bog`-bog` bug`doy ko`tarib kuylab qaytar.

Zabur 126

SULAYMONNING ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Agar uyni Xudovand qurmasa, Quruvchilar bekorga ishlaydi; Agar shaharni Xudovand qo`riqlamasa, Qorovul bekorga bedor qoladi. **2** Bekorga sizlar sahar turib, Tungi uyqudan qolasizlar, Bekorga g`am-g`ussa nonini yeysizlar. Mana, Xudoning mahbubiga uyqu nasib etar. **3** Mana o`g`illar - Xudovand bergan nasiba, Farzandlar - Xudovand bergan mukofotdir. **4** Botirning qo`lida o`qlar qanday bo`lsa, Yoshlik chog`ida

ko`rgan o`g`illari shundaydir. **5** O`qdoni ular bilan to`lgan er baxtli! Maydonda dushmanlari bilan da volashsa, Elning ko`zi oldida sharmanda bo`lmas.

Zabur 127

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Baxtlidir Xudovanddan qo`rqadigan, Uning yo`llaridan yuradigan har bir inson! **2** Qo`l mehnating samarasini yer ekansan, Huzur-halovatga noil bo`lursan. **3** Xotining hovling ichra o`tqazilgan Serhosil tok novdasi kabi bo`lur. Dasturxonning atrofidagi o`g`illaring Zaytun ko`chatlari singari bo`lurlar. **4** Mana qarang Xudodan qo`rqqqan erni, U qanchadan-qancha barakaga erishur! **5** Xudovand seni Siondan tabarruk qilgay! Sen butun hayoting davomida Quddusning gullab-yashnashini ko`rgaysan. **6** Hatto o`g`illaring o`g`illarini ko`rgaysan. Isroilga tinchlik yor bo`lsin!

Zabur 128

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Yoshligimdan beri meni ko`p jabrladilar, - desin Isroil, ? **2** Yoshligimdan beri meni ko`p jabrladilar, Biroq meni yenga olmadilar. **3** Orqamda qo`shchilar yer haydab, Uzun egatlar ochdilar. **4** Xudovand esachi adolatparvardir, U fosiqlar kishanlarin sindirib tashladi. **5** Barcha Siondan nafratlanuvchilar Sharmanda bo`lib orqaga qaytsinlar! **6** Yulinmasdan oldin qurib ketgan Tom ustidagi o`t kabi bo`lsinlar! **7** U bilan na o`roqchining hovuchi, Na bog` bog`lovchining qo`yni to`lar. **8** O`tgan-ketgan o`roqchilarga aytishmasin: «Xudovand sizga baraka bersin!» - deya, «Xudovand nomidan sizni muborakbod etamiz!» - deb ham aytishmasin zinhor.

Zabur 129

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Ey Xudovand, Chuqurliklardan Seni chorlayapman! **2** Yo Rabbiy, ovozimni tinglagin, Yolvorishimga quloqlaring diqqat qilsin! **3** Yohu Rabbano! Sen gunohlarni hisobga olsang, Kim ham tura olar ekan? **4** Biroq, Sen kechirimlisan; Shu sabab el Sendan qo`rqsin. **5** Xudovandga umid bog`ladim, Jonim bilan umid bog`ladim, Uning amriga muntazirman. **6** Qorovulning saharni kutishidan ko`ra, Posbonning tongni kutishidan ko`ra, Jonim Rabbimga ko`proq muntazirdir. **7** Isroil Xudovandga umid bog`lasin! Xudovand rahm-shafqatlidir, Jon isqotini O`zi mo`l beradi. **8** O`zi forig` qiladi Isroilni Barcha gunohlaridan.

Zabur 130

DOVUDNING ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Ey Xudovand, dilimda mag`rurlik yo`q, Ko`zlarim takabburona boqmaydi. Men yeta olmaydigan, ajib ishlarga kirishmayman. **2** Jonimni tinchitdim men, osudaman. Onasi quchog`ida yotgan emiziksiz go`dak, Sutdan chiqarilgan chaqaloq kabi Bag`rimda yotibdi jonim mening. **3** Hozirdan to ilalabad Isroil Xudovandga umid bog`lasin!

Zabur 131

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Ey Xudovand, Dovudni ham, Barcha qayg`ularini ham eslagin! **2** U Xudovand huzurida qasam ichgan, Yoqubdek Jabborga nazr atab degan: **3** «Men uyimga kirmayman, To`shagim uzra yotmayman, **4** Ko`zlarimga uyqu kelmagay, Yumilmagay qovoqlarim ham, **5** To Xudovandga bir makon topmagunimcha, Manzil qurmagunimcha Yoqub qo`rqqan Jabborga». **6** Ahd Sandig`i Efratda, deb eshitgan edik, Ya ár qirlarida esa uni topib oldik. **7** Keling, Xudoning maskaniga kiraylik, Oyoqlari ostiga yiqilib sajda qilaylik! **8** Turgin, ey Xudovand, Rohatlanadigan yeringga chiqqin, O`zing ila qudratli Sandig`ing birla! **9** Ruhoniylaring solihlik ila

kiyinsin, Azizlaring sevinch-la tarannum etsin! **10** Quling Dovudning xotiri uchun, O`z tanlaganingdan yuz o`girmagin! **11** Xudovand Dovudga ont ichgan edi, So`zi barqarordir, U so`zidan qaytmas: «Taxtingga o`z urug`ingdan odam o`tqazaman. **12** Agar o`g`illaring Mening ahd-paymonimga, O`zim o`rgatgan shahodatga rioya qilsalar, O`g`illaring o`g`illari ham taxtingga o`tirar, to abad». **13** Zotan, Xudovand Sionni tanladi, O`ziga maskan uchun u yerni xohladi. **14** «Rohatlanadigan yerim shudir to abad, Bunda o`rnashaman, bu yerni xohladim, - dedi, **15** Ozuqalarini barakali qilib beraman, Nonga to`ydiraman faqir-fuqarolarin. **16** Ruhoniylariga najot kiyimini kiydiraman, Buyuk sevinch-la kuylab borar azizlarim. **17** O`sha yerda Dovudga saltanat paydo qilaman, Tanlaganimga yonar chiroqni muhayyo qilaman. **18** Dushmanlarini sharmandalik bilan qoplayman, Boshidagi toji esa gullab-yashnagay».

Zabur 132

DOVUDNING ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Birodarlarning inoq bo`lib yashashi Mana, qanday yaxshi va qanday soz! **2** Boshga surtilgan xushbo`y yog` kabidir bu, Ha, Horunning soqoliga oqib tushgan, To`ni yoqasigacha oqib tushgan moydekdir. **3** Sion tepaliklarigacha tushib kelgan Ko`hi Hermon shabnami kabidir bu. Zero Sionda Xudovand barakatni, Abadiy hayotni amr etgan.

Zabur 133

ZIYORAT QO`SHIG`I.

1 Ey sizlar, Xudovandning barcha bandalari, Kechalari Xudovandning uyida turganlar, Xudovand sha`niga hamdu sano aytinglar! **2** Uning muqaddas makoniga tomon Qo`llaringizni yuqoriga cho`zing-da, Hamdu sano aytinglar Xudovandga! **3** Osmon va yerni yaratgan Xudovand Seni Siondan turib tabarruk qilgay!

Zabur 134

Qodir Xudovandni kuylash

1 Hamdlar bo`lsin! Hamdlar o`qing, ey Xudovand qullari, Xudovandning ismiga hamdlar o`qing! **2** Ey siz, Xudovandning uyida turganlar, Xudoyimiz hovlilarida xizmat qilayotganlar, **3** Xudovandni maqtanglar, chunki U ezgudir, Ismini tarannum eting, chunki u olijanobdir! **4** Zeroki Xudovand O`ziga Yoqubni, Azizim deb Isroilni tanlagan. **5** Men bilaman, Xudovand ulug`dir, Ha, Rabbimiz barcha xudolardan ulug`dir. **6** Yer va osmonda ham, Dengizlar va hamma tubsiz joylarda ham Xudovand istaganini yarataveradi. **7** Yerning chetidan U bulutlarni chiqaradi, Yomg`ir ichra chaqmoqlarni chaqnatadi, O`z xazinalaridan yelni ham chiqaradi. **8** Udir Misrning to`ng`ichlarini qirgan, Insondan tortib hayvonga qadar. **9** Misr o`rtasida, Fir`avnning ko`zi o`ngida, Fir`avnning barcha qullari ko`zi o`ngida U karomatli ajoyibotlar paydo qilgan. **10** U ancha elu xalqlarni qirgan, Qudratli shohlarni tig`dan o`tkazgan. **11** Amo`riylar shohi Siho`nni ham, Bashan podshohi O`gni ham, Butun Kan`on shohliklarini ham U ag`darib tashlagan. **12** Ularning yer-mulkini tortib olib, O`z xalqi Isroilning mulkiga qo`shib bergan. **13** Ey Xudovand, Sening noming abadiydir, Nasllarcha davom etar xotirang, ey Xudovand. **14** Xudovand O`z xalqini hukm qilar, O`z qullariga rahm-shafqat aylar. **15** Majusiylarning manfur sanamlari kumush va oltindir, Inson qo`llarining ish-amalidir. **16** Ularning og`zi bor, lek so`zlamaydilar, Ularning ko`zlari bor, lek ko`rmaydilar. **17** Quloqlari bor-u, eshitmaydilar, Og`izlaridan esa nafas chiqarmas. **18** Ularni yasagan kishi, Ularga e`tiqod qilgan barcha Xuddi ularga o`xshab qolur. **19** Ey Isroil xonadoni, Xudovandni olqishlang! Ey Horun xonadoni, Xudovandni olqishlang! **20** Ey Leviy xonadoni, Xudovandni olqishlang! Ey Xudovanddan qo`rqqanlar, Uni olqishlang! **21** Quddusda maskan topgan Xudovand sha`niga Sionda hamdu sanolar o`qilsin! Hamdlar bo`lsin!

Zabur 135

Abadiydir Uning inoyati!

1 Xudovandga shukr qiling, U olijanobdir, abadiydir inoyati! **2** Xudolar Xudosiga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati! **3** Hokimlar Hokimiga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati! **4** Yolg`iz O`zi buyuk mo`jizalar yaratgan, Abadiydir Uning inoyati! **5** Osmonni U hikmat bilan yaratgan, Abadiydir Uning inoyati! **6** Yerni suvlar ustida o`rnatgan, Abadiydir Uning inoyati! **7** Buyuk osmon yoritqichlarin yaratgan, Abadiydir Uning inoyati! **8** Kunduzi hukm surmog`i-chun quyoshni yaratgan, Abadiydir Uning inoyati! **9** Tunda hukm surmog`i-chun oy va yulduzlarni yaratgan, Abadiydir Uning inoyati! **10** Misrdagi to`ng`ichlarni Qirganga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati! **11** U Bani-Isroilni o`rtalaridan olib chiqqan, Abadiydir Uning inoyati! **12** Ularni O`zining baland qo`li ila, O`zining cho`zilgan qo`li ila ozod qilgan, Abadiydir Uning inoyati! **13** Qizil dengizni ikkiga bo`lgan, Abadiydir Uning inoyati! **14** Bani-Isroilni dengiz o`rtasidan o`tkazgan, Abadiydir Uning inoyati! **15** Fir`avn va lashkarin Qizil dengizga ag`dargan, Abadiydir Uning inoyati! **16** Xalqini cho`ldan O`tkazganga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati! **17** U buyuk podshohlarni qirib tashlagan, Abadiydir Uning inoyati! **18** Shuhrati baland shohlarni o`ldirgan, Abadiydir Uning inoyati! **19** Amo`riylar shohi Siho`nni o`ldirgan, Abadiydir Uning inoyati! **20** Bashan podshohi O`gni nobud qilgan, Abadiydir Uning inoyati! **21** Ularning yerini meros qilib bergan, Abadiydir Uning inoyati! **22** O`z quli Isroilga meros qilib bergan, Abadiydir Uning inoyati! **23** Xor bo`lganimizda U bizni eslagan, Abadiydir Uning inoyati! **24** Yovlarimizdan bizni xalos etgan, Abadiydir Uning inoyati! **25** Har bir jonga rizqini Beruvchiga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati! **26** Osmon Tangrisiga shukr qiling, Abadiydir Uning inoyati!

Zabur 136

Surgundagi xalqning nolayu faryodi

1 Bobil nahrlari bo`yida o`tirib, Biz Sionni eslab yig`lar edik. **2** Bobil bag`ridagi tol daraxtlariga G`ijjaklarimizni osib qo`ygan edik. **3** Chunki bizni asir qilib olganlar Bizni u yerda masxara qilar, Bizdan qo`shiq aytib berishni so`rar, «Sion qo`shiqlaridan aytib beringlar!» - deb jonimizni qiynar edilar. **4** Ammo begona yerda ekanmiz, Xudovandning qo`shig`ini qanday aytaylik? **5** Agar seni unutsam, ey Quddus, O`ng qo`lim meni unutsin! **6** Ey Quddus, agar seni eslamasam, Eng cheksiz sevinchimdan yuqori tutmasam, Tilim tanglayimga yopishib qolsin! **7** Quddusga falokat kelgan kunda: «Uni tubigacha yalang`ochlang, Uni xarob qilib tashlang!» - degan Edo`m o`g`illarini esga olgin, ey Xudovand! **8** Ey, vayronagarchilik qizi - Bobil! Bizga qilgan yomonliklaring uchun Sendan o`ch olguchi baxtli bo`lur! **9** Go`daklaringni olib qoyaga urib, Tilka-pora qilguchi baxtli bo`lur!

Zabur 137

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, Chin ko`ngildan Senga shukr qilib, Ilohlar qarshisida Seni kuylayman. **2** Muqaddas ma bading tomon sajda qilib, Inoyatu sadoqating uchun shukr qilaman, Ulug` nomingga tan beraman Sening. Sen nomingdan ham ulug` va `da bergansan. **3** Chaqirgan kunimda menga quloq solding, Ko`nglimni ko`tarib tetik qilding. **4** Ey Xudovand, O`z og`zingdan chiqqan amrlarni eshitganlarida, Yer yuzi shohlari hammasi Senga shukr qiladilar. **5** Xudovandning yo`llarini kuylaydilar, Chunki shuhrati buyukdir Xudovandning! **6** Xudovand yuksak bo`lib, yuvoshlarga boqar, Mag`rurlarni esa uzoqdangina tanir. **7** Musibatlar ichida yursam ham, Sen mening ruhimni ko`tarasan; Yovlarim g`azabiga qarshi qo`l ko`tarib, Kuchli o`ng qo`ling ila meni qutqazasan. **8** Xudovand mening ishimni ro`yobga chiqazar. Sening inoyating abadiydir, ey Xudovand, O`zing yaratganlarni hech vaqt tashlab qo`ymagin!

Zabur 138

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, Sen meni sinading Hamda bilib olding. **2** O`tirib-turishlarimni Sen bilasan, Xayollarimni uzoqdan anglaysan. **3** Yurishimu yotishimni Sen tekshirasan, Barcha yo`llarim Senga ravshandir. **4** Biron gapni aytmoqqa tilim bormasdan, Sen hammasini bilasan, ey Xudovand. **5** Oldimdan va orqamdan meni o`rab olib, Qo`lingni ustimga qo`ygansan. **6** Bu mening tushuncham uchun g`oyat ajibdir, Yuksakdir, aqlim bovar qilmas. **7** Sening Ruhingdan qayerga ham ketar edim? Sening huzuringdan qayerga qochib boraman? **8** Agar osmonga o`rlasam, Sen u yerdasan, O`liklar diyoriga tushay desam, O`sha yerda ham Sen borsan. **9** Saharning qanotlarini olib uchsam, Dengiz chetlarigacha ko`chib o`rnashsam, **10** O`sha yerda ham Sening qo`ling meni yetaklar, Ha, kuchli o`ng qo`ling meni ushlab turar. **11** Agar men: Zulmat meni o`rab olsin, Atrofimdagi yorug`lik tunga aylansin, - desam-da, **12** Hatto zulmat ham Sen uchun qora emas, Tunni go`yo kunduzdek yorug` ko`rasan. Qorong`u va yorug` Sen uchun bari birdir. **13** Butun ichlarimni Sen bunyod etding, Onam qornida meni tashkil qilding. **14** Senga shukrlar qilaman, Men haybatli suratda yaralganman, San áting ajoyibdir Sening, Buni jon deb tan olaman. **15** Shaklim Senga sir emas edi; Pinhona vujudga kelganimni, Yerning tuban joylarida to`qilganimni, Hammasini ham Sen bilasan. **16** Hamon pusht shaklida ekanman, Ko`zlaring ko`rardi meni. Hali bir kun ham yashamaganimda, Sen kunlarimni tayin qilib, Hammasini kitobingga yozgan eding. **17** Sening muddaolaring menga juda azizdir, Ular qanchadan-qanchadir, ey Tangrim! **18** Ularni sanab chiqadigan bo`lsam, Qum zarralaridan ko`proq bo`lib chiqar. Men bir uxlab, uyg`onsam, Hali ham Sen bilan birgaman. **19** Ey Xudo, koshki Sen fosiqni o`ldirsang edi! Uzoqlashinglar mendan, barcha qonxo`rlar! **20** Nopok niyat bilan Seni tilga oladilar, Behuda ishlarni xayol qiladilar g`animlaring. **21** Ey Xudovand, Sendan nafratlanganlardan Men nafratlanmayinmi? Senga qarshi chiqqanlardan jirkanmayinmi? **22** Bor nafrat bilan ulardan jirkanaman, O`zimga dushman deb bilaman ularni! **23** Ey Tangrim, Meni sinab, yuragimni bilib olgin! Meni tekshirib, xayollarimni o`rganib

chiqqin! **24** Ko`rgil-chi, yo`limda biron xafalik bormikin? Abadiyat yo`liga meni yo`naltirgin!

Zabur 139

IJROCHILAR RAHBARIGA. DOVUD SANOSI.

2 Ey Xudovand, Meni yomon odamdan qutqargin, Zolimdan asrab qolgin meni! **3** Ular yuragida yovuz niyatlarni to`qib, Kundan-kunga urush qo`zg`aydilar. **4** Ilon kabi tillarini qayraydilar, Lablari uchida qora ilon zahridir. SALOT **5** Ey Xudovand, fosiq qo`lidan meni saqlagin, Zolim odamdan asrab qolgin meni! Ular meni turtib, yo`ldan toydirmoqchi. **6** Mag`rurlar men uchun dom yashirishdi, Borar yo`lim chetiga to`ru ilmoq, Qopqonu tuzoq yoyib qo`yishdi. SALOT **7** Mening Tangrim Sensan, dedim Xudovandga. Yolvorishimga quloq bergin, ey Xudovand! **8** Yo Xudoyo Xudovand! O`zingsan quvvatimu najotim mening, Jang kunida O`z panohingda asrading. **9** Fosiqlar tilagini bermagin, yo Rabbiy! Yovuz niyatlariga omad bersang gar, Ular mag`rurlanib ketar! SALOT **10** Meni o`rab olganlarning til uchidagi yomonligi O`z boshiga qaytib ularni shuvut qilsin! **11** Boshlariga yonayotgan cho`g`lar yog`sin, Otashga, tubsiz chuqurliklarga tashlansin, Qaytib u yerdan chiqmasinlar! **12** Til qayrovchi odam mamlakatda o`rnashmasin, Zolim izidan badbaxtlik quvib halok qilsin! **13** Bilaman, Xudovand mazlumni himoya qilar, Bechoraholni U adolatli hukm qilar. **14** Solihlar-chi Sening isminga shukr qilar, Sofdillar bari Sening huzuringda yashar.

Zabur 140

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, Senga yolvoryapman, menga shoshilgin! Chaqirgan chog`im tavallomga quloq solgin! **2** Ibodatim isiriq kabi tutab, Sening oldingga yetib borsin; Duoga qo`l cho`zishlarim esa Senga Shom qurbonligiday maqbul bo`lsin! **3** Ey Xudovand, og`zimga posbon qo`ygin, Irnim eshigini ihota qilgin! **4** Yuragimni yomon yo`lga mayl qilmagin, Yovuz odamlarning kirdikorlarigagin, Yomon qilmishlariga

havaslantirma, Ularning mazasidan men lazzat olmayin! **5** Solih meni urar ekan - bu inoyatdir, U meni fosh qilar ekan - boshimga moydir, Bundan men bosh tortmayman mutlaqo. Vale hanuzgacha mening ibodatim Yovuzlarning yovuzligiga qarshi qaratilgan. **6** Ularning beklari qoyaga urilib nobud bo'lganda, Mening so'zlarimga ular quloq solajaklar, Yoqimli so'zlar ekanini tushunajaklar. **7** Xuddi yer haydagandek bizni chopib-tilib, Suyaklarimizni o'liklar diyoriga sochib yubordilar. **8** Mening ko'zlarim esa Senga tikilgan, Yo Rabbim! Ey Xudovand! Sendan panoh topgan ekanman, Zinhor itqitib tashlama jonim! **9** Menga qasd qilib qo'yilgan domdan, Qonunsizlar tuzog'idan saqlagin meni! **10** Men bemalol o'tib ketar ekanman, Fosiqlar o'z to'rlariga tushib qolsinlar.

Zabur 141

DOVUDNING G'ORDALIGIDAGI QASIDASI. IBODAT.

1 Ovozim Xudovandga yetib borsin, Nolayu faryod qilaman. Ovozim Xudovandga yetib borsin, Tavallo qilib yalinaman. **2** Ko'nglimni Uning oldida ochaman, Qayg'ularimni Unga so'zlab beraman. **3** Tanimdagi ruhim holdan ketganda, Sen borar yo'limni bilar eding. Men kelayotgan yo'limda-ku Men uchun ilmoq yashiribdilar. **4** O'ng tomonimga qarasam, Meni taniydigan hech kim yo'q, Men uchun qochar joy qolmabdi, Jonim haqida hech kim qayg'urmayapti. **5** Ey Xudovand, Senga faryod qildim: Sensan mening panohim, dedim, O'zingsan tiriklar diyoridagi hissam mening. **6** Nalamni tinglagil, juda toliqqanman! Meni quvg'in qilganlar qo'lidan xalos etgin, Ular mendan g'oyat zo'rdirlar! **7** Ismingni madh etmog'im uchun, Zindondan chiqarib yubor jonimni! Menga ezgulik qilganing uchun, Solihlar atrofimga to'planadilar.

Zabur 142

DOVUD SANOSI.

1 Ey Xudovand, ibodatimni eshitgin, Sadoqating haqi tavallomga quloq solgin, Adolating haqi menga javob bergin! **2** Bandang bilan da'volashmagin, Chunki yashaydiganlardan birortasi Sening oldingda

oqlana bilmas. **3** Dushman jonim payiga tushdi, Hayotimni oyoqosti qildi. Dunyodan o'tib ketganlar kabi, Meni qorong`ida yashashga majbur etdi. **4** Tanimdagi ruhim juda tushkun, Siyamdagi qalxim alamzada. **5** Ilgarigi kunlarni eslayman, Barcha ishlarini fikrlab yuraman, Qo'llaring ijodi haqida o'ylab yuraman. **6** Qo'llarimni Sen tomon cho`zaman, Jonim qurigan yer kabi Senga tashna. SALOT **7** Ey Xudovand, meni tezda eshitgin! Sog`inchdan ruhim holdan ketmoqda! Yuzingni mendan yashirmagin, toki Go`rga kirganlar kabi bo`lib qolmayin! **8** Sahardan inoyatli so`zingni eshittirgin, Chunki Senga umid bog`laganman. Yuradigan yo`limni menga ko`rsatgin, Chunki Senga ko`ngil bog`laganman. **9** Dushmanlarimdan xalos qilgin, ey Xudovand! Men Sening huzuringga yuguraman. **10** Irodangni ado etishni menga o`rgatgin, Sensan mening Xudoyim! Sening olihimmat Ruhing Ravon yerlardan meni yetaklab borar. **11** Ey Xudovand! O`z isming haqi meni jonlantirgin, Adolating haqi meni kulfatdan qutqargin! **12** Inoyating haqi dushmanlarimni qirib bitirgin, Jonimga g`ulu solganlarning barini yo`q qilgin! Axir, men Sening bandangman-ku!

Zabur 143

DOVUD SANOSI.

1 Qo'llarimni jangga, Barmoqlarimni urushga o`rgatgan Suyanchig`im - Xudovandni olqishlayman. **2** U inoyat manbaim va qo`rg`onimdir, Istehkomim, Xaloskorim mening, Qalqonimdir, Undan panohtopdim, U xalqimni menga bo`ysundirgan. **3** Ey Xudovand, inson qadri nedirki, Sen unga e`tibor bergaysan? Inson o`g`li nedirki, Sen uni ardoqlaysan? **4** Odamzod - bir nafasginadir, Kunlari bir soya kabi o`tib ketar. **5** Ey Xudovand, osmoningni yorib tushgil, Tog`larga tekkil, ulardan tutun chiqargil! **6** Chaqmoq yuborib, yovlarni tarqatgin, O`qlaringni otib, ularni supurib tashlagin! **7** Samodan qo`lingni uzatib meni qutqargin, Ulkan suvlardan, ajnabiylar qo`lidan Meni xalos qilgin! **8** Ularning og`zidan yolg`on-yashiq gaplar toshgan, Qo'llari esa harom ishlarga bulg`angandir. **9** Ey Xudo, Senga yangi qo`shiq aytaman, O`n torli changda Seni tarannum etaman. **10** Sensan-ku shohlarga najot beradigan, Bandang

Dovudni qilich damidan qutqazgan. **11** Ajnabiy o`g`illarining qo`lidan qutqar, Xalos qil bandangni! Ularning og`zidan yolg`on-yashiq gaplar toshgan, Qo`llari esa harom ishlarga bulg`angandir. **12** O`g`illarimiz yoshligida o`sib qalinlashgan ko`chatlar kabi, Qizlarimiz saroyning naqshli ustunlari kabi bo`lsinlar! **13** Omborlarimizda mo`l-ko`lchilik bo`lsin, Har xil ne`matlardan to`lib-toshsin! Yaylovlarimizdagi qo`ylar ming-minglab, Mingi esa tuman bo`lib ko`paysin! **14** Qora molimiz semirib borsin, Talash ham, zarar-ziyon ham bo`lmasin, Ko`chalarimizda dod-fig`on eshitilmasin! **15** Mana shunday duolarni olgan xalq baxtli! Xudovandni Rabbimiz deb bilgan xalq baxtli!

Zabur 144

DOVUDNING MAQTOV QO`SHIG`I.

1 Ey Xudoyim, ey Podshohim, Seni ulug`layman, Ismingga abadulabad tasannolar aytgayman. **2** Seni kundan-kunga olqishlayman, Ismingni madh etaman ilalabad. **3** Xudovand buzrukvordir, U ko`p maqtovgga sazovordir, Uning buyukligiga aql yetmas. **4** Ishlaringga zurriyotlarimiz tasanno aytishgay, Qudratli ajoyibotlaringni xabarlab yurishgay. **5** Men ulug`vorliging, savlatu mahobating, Ajoyib ishlaring haqida o`ylab yurgayman. **6** Vahimali g`aroyibotlaring haqida gapirgaylar, Buyukligingni xabar qilmoq esa menga farz. **7** Ulug` iltifotingni maqtab yurgaylar, Odilligingni kuylab tarannum etgaylar. **8** Xudovand rahmonu mehribondir, U uzoq sabrli, juda inoyatlidir. **9** Xudovand har bir insonga himmat aylar, Barcha maxluqotga rahm-shafqat ko`rsatar. **10** Ey Xudovand, Hamma yaratganlaring Senga shukr qilar, Azizlaring Senga hamdu sano o`qirlar. **11** Saltanating shon-shuhratini targ`ib qilar, Kuch-qudrating haqida hikoya qilarlar. **12** Inson o`g`illariga Sening qudratli ishlaring, Buyuk, hashamatli saltanatingni bildirarlar. **13** Sening saltanating davrlar osha davom etar, Asrdan-asrga Sen hukmronlik qilasan. **14** Barcha yiqilayotganlarga Xudovand madad berar, Har bir qaddi bukilganni U rostlar. **15** Hammaning ko`zi Senga tikilgan ekan, O`z vaqtida ularning rizqini berasan. **16** Sen qo`lingni ochasan-u, Har bir jonzotni marhamatingga to`ydirasan. **17** Xudovand barcha yo`llarida

adolatli, Hamma ishlarida sodiq va inoyatlidir. **18** Xudovandga murojaat qiladigan, Chin qalbdan murojaat qiladigan Har bir insonga U yaqindir. **19** Xudojo`ylarning tilagini U qondirar, Ularning faryodini eshitib, najot berar. **20** O`zini sevgan hammani Xudovand asrar, Barcha betavfiqlarni esa yo`q qilar. **21** Xudovandning madhi tilimdan tushmas, Butun odamzod hamdu sano aytsin Uning muqaddas ismiga, to abad!

Zabur 145

Vafodor va odil Xudoga hamdu sano

1 Hamdlar bo`lsin! Ey jonim, Xudovandni madh qilgin! **2** Tirik ekanman Xudovandni madh qilaman, Umrin boricha Xudoyimni tarannum etaman. **3** Umid bog`lamang beklarga, Najot berolmaydigan odamzodga! **4** Uning ruhi chiqib, o`z tuprog`iga qaytar, O`sha kunning o`zida puchga chiqar Uning barcha murod-orzulari. **5** Yoqub Tangrisini yordamchim deb bilgan, Rabbim deb Xudovandga umid bog`lagan Har bir inson baxtlidir! **6** O`zi yeru osmonni ham, dengizni ham, Ulardagi har bir mavjudotni ham yaratgan, U abadiy vafodorligini saqlaydi. **7** Xudovand ezilganlarni himoya qiladi, Ochlarga non, asirlarga ozodlik beradi. **8** Xudovand ko`rlarning ko`zini ochadi, Qaddi bukilganlarni U rostlaydi, Solihlarni sevadi Xudovand. **9** Xudovand g`ariblarni asraydi, Yetim va bevalarga mador beradi, Fosiqlarni esa yo`llaridan adashtiradi. **10** Xudovand abadiy hukm surgay! Sening Xudoying, ey Sion, Davrdan-davrga saltanatli bo`lgay! Hamdlar bo`lsin!

Zabur 146

Parvardigor kimdan rozi?

1 Hamdlar bo`lsin! Xudoyimizni tarannum etmoq Qanday yaxshi, qanday lazzatlidir! Mana, U ko`p maqtovga munosibdir! **2** Quddusni qayta qurajak Xudovand, Isroilning tarqalib ketganlarini esa O`zi to`plab olajak. **3** U ezilgan ko`ngillarni davolab, Yaralariga malham surtadi. **4** U yulduzlar sonini belgilab, Hammasini nomma-nom chaqiradi. **5** Rabbimiz buyuk, quvvati azimdir, Donoligini esa o`lchab bo`lmaydi. **6** Xudovand

xokisorlarni yuqori ko`tarar, Betavfiqlarni esa yerga urar. **7** Xudovandga shukrona aytib kuylanglar, G`ijjakda kuylanglar Xudoyimizni! **8** U bulutlar ila osmonni qoplaydi, Yer uchun yomg`ir hozirlaydi, Tog`larda esa giyoh o`stiradi. **9** Hayvonlarga U rizqi-ro`zini beradi, Qag`illaydigan qarg`a bolalarin to`yg`azadi. **10** Xudovand otning kuch-quvvatidan rozi bo`lmas, Chopqirning boldirlari Unga manzur bo`la olmas. **11** Xudovand O`zidan qo`rqadiganlardan, Inoyatiga umid bog`laganlardan rozi bo`lur.

Zabur 147

Ey Quddus va butun dunyo!

1 Ey Quddus, Xudovandni madh qilgin! Xudoyingga hamd aytgin, ey Sion! **2** Udir darvozalaring tambalarini mahkamlagan, O`rtangdagi o`g`illaringga barakat beradigan, **3** Sarhadlaring ichra tinchlikni barqaror qilgan, Seni bug`doy hosili bilan to`ydiradigan. **4** U yer yuziga kalomini jo`natar, Uning amri zudlik ila yelib borar. **5** U jun kabi qor yog`dirar, Kul singari qirov sochar. **6** U parcha-parcha qilib muz yog`dirar; Qahraton ayoziga kim tob bera olar? **7** U kalomini yuborib, ularni eritar, Shamolini yuborib, suvlarni oqizar. **8** U O`z kalomini Yoqubga bildirgan, Qonun-qoidalarini Isroilga bergan. **9** U boshqa xalqqa buni ravo ko`rmagan, Ular Uning hukmlarini bilmaydilar. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 148

Butun dunyo Xudoni madh qilsin

1 Hamdlar bo`lsin! Osmondan Xudovandni madh qilinglar, Balandliklardan turib Uni maqtanglar! **2** Ey, Uning barcha malaklari, Uni madh qilinglar! Ey, Uning barcha qo`shinlari, Uni madh qilinglar! **3** Ey quyosh va oy, Uni madh qilinglar, Ey butun nurli yulduzlar, Uni madh qilinglar! **4** Ey osmonu falaklar, Ey ko`k yuqorisidagi suvlar, Uni madh qilinglar! **5** Xudovandning ismini madh qilsinlar, Chunki U amr etdi va ular yaratildi. **6** U ularni abadiy o`rnashtirdi, Ularga qaytib bo`lmas mangu qonun berdi. **7** Xudovandni yerdan turib birga madh etinglar, Ey, dengiz ajdarlari va butun tubsizliklar! **8** Ey, otash va do`l, qor va bug`, Uning

kalomiga bo`ysunadigan bo`ron shamoli! **9** Ey, tog`lar va butun tepaliklar, Mevali daraxtlar va hamma sarv og`ochlari! **10** Ey, yovvoyi hayvonlar va butun chorvalar, Sudraluvchilar va qanotli parrandalar! **11** Ey, dunyo podshohlari va barcha xalqlar, Xonlar va yerning barcha hokimlari! **12** Ey, yigitlar bilan qizlar, Qariyalar bilan yoshlar! **13** Barisi Xudovand ismini madh qilsin, Chunki yolg`iz Uning ismi yuksakdir; Uning ulug`vorligi yerdayu osmondadir. **14** Barcha azizlarim shuhratini oshiray deya, U O`ziga yaqinlashtirgan xalqiga ? Isroil o`g`illariga g`alaba bag`ishlagan. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 149

Xudojo`ylar Xudoni madh qilsin

1 Hamdlar bo`lsin! Xudovandga yangi bir qo`shiq ayting, Azizlar jamoatida hamdu sanolar qiling! **2** Isroil o`zining Parvardigoridan sevinsin, Sion o`g`illari o`z Podshohidan quvonsin! **3** Raqs tushib Uning ismini madh qilishsin, Doira va g`ijjak ila Uni tarannum etishsin! **4** Chunki Xudovand O`z xalqiga marhamat qilar, Xokisorlarni najot gulchambari ila sharaflar. **5** Azizlar sharaf ila tantana qilsinlar, Yotganda ham tarannum etsinlar! **6** Og`izlarida Tangriga hamdu sanolar, Qo`llarida esa dudama qilich bo`lsin! **7** Toki ular o`zga xalqlardan o`ch olgaylar, Elatlarga tegishli jazosini bergaylar; **8** Toki podshohlarini zanjirlar bilan, To`ralarini po`lat kishanlar ila bog`lagaylar; **9** Toki ularni yozilgani bo`yicha hukm qilgaylar. Bu sharaf esa barcha Xudo azizlariga xos bo`lgay. Hamdlar bo`lsin!

Zabur 150

Butun jonzod Xudoni madh qilsin

1 Hamdlar bo`lsin! Muqaddas makonida Tangrini madh qiling! Qudratli falagida Uni madh qiling! **2** Qahramonliklari uchun Uni madh qiling! Buzrukvorligi uchun Uni madh qiling! **3** Burg`u ovozi bilan Uni madh qiling! Chang va g`ijjak ila Uni madh qiling! **4** Doira va raqs bilan Uni madh qiling! Nay va torli asboblarda Uni madh qiling! **5** Jarangdor zillar

bilan Uni madh qiling! Xushovoz zillar bilan Uni madh qiling! 6 Butun
jonzod Xudovandni madh qilsin! Hamdlar bo`lsin!